

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

RAXMANOVA NAFISA AZATBEKOVNA

**TARHI TOZA DOSTON HAQIDA
O'YLAR**

Adabiy monografiya

Toshkent – 2023

“Firdavs Shoh”

UO‘K 811.512.133-1

KBK 84(5)Y)

R 17

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy-texnik Kengashining 2023-yil
28-fevraldagi 2-sonli majlis bayonnomasiga asosan nashrga tavsiya etilgan.*

Mas’ul muharrir:

Davlatova Adiba Rahmatovna,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti o‘zbek
adabiyotshunosligi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori, dotsent.

Taqrizchilar:

Sabitova Tojixon,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti o‘zbek
adabiyotshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Mullaxo‘jayeva Karomat Toshxo‘jayevna,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
O‘zbek adabiyoti tarixi va folklor kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

Raxmanova N.A.

Tarhi toza doston haqida o‘ylar [Matn]. Raxmanova Nafisa Azatbekovna – T.:
“Firdavs Shoh” nashriyoti, 2023. – 108 b.

Adabiy monografiyada Alisher Navoiyning obraz yaratish borasidagi badiiy mahorati “Xamsa”ning ikkinchi dostoni “Farhod va Shirin”dagi obrazlar genezisi misolida yoritilgan. Navoiyning bosh va ikkinchi darajali obrazlarga yuklagan vazifalari va ular bilan bog’liq turli epizodlar tahlil etilgan. Shuningdek Navoiyning poetik mahorati xususida yangicha talqinlar berilgan.

Ushbu monografiya adabiyotshunoslik yo‘nalishida ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanuvchilar, magistrant va bakalavr talabalari uchun muhim manba sifatida xizmat qila oladi.

ISBN 978-9943-9360-7-2

© N.Raxmanova, 2023
© “Firdavs Shoh” nashriyoti, 2023

KIRISH

Hozirgi o‘zbek navoiyshunosligi oldida turgan dolzarb masalalardan biri Navoiy ijodini ilmiy-nazariy asosda o‘rganishda genetik va poetik aspektlarga mutanosib e’tibor qaratishdir. Alisher Navoiy ijodi turli muammolar kesimida o‘rganilganiga qaramay, “Xamsa” dostonlari genezisi, g‘oyaviy manbalari to‘liq o‘rganilgan emas. Holbuki, mashhur navoiyshunos Yoqubjon Is‘hoqov o‘tgan asrning saksoninchi yillaridayoq navoiyshunoslар oldida turgan muhim vazifa “Xamsa” sujetlarining genezisi, “Xamsa” va folklor, konflikt va sujet, kompozitsiya masalalarini yanada chuqurroq tadqiq etishdan iborat ekanligini ta’kidlagan edi. Genetik yondashuv Navoiy ijodining naqadar mustahkam asoslarga tayangani va orginalligini ko‘rsatsa, poetik yondashuv badiiy mahorat va ijodiy individuallik hodisalarini tushunishga yordam beradi.¹ Sh.Sharipovning “Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonining genezisi va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari” mavzusidagi nomzodlik ishi² va I.Ismoilovning “Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni genezisi va poetikasi”³ nomli doktorlik ishi bu sohada qilingan mukammal tadqiqotlardan bo‘ldi. Har ikkala ishda dostonlarning genezisi tadqiq etildi, shoirning obraz yaratish mahorati, poetik kashfiyotlari, sujetlar migratsiyasi masalasi ilk bor o‘rganildi.

A.Navoiy “Xamsa” yozishga kirishar ekan , o‘z oldiga an’ana doirasida salaflarini takrorlamaslik, “tarhi toza asar yaratish” maqsadini qo‘yadi. O‘zgalar yurgan yo‘ldan yurmaslik istagi sujet va obraz yaratish borasida jiddiy yangiliklar qilishga undadi. Buyuk shoirning novatorligini beshlikdagi barcha dostonlarda ko‘rish mumkin.

XX asr navoiyshunosligida “Farhod va Shirin” dostoniga bag‘ishlangan juda ko‘p tadqiqotlar yaratildi. Doston turli muammolar kesimida o‘rganilgan bo‘lsa-da, obrazlar genezisi va tadriji hali jiddiy tadqiq etilgan emas. S.Erkinov, N.Mallayev, A.Qayumov tadqiqotlarida “Farhod va Shirin” dostonining genetik asoslariga oid mulohazalar tahlil

¹ Исломов И. Алишер Навоий «Садди Искандарий» достонининг қиесий таҳлили. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган Диссертация/Кўлёзма ҳуқуқида – Тошкент, 2019.

² Шарипов Ш. Алишер Навоийнинг “Лисон ут-тайр” достонининг генезиси ва ғоявий-бадиий хусусиятлари. Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1978.

³ Исломов И. Алишер Навоий «Садди Искандарий» достони генезиси ва поетикаси. Филология фанлари доктори (DSC) илмий даражасини олиш учун ёзилган Диссертация/Кўлёзма ҳуқуқида, . – Тошкент, 2022.

etilgan bo'lsa-da, ularda asosan dostonning g'oyaviy – falsafiy mazmuni, badiyati va obrazlar tavsifiga oid kuzatishlar bayon qilingan.


Ma'lumki, Xusrav va Shirin sevgisi qissasi Firdavsiyning "Shohnoma"si tufayli yozma adabiyotga kirib keldi. Firdavsiy asosan Xusrav Parvezning sulolaviy tarixi, hukmdorlik faoliyatini yoritishga urg'u bergen bo'lsa, Nizomiy sevgi mojarosini bosh mavzuga aylantirdi, Nizomiy, Dehlaviy, Ashraf va Orif Ardabiliy kuylagan majoziy ishqni Alisher Navoiy ilohiy ishq bilan omuxta qildi. Genezisiga ko'ra tarixiylik, jangnomalik xususiyatlari yetakchi bo'lgan mavzu Navoiyning ijodxonasida irfoniy xarakter kasb etdi. Dostonning sujeti, obrazlarining asosiy qismi ramziy-majoziy xususiyatga egadir. Har bir obrazning (bosh obrazdan tortib epizodik obrazgacha) asarda zohiriylarini ma'nolari mavjud. Dehlaviyning "Shirin va Xusrav" dostoniga ijodiy tatabbu bog'lagan Navoiy majoziy ishq dostonini ilohiy ishq dostoniga aylantirdi; naqshbandiylik va tasavvufning murakkab qoidalarini zamondoshlariga badiiy talqinda sodda qilib tushuntirib bera oldi.

Ushbu monografiyada ishqiy dostonning Nizomiy tomonidan shakllantirilgan obrazlar tizimiga Navoiy tomonidan olib kirilgan yangiliklar, obrazlar genezisi va tadrijiy evolyutsiyasi, tarixiy asoslari; shuningdek, "Farhod va Shirin" dostoni bilan bevosita aloqador bo'lgan "Masnaviy", "Munojot" kabi asarlar misolida Navoiyning ijodiy orginalligi, badiiy kashfiyotlarini ilmiy asosda ko'rsatib berish vazifasi qo'yilgan.

Monografiyaning maqsadi "Farhod va Shirin" dostonidagi obrazlar genezisi va tadrijiy rivojini o'rganish orqali shoir ijodining qadimiy ildizlarini, manbalarini aniqlash va Navoiyning obraz yaratish mahorati; mavzu va an'ana takomiliga qo'shgan hissasini ilmiy asoslashdan iborat.

Monografiyada Alisher Navoiy asarlarining yigirma jildligidan o'rinni olgan "Farhod va Shirin" dostoni asosiy manba sifatida olindi. Shuningdek, turk shoiri Lami'i Mahmud Chalabiyning "Farhod va Shirin" ("Farhodnama") dostoni tadqiqotga jalb etildi. Navoiyning "Masnaviy", "Munojot" kabi boshqa asarlariga ham murojaat etildi.

Ushbu adabiy monografiya filologiya yo'nalishida ta'lim oladigan talabalar, magistrlar, adabiyotshunos va navoiyshunos olimlar hamda keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.



1-fasl:

**“ Emas oson bu maydon ichra turmoq,
Nizomiy panjasig‘a panja urmoq...”**

ALISHER NAVOIYNING “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDA NIZOMIY AN’ANALARI VA ULARNING YANGICHA TALQINI⁴

Sharq mumtoz adabiyotida mavjud an’anaviylik adabiy hodisasi ko’plab sujet va mavzularning bugungi kungacha yetib kelishida muhim o’rin tutadi. Turli davrlarda yashagan shoirlar ijodida an’anaviy mavzularning talqinini o’rganish ularning tarixini, genezisini aniqlashga imkon beradi. Ikkinchchi tomondan, muayyan mavzu yoki adabiy sujetning har bir davrdagi adabiy kanonlar, davr ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlari bilan muvofiqlashishi va, albatta, ijodkorning iste’dodi darajasida badiiy talqin etilganiga guvoh bo’lish mumkin.

Ko’pchilikning nazarida A. Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida Nizomiy an’analari mavzusi deyarli tadqiq etib bo’lingandek. Chindan, bu mavzu bo’yicha sohaning yirik olimlari muayyan tadqiqotlarni olib borganlar. Jumladan, Y. E. Bertels tadqiqotlarida Nizomiy “Xamsa”si, Navoiy “Xamsa”si ancha keng o’rganilgan edi. O’zbek olimi Sodir Erkinovning “Navoiy “Farhod va Shirin”i va uning qiyosiy tahlili” monografiyasi chop etilganiga ellik yil bo’ldi.⁵ Ozarboyjonlik sharqshunos olim G’azanfar Aliyev tadqiqotlari ham e’tiborga molik.⁶

Ushbu mavzuga bugun yana qayta murojaat qilishimizning sabablari bor. Jumladan, keyingi yillari Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy asarlari, shu jumladan, “Xusrav va Shirin” va “Farhod va Shirin” dostonlarining yangicha yondashuvlar asosida tadqiq etilishi, yangi talqinlarning vujudga kelishi ushbu masalaga qayta murojaat qilish zaruratini yuzaga keltirdi. Ayniqsa, Navoiy asarlari mazmuni va mohiyatini uyg’unlikda tekshirishga bo’lgan urinishlar bugun o’z samarasini bermoqda. Ikki shoir dostonlarini qiyoslab o’rganganda, ana shu talqinlardan foydalanish Nizomiy an’analalarini davom ettirgan Navoiy ijodiy niyatini chuqurroq anglashga imkon beradi.

⁴ Ushbu maqola dotsent K. Mullaxo’jayeva bilan hammalliflikda yozilgan:
[https://tilvaadabiyot.uz/bosh-sahifa/product/7-son-2022-yil,52-54 b.](https://tilvaadabiyot.uz/bosh-sahifa/product/7-son-2022-yil,52-54-b)

⁵ Эркинов С. Навоий «Фарҳод ва Ширин»и ва унинг қиёсий таҳлили.- Т.,1971. – 276 б.

⁶ Алиев Г. Ю. Темы и сюжеты Низами в литературах народов Востока. – М.: Наука, 1985. - стр.366.

Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonining kirish boblaridan birida: “Emas oson bu maydon ichra turmoq, Nizomiy panjasiga panja urmoq...” deb yozgan edi. Albatta, bunda shoir faqat Nizomiyga bas kelish masalasini emas, balki an’ana chambarida turib, yangi asar yaratishni ham nazarda tutgan. Zero, bunday vaziyatda – muayyan talablar doirasida asar yozish, shoir uchun o’zi tanlagan erkin mavzuda asar yozishdan mushkulroq ekanligini Y.E.Bertels ham o’zining nazira haqidagi fikrlari asnosida aytib o’tgan edi.

Alisher Navoiy ham “Farhod va Shirin”ni yozishni boshlaganida: “Ani nazm etki, tarhing toza bo’lg’ay, Ulusqa mayli beandoza bo’lg’ay”, – deb yangi tarhdagi asar yozishni o’z oldiga maqsad qilib qo’ygan edi. Nizomiy ham, Navoiy ham sujetni shakllantirish uchun ko’plab manbalarni o’rganib chiqqan. Bu haqda Navoiy o’z asarida ma’lumotlarni ochiq ifodalaydi. So’z ustasi Nizomiy, Hindiston sehrgari Xusrav Dehlaviy, shoir Ashraf asarlarini, shuningdek , tarixiy asarlarni sinchiklab, taqqoslab o’rgangan Navoiy bu asarlar o’rtasidagi ixtiloflarni ham ko’ra oldi.

Navoiy o’z dostonining salaflari, xususan, Nizomiy dostonidan farq qilishi kerakligini takidlab, yangi doston yozishi muhimligini va uning sabablarini ko’rsatadi. Birinchi sabab:

Yo’q ersa nazm qilg’onni xaloyiq
Mukarrar aylamak sendin ne loyiq.

Xush ermas el so’ngincha raxsh surmak,
Yo’likim, el yugurmishtur yugurmak.⁷

(Axir boshqalar nazm qilganni takrorlash senga yarashmaydi. Eldan orqada qolib, ot choptirish ham, odamlar bosib o’tib ketgan yo ’ldan yugurib yurish ham senga yarashmaydi.)

Bu dostonni yozishga ikkinchi sabab shoirga yopishgan ishq balosi edi:

Yana bois bukim, ishqি balosho’r,
Bir o’tdin aylab erdi jonima zo’r.

Tilim xud bor aning ta’rifida lol,
Qilay xomam tilidin sharhi ahvol.

⁷ Алишер Навоий, Фарход ва Ширин, МАТ. 20 жилдлик. Т.8 -Т.:Фан,1991,144- б.

Hazin jonomda bor erdi baloye,
Balolig' ishq ila haryon havoye.

(*Dostonni yozishga yana bir sabab, menga balo bo'lib yopishgan sevgi bo'lib, bu sevgining o'ti jonomga zo'rlik qilib qiynar edi. Tilim u sevgini ta'rif qilishdan lol; shunday ekan, men o'z ahvolim sharhini qalam tili bilan bera qolay. O'ksik jonomga bir balo yopishgan bo'lib, bu ishq g'avg'olari meni har dam havoyi qilib qo'ygan edi.*)

Birov ishqisi solib jonomg'a anduh,
Mashaqqat toshi yuklab ko'h to ko'h.

Bo'lub zulmi o'tidin xasta jonom,
Qarorib dudi birla xonumonim.⁸

(*Bir mahbubaning ishqidin jonom qayg'u-alamda bo'lib, yelkamga tog'-tog' mashaqqat toshlari ortilganday edi. Uning zulmi olovidan jonom xasta va u o'tning tutunidan xonumonim qoraygan edi.*)

Shunda unga g'oyibdan bir nido kelib, hotif (g'oyibdan oq fotiha beruvchi) uni yangi bir asarni yozishga ilhomlantirganini, keyin Jomiyning oldiga borganini, u ham shoirni duo qilib, bu ishda unga oq yo'l tilaganini yozadi.

Ma'lumki, an'ana va o'ziga xoslik muammosi tadqiq etilganda qiyoslanayotgan asarlarni g'oya va badiiyat uyg'unligi – poetika mezonlari nuqtayi nazaridan o'rganish taqozo etiladi. Bunda har ikki dostonning kompozitsion o'ziga xosligi, ularning sujet va obrazlari poetikasi nazarda tutilmoqda.

Sharqda Xusrav va Shirin muhabbat hayotiy asosga ega ekanligi va xalq og'zaki ijodida tarqalgani haqidagi fikrlar manbalar asosida Bertels, S.Erkinov kabi tadqiqotchilar tomonidan aniqlab berilgan. Dastlab yozma adabiyotga Firdavsiy "Shohnoma"si orqali kirib kelgan bu mavzu ko'proq Xusrav Parvezning sulolasи, siyosiy faoliyat, hokimiyatga oid ishlari talqiniga ko'proq o'rinn ajratilgani bilan e'tiborni tortadi. Bu – bir jihatdan Firdavsiy asarining tabiatи bilan bog'liq. "Shohnoma" – shohlar haqidagi qahramonlik dostoni. Buni uning mutaqorib bahrida yozilganida ham ko'rish mumkin.

Nizomiy esa o'z dostonida ishq mavzusini birinchi planga olib o'tdi. Hatto uning bahrini ham o'zgartirdi, chunki XI asrda romantik dostonlarni (qahramonlik dostonlaridan farqli ravishda) hajaz bahrida

⁸ Алишер Навоий, Фарҳод ва Ширин, МАТ. 20 жилдлик. Т.8 -Т.:Фан,1991, 35- 6.

yozish tendensiyasi shakllangan edi. Bu haqda o’z fikrlarini bayon qilgan Y.E.Bertels yana shunday deydi: “Nizomiy dostoni hajaz bahrida yozilgan va uning nomlanishida ikkita ism turibdi, bu bilan shu narsa aniq ko’rinmoqdaki, Xusravning sulolaviy tarixini yoritish muhim masala bo’lmay qoldi”.⁹ Ishqiy mavzudagi ushbu dostonning o’z obrazlar tizimi shakllana boshladi. Bular: Xusrav, Shirin, Buzurgmehr, Shopur, Farhod, Bahrom, Maryam, Shakar, Sheruya, Shamira (Mehinbonu), ...

Nizomiyning obrazlarni olib kirish mahorati ham o’ziga xos. Jumladan, Xusrav va Shirin munosabatlari, bu munosabatlar dinamikasi, dramatizmga to’la voqealar tasviri ko’proq Shopur va Farhod obrazlari atrofida kechadi. Nizomiy ularni “Shohnoma”ning Xusravga aloqasi bo’limgan boshqa dostonlar ichidan tanlab oladi. Masalan, Farhod “Shohnoma”dagi Suhrob va boshqalarga aloqador dostonlardan olingan. Deylik, u yerda Farhod pahlavon, tug’bardor... Nizomiy uni mahorat bilan javobsiz ishqning egasi – oshiqqa aylantioldi.

Nizomiy dostonida garchi Shirin Xusravni yaxshi ko’rsa-da, lekin muallif Xusravga nisbatan kitobxonda xayrixohlikni uyg’otmaydi, balki uning timsolida oshiq shahzoda, keyinchalik shohning o’z maqsadiga yetish uchun harakatlarini, g’ururini ham ko’rsatadi. Shirin tuyg’ulari va Farhodning sevgisi kitobxonda ularga nisbatan mehr uyg’otadi. Nizomiyning ushbu dostonga Farhodni olib kirishi keyingi dostonlarda (Dehlaviy va Navoiy dostonlarida) barcha obrazlarning tadrijiy takomilini va yangi talqinlarga ko’chishiga xizmat qildi.

Xusrav va Shirin muhabbati haqida doston yozgan Nizomiy tarixiy haqiqatdan juda uzoqlashib ketmagan. Shirin orqali o’z muhabbatiga intilgan, uning uchun kurasholgan jasoratli va go’zal bir qiz tasvirlanar ekan, bu go’zallik zamiriga aslida, uning oqilaligi, o’z izzat-nafsi, ornomusi yo’lida bardoshli bir siymo turadi. Shirin orqali Nizomiy ma’rifatni olib kirdi. Alisher Navoiy esa bu ma’rifatni irfon darajasiga ko’tardi.

“Farhod va Shirin” dostonining keyingi yillardagi tahlil va ilmiy talqinlari shuni ko’rsatmoqdaki, dostonning sujeti, obrazlarining asosiy qismi ramziy-majoziy xususiyatlarni kasb etgan. Har bir obrazning matnda ifodalayotgan romantik-sarguzashtlar sifatida idrok etayotgan ma’nosi bilan birga botiniy ma’nosi ham mavjud. Bu ichki mazmun bir jihatdan ijtimoiy hayot bilan bog’lansa, ikkinchi tomondan va, asosan,

⁹ Бертельс Е.Э. Низами. Творческий путь поэта. - М.: Наука. 1956, стр,63

irfoniy – tasavvufiy ma'noga tutashib ketadi. XV asrda, Navoiy yashab ijod qilgan davrda naqshbandiylik g'oyalarini badiiy ijodda ham muhim o'rinni tutishi "Farhod va Shirin"da, umuman "Xamsa"da muallifning kontseptual qarashlarini ifodalashga imkon bergan edi.

Bular Navoiyning o'z dostonida obrazlarga yuklangan vazifalar va ular bilan bog'liq turli epizodlar tahlilida yana ham ochiqroq ko'rindi, jumladan:

- 1) Farhodning asosiy qahramon sifatida tanlab olinishi (Nizomiyda Farhod ikkinchi darajali obraz);
- 2) to'rt faslga atab qurilgan qasrlarning ramziy ma'nolari va Moniy, Boniy, Qoran obrazlariga yuklangan vazifalar (Nizomiy dostonida to'rt qasr jahongir Shamira (Mehinbonu)ga tegishli bo'lib, u yilning to'rt faslida ko'chib yurib, o'sha qasrlarda yashaydi);
- 3) solik insonning – darveshtabiat Farhodning bu dunyo boyliklariga munosabati;
- 4) Farhodning Shirin jamolini (mazharni) ko'rish uchun qancha sinovlarni boshidan kechirishi (Nizomiyda Shopur chizgan suratni ko'rib Shirin Xusravga oshiq bo'lib qoladi, Eronga kelib, badbo'y qasrda yashab Xusravni kutishga majbur bo'ladi);
- 5) Yunoniston safaridagi Farhod sarguzashtlari – boshidan kechirgan voqealarning (Ajdarho, Samandar yog'i, Ahriman dev, temir paykar, Sulaymon uzugi, sher, Jahonbin jomi, sandiqdagi ko'zgu) ramziy ma'nosi ;
- 6) Suhaylo, Xizr, Suqrot obraziga yuklangan tasavvufiy vazifalar;
- 7) Shirinning Farhodni yaxshi ko'rishi (Xusravni emas);
- 8) Farhodning Shirin uchun sut arig'i emas, balki butun xalqqa suv olib keladigan ariq va hovuzni qazishi, suvning tasavvufiy ma'nosi;
- 9) Shirinning atrofidagi qizlardan har biri ilmning bir sohasini mukammal egallaganligi (Nizomiyda ular ovda, chavgon o'yinida va qissago'ylikda mahorat ko'rsatadilar);
- 10) Shopur va Farhod do'stligiga yuklangan tasavvufiy mazmun (Nizomiyda Shopur Xusravning ishqiy sarguzashtlarida yordam beruvchi do'sti, to'y kuni Xusrav unga Shirinning mulki - Armanzaminni sovg'a qiladi);
- 11) qirqta insonning tushiga kirgan Jannat epizodi orqali solikning eng oliy maqomga yetgani - Olloh bilan birlashib ketganini ta'kidlash;
- 12) Farhod obrazi orqali tug'ma jazba kishisi ruhiyatini ochib berish;

13) Ilohiy ishq odami bilan foniy dunyo kishilari orasidagi ruhiy-ma’naviy tafovutlarni ko‘rsatish;

14) doston sujetiga Navoiy tomonidan kiritilgan epizodik obrazlarga yuklatilgan vazifalar.

Ko‘rinib turibdiki, Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni manbalardagidan ancha farq qiladi. Buni Navoiyning dostonda o‘z ilohiy ishqini, bu ishq orqali dardli dillar rozini kuylaganligi bilan asoslash mumkin. Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida “Farhod va Shirin” dostonini yozishda Xusrav Dehlaviyning “Shirin va Xusrav”idan ilhomlanganini yozgan.¹⁰ Tosh yo‘nish kasbini o‘rganib, dunyo kezishni istagani uchun saroydan quvilgan Chin shahzodasi Farhod bu dostonda ham ikkinchi darajali obraz hisoblanadi. Har ikkala dostonda majoziy ishqni ulug‘lash bosh maqsad hisoblanadi. Alisher Navoiy ijodiy tatabbu yo‘lidan borib, majoziy ishq dostonini ilohiy ishq dostoniga aylantirdi, zamondoshlariga naqshbandiylik va tasavvufning murakkab qoidalarini badiiy talqinda sodda qilib tushuntirib bera oldi.

ORIF ARDABILIY – ALISHER NAVOIYNING SALAFI

Buyuk Nizomiy an'analarini o‘ziga xos shaklda davom ettirgan san’atkorlardan biri XIV asrda yashab ijod etgan ozarbayjon shoiri Orif Ardabiliydir. U ilk bor Sharq adabiyotida Farhodni bosh qahramon qilib oldi va fors tilida ikki qisqli “Farhodnama” dostonini yaratdi. Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonining muqaddimasida “Xusrav va Shirin” mavzusida qalam tebratgan ijodkorlardan Nizomiy, Dehlaviy, Ashraf Marog‘iyarlari va “yaxshi ma’lum bo‘lmagan roqim”ni ham eslab o‘tgan:

Yana bo‘lgan ekan bu noma’lum marqum,
Vale roqim emastur yaxshi ma’lum.¹¹

Nushaba Arasli ushbu noma’lum ijodkor aynan Orif Ardabiliy ekanini, ikki dostonni qiyosiy o‘rganib, “Orif Ardabiliy va uning “Farhodnama” poemasi” nomzodlik ishida asoslab bergen. Har ikkala dostonda Chin shahzodasi Farhodning bosh qahramon qilib olinishi, voqealarning bevosita Farhod atrofida sodir bo‘lishi, Xusravning

¹⁰ Алишер Навоий, Мухокамат ул - луғатайн. МАТ. 20 жилд. Т. 16. -Т.: Фан, 2000.– 336 б.

¹¹ Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами:20 томлик.Т.8.Фарход ва Ширин–Т.: Фан,1991.49- бет.

ikkinchi darajali qahramon sifatida tasvirlanishi, Farhod uchun qasrlarning qurilishi, qurilishga eng mashhur ustalarning jalb etilishi, shahzodaning toshyo‘narlik kasbini o‘rganishi, Shopur bilan do‘stlashishi va Arman yurtiga kelishi, Mehinbonu va uning qizi Shirin bilan tanishishi, vazir Buzurg Ummidning Xusravga maqsadga yetish uchun Farhodni o‘ldirmaslik kerakligi, u boshqa odamning qo‘lidan o‘lim topishi kerakligini uqtirishi va Farhodning bir kampirning makkorligi sababli halok bo‘lishi; Muqbil va Bahrom, Gulistonning otasi – mashhur toshyo‘nar usta bilan Quran obrazlarining o‘xhash jihatlari – barchasi Navoiyning “Farhodnama” sujeti bilan tanish bo‘lganini isbotlaydi, deb ta’kidlaydi olma.¹²

Orif Ardabiliy ijodiga qiziqish XX asrning 30-yillariga to‘g‘ri keladi. “Farhodnama” dostoni haqidagi ilk tadqiqot chexiyalik sharqshunos Herbert Dudaga tegishli.¹³ Dudaning maqolasi, ayrim chalkashliklarga qaramay, muallif biografiyasи va uzoq vaqt fanga noma’lum bo‘lib kelgan dostonning mazmunini bayon qilib bergani bilan qadrlidir. Shu tadqiqotga asoslanib Ozarbayjonda uning tadqiqi bilan H. Arasli, M. Qulizoda, Q. Beqdeli, A.Rustamova va boshqalar shug‘ullanishgan. Shuningdek, “Turk Ansiklopedisi”, “Muxtasar Ozarbayjon adabiyoti tarixi” da ham shoir haqida qisqacha ma’lumotlar berilgan. Akademik Hamid Arasli Istanbulning Ayasofiya kutubxonasida № 3335 tartib raqami bilan saqlanadigan yagona qo‘lyozmaning fotonusxasini keltirgach, shu nusxa asosida dostonning ilk jiddiy tadqiqot ishini Nushaba Arasli amalga oshiradi. Olima o‘zidan oldingi tadqiqotchilar yo‘l qo‘ygan xatolarni tahlil qilib, Orif Ardabiliyning Ozarbayjon adabiyotida tutgan o‘rni, Firdavsiy va Nizomiya munosabati, Navoiy bilan yaratuvchilik aloqasini to‘g‘ri ochib berdi. Shuningdek, dostonni ozarbayjon tiliga tarjima qilish va nashr qilishday xayrli ishga bosh-qosh bo‘ldi. Doston ilk bor 2007 – yilda Xalil Yusifli tarjimasi va kirish so‘zi bilan e’lon qilindi.¹⁴

Shamsiddin Muhammad Orif Ardabiliy 1310-yilda Ozarbayjonning madaniyat markazlaridan biri bo‘lgan Ardabilda tavallud topgan. Shu yerda tahsil olib, shoir va xattot sifatida shakllangan. O‘z yurtida o‘ziga loyiq ish va mavqe topa olmagan shoir Shirvon davlati shohi Kovus ibn

¹² Арасли Н.Г. Ариф Ардабилий и его поэма ”Фархаднаме”. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук.-Баку,1969, стр.25

¹³ Duda Herbert, Ferhad und Schirin, Praha, 1933.

¹⁴ Arif Ardabiliy, Farhadname, Baki, 2007, 309 s.

Kayqubodning da'vati bilan poytaxt Shamaxiga keladi va shahzodaga muallimlik qiladi. Maktab ohib, Shirvon poytaxtining eng oldi o'qituvchisi sifatida taniladi. Xattotlik sirlarini, xususan, suls, nasx va ta'liq yozuvlarini bir necha kishiga o'rgatgan. Shirvonda shoirning hayoti ko'ngildagiday bir tekisda kechmaydi. Asosan ishqiy mavzuda she'rlar yozadi, madhiyabozlik bilan shug'ullanadi. Darband va Tabriz saroylarida ham yuqori martabaga erishadi. Orif Ardabily hayoti davomida ko'p sayohat qilgan. Sharqning juda ko'p shaharlarida bo'ladi, lekin qayerga bormasin, g'urbatda o'zini baxtsiz his qiladi. Nihoyat, yana Ardabilga qaytadi. 1369-yilda Ardabilda "Farhodnama" dostonining har ikkala qismini yozib tugatadi. Dostonning birinchi qismini Tabriz hukmdori Bahodirxon Shayx Uvays Jaloiriyga, ikkinchi qismini Shirvon shohi Hushanga bag'ishlaydi. Asarda Shirvon va Darbandning boshqa hukmdorlari ham buyuk hurmat bilan yod etilgan.

Dostonda keltirilgan ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, Orif Ardabiliy olti marta uylangan. Sakkiz o'g'li va bir nechta qizi bo'lgan. O'g'illaridan yettitasi va qizlari shoir tirikligida vafot etishgan. Aytishlaricha, shoir otasining vasiyatiga ko'ra o'g'illarining barchasiga Muhammad ismini qo'ygan. Ularni laqablari bilan aytib ajratgan, masalan: Muhammad, Badiaddin Muhammad, Husayn Muhammad, Shamsiddin Muhammad... Shoirning o'zining ismi ham, otasining ismi ham Shamsiddin Muhammad bo'lgan ekan. Orif uning taxallusi hisoblanadi. Shoirning qachon vafot etgani noma'lum.

Orif Ardabiliy ijodiy merosidan bizgacha faqat oltmis yosh bilan yuzlashganda yozgan "Farhodnama" dostoni yetib kelgan. Dostonning muqaddimasida yozilishicha, Shoir Orif "charxning gardishi bilan" o'z vatani Arbabidan ketib, Shirvonga keladi. Saroya martabaga erishadi. Bu yerda Farhod haqidagi afsonaning Nizomiy dostonidan farq qiluvchi yangi mukammal varianti - xalq dostoni bilan tanishadi. Shuningdek, o'zini Farhodning avlodi deb hisoblovchi mohir toshyo'nar bilan tanishadi. Farhod va uning o'g'illari qurgan inshootlar haqidagi hikoyalarni eshitadi. O'qigan, eshitgan, ko'rgan ma'lumotlarini umumlashtirib, bosh qahramoni Farhod bo'lgan ikki qisqli asarni yozishga kirishadi. Farhodning tarixiy shaxs ekanligini ta'kidlash uchun u qurgan inshootlardan haykallar bilan bezatilgan Guliston qal'asi va uning devorlaridagi toshga o'yib chizilgan rasmlarni, Bokudagi qal'a, suv ustiga qurilgan Noshahr qal'asi, Boku qabristonidagi maqbarani bat afsil tasvirlaydi.

Doston Nizomiy va Dehlaviy an'analarini davom ettirgan bo'lsa-da, bir qancha badiiy yangiliklari bilan diqqatga sazovordir:

1. "Farhodnama" Farhod haqidagi afsonaning ildizini o'rganish, obraz tadrijini tadqiq etish uchun qimmatli material beradi, chunki asar Farhod haqidagi afsonalarning eng qadimgi varianti asosida yaratilgan. Nizomiy bu afsonaning faqat Xusravga tegishli qismidan foydalangan bo'lsa, Orif Ardabiliy Guliston bilan bog'liq voqealarni ham keltirgan. Chin xoqonining o'g'li Abxaziyaga kelgunicha butparast bo'lgani afsonaning ildizini islomdan avvalgi davrlardan qidirish kerakligini ko'rsatadi.

2. Garchi "Farhodnama" Nizomiyning "Xusrav va Shirin" dostonidan ta'sirlanib yozilgan bo'lsa-da, uning o'ziga xos badiiy topilmalari bor. Dostonda Farhod va uning o'g'illari qurgan binolar bat afsil bayon qilinadi, chunki muallifning bosh maqsadi Farhodning ikki ayloga bo'lgan ishqiy munosabatlarini tasvirlash emas, balki XIV asrdagi nafis san'atni, mehnat va ijodkorlikni, insonning yaratuvchilik kuchini ulug'lash bo'lsa, ikkinchi tomondan Farhodning tarixiy shaxs ekanini isbotlashdir. Qizig'i shundaki, bu binolar hali ham O'rta Osiyo va Ozarbayjonda mavjud. Farhod nomi bilan bog'liq kanallar, inshootlarni o'rganish, shubhasiz, Farhod tarixiy shaxs bo'lishi kerak, degan xulosaga olib keladi. Balki, Farhod, haqiqatan ham, taxtdan voz kechib, o'zini me'morlik va san'atga bag'ishlagan, ismi afsonaga aylangan tarixiy shaxsdir. Balki, turkiy va Eron xalqlarining qadimgi e'tiqodiga ko'ra, yerosti ma'danlari Xudosi yoki yarimxudo odamdir. "Farhodnama" shu savollarga javob bera olishi bilan ham ahamiyatli asardir.

3. Orif Ardabiliy asari tarixiy faktlarning go'zal poetik ifodalarda berilishi bilan ham ahamiyatli. Masalan, gurjilarning turkiy qabilalar, xususan, qipchoqlar bilan qo'shnichilik aloqasi kelib chiqishi turkiy bo'lgan Farhodning abxaziyalik toshyo'narning qiziga uylanishi shaklida badiiy ifodasini topgan.

4. "Farhodnama" hayotga, inson sevgisiga yangicha munosabat bilan yondashgan orginal asardir. XIV asrning gumanizmini yangi shaklda – realizm metodida aks ettiradi, Nizomiyning ideal qahramonlarini romantikaning cho'qqisidan yerga tushiradi; endi ular oddiy odamlar kabi xatolar qiladilar, ikkilanadilar, kerak bo'lsa, tilanchilik ham qiladilar. Orifning qahramonlari - tug'ma jozibador, go'zal insonlar. Ularda seva oladigan yurak bor, orzulari yo'lida har qanday qiyinchilikdan qaytmaydilar, jasorat, mahorat ko'rsatadilar,

ba'zan "jinoyat"ga ham qo'l uradilar. Oddiy odamlar kabi sevinadilar, qayg'uradilar. Farhod, Guliston, abxaz toshyo'nar usta, Shopur, Xusrav, Shirin, Muqbil, Mehinbonu, Vizantiya shahzodasi va uning onasi, Abxaziya shohi, Fag'fur, Farhodning amakisi va o'g'illari, Maryam tamomila yangi timsollardir. Bu obrazlarning ba'zilarining ismi bizga Nizomiy, Dehlaviy dostonlari orqali tanish bo'lsa-da, "Farhodnoma"da ularning tamomila yangi qiyofasi, yangi ma'naviy olami qalamga olingan. Sujet qurilishi, voqealar, ularda qahramonlarning ishtiroki boshqacha talqinda berilgan.

5. Dostonda Farhodning ikki ayolga: oddiy xalq ichidan chiqqan Guliston va shoh qizi Shiringa bo'lgan muhabbati tasvirlanadi. Orif Gulistonning zohiriyligi go'zalligi bilan botiniy go'zalligi o'rtaida mutanosiblikni realistik tasvirlarda olib beradi. Shirin obrazi esa hokim feodal xonimlarga xos yengiltaklik, ortiqcha ehtirosiga berilish, ma'naviy qashshoqlikni o'zida birlashtiradi. Muallif saroy xonimlarini, o'zi tanigan joriyalarni Shirin obrazida umumlashtirgan. Uning Shirini zohiran go'zal, botinan axloqsizddir: to'qqiz yoshidan Farhodga oshiq bo'ladi, Xusravga unashtirilgan bo'lsa-da, xotini o'lgan Farhod bilan yashirinchada ishqiy munosabatda bo'ladi. Qasr-i Shirinda yashagan paytida ham har xil hiylalar o'ylab topib, Farhod bilan ko'rishib turadi.

6. Orif Ardabiliy o'rta asrda oddiy xalq vakillarining qiz bola tarbiyasiga nechog'liq jiddiy e'tibor bergenliklarini iffatli Guliston va uning halol, nomusli ota-onasi misolida ko'rsatib bergen, oddiy oiladan chiqqan ayollar axloqini saroy ayollari axloqidan ustun qo'ygan.

7. Orifning Farhodi komil inson emas: Gulistonni sevgan vaqtida u juda ko'p ijobiy fazilatlarga molik bo'ladi, lekin pok sevgisidan yodgor bo'lib qolgan farzandlari: Dovud, Iso, Maryamlarni Muqbilga topshirib, Shiringa yaqinlashishi bilan tubanlik botqog'iga botadi. O'zining realistik metodiga sodiq qolgan Orif Farhod va Shirinning yashirinchada shahvoniyligi ehtirosiga berilishlarini ochiqcha tasvirlar ekan, Farhodning jinoyat ustiga jinoyat qilishini qoralaydi.

8. "Farhodnoma" dostonining bosh g'oyasi "Inson hayotda har bir qilgan ishi uchun yo mukofot oladi, yo jazo" degan falsafiy xulosaga asoslanadi. Farhod dostonning birinchi qismida unga xanjar bilan tashlangan rumlik oshiq yigitni o'zini himoyalash maqsadida o'ldirgan bo'lsa, ikkinchi qismida Shirin bilan yashirin ishqiy munosabatlari oshkor bo'lib qolmasligi uchun Garoyni o'ldiradi. O'zi ham rumlik oshiq yigitning onasi tomonidan zaharlanib, o'lim topadi. Shuning uchun uning o'limiga muallif ham, o'quvchi ham achinmaydi.

9. Dostonning kompozitsion qurilishi xalq dostonlariga juda yaqin turadi. Voqealar qiziqarli shaklda tez rivojlanadi. Birinchi qismdagi juda ko‘p motivlar xalq og‘zaki ijodidan olingan. Masalan, Farhodning rasmdagi qizga oshiq bo‘lishi; abxaziyalik ustanning Gulistonning qo‘lini so‘ragan Farhodga toshyo‘narlik, naqqoshlik kasblarini o‘rganib, dunyoda tengi yo‘q imoratni qurish, ichini naqsh bilan bezash, tog‘ barpo qilish kabi shartlarni qo‘yishi; tush motivi va h.k.

Orif Ardabiliyning Farhodi - qiyinchiliklardan qo‘rqlaydigan, toshyo‘narlik, me’morlik va naqqoshlik kasbidan zavqlanib yashaydigan inson. Kasbiga muhabbat tufayli taxtdan voz kechadi. Uning o‘limini istab Eronga qo‘shin tortib kelgan amakisi va jiyonlarini kechiradi. Uchinchi farzandini dunyoga keltirib, vafot etgan sevimli rafiqasi Guliston uchun uzoq vaqt motam tutadi, maqbara tiklab, u yerda mujovirlik qiladi, lekin sevgi yo‘lida Nizomiyning Farhodi kabi o‘zini o‘ldira olmaydi. Uning majoziy sevgiga munosabati aslida umrining ko‘p qismini saroylarda o‘tkazgan, saroy intrigalaridan yaxshi xabardor bo‘lgan Orif Ardabiliyning ayollarga munosabatining badiiy ifodasidir.

Shunday kamchiliklarga qaramay, “Farhodnoma” o‘rtalas realizmining go‘zal namunasi bo‘lib qolaveradi. Orif Ardabiliy Chin Fag‘furining o‘g‘li Farhodni bosh qahramon qilib, shahzoda timsolidan mehnat va ijodkorlik, vatanparvarlik va qahramonlik motivlarini ulug‘lagan birinchi realist shoir sifatida tarixda qoladi. Shahzodani ijodiy mehnat kishisi qilib tasvirlash an’anasini Navoiydan keyin turk shoirlari Harimiy (XV asr), Lami‘i Chalabiy, Shaniy, Vafog‘iy (XVI asr), Kavsari Hamadoniy (XVII asr), Omar Boqiy (XVIII asr), Ismoil Nokom (XIX asr) va Nozim Hikmatlar davom ettirdilar.

O‘ZBEK VA TURK FOLKLORIDA FARHOD OBRAZI TALQINI

Farhod nomi birinchi bor ”Tarixi Tabariy”da zikr etilib, uning Shiringa oshiq bo‘lgani va Shirin sharafiga Besutun tog‘ini kesgani hikoya qilinadi. X asrga oid bu tarixiy asarda tarix bilan xalq og‘zaki ijodi uyg‘unlashib ketgan. X-XI asrlarda Farhod nomi asosan arab va fors tillarida yozilgan g‘azallarda zikr etildi. XII asrda esa uning epik obrazi yaratildi. Nizomiy, Dehlaviy, Qutb, Shayxiy dostonlarida ikkinchi darajali timsol bo‘lgan Farhod Orif Ardabiliy va Alisher Navoiy dostonlaridan boshlab bosh qahramonga aylandi. O‘zbek va turk

adabiyotida o‘nga yaqin “Farhod va Shirin”lar, “Farhodnoma”lar yaratildi.

Farhod obrazining genezisiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda Farhodni tarixga bog‘lashga intilish kuzatiladi. Masalan, navoiyshunos olma K.Mullaxo‘jayevaning faraziga ko‘ra, Nizomiy Farhod obrazini Suhrob va Afrosiyobga aloqador dostonlardan olgan bo‘lishi mumkin. U yerda Farhod pahlavon, tug‘bardor, lashkarboshi, jangovar sipohsolar. Nizomiy uni mahorat bilan javobsiz ishq egasi – oshiqqa aylantira olgan. G‘. Aliyev “Легенда о Хосраве и Ширин в литературах народов Востока” asarida adabiy obraz bo‘lgan Farhodning tug‘ilishiga Xusrav Parvizning Shahrbaraz – Farruxan ismli mard sarkardasi sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin degan farazni ilgari suradi.¹⁵ Professor I. Braginskiy “Shohnoma” va unga yaqin turadigan bir qancha epik asarlar asosida afsonaviy siiston (sak) qahramonlarining ro‘yxatini tuzganda Farhod degan qahramonni eslaydi. Muallifning xabar berishicha, Farhod Zavoraning o‘g‘li, Zolning nabirasi. Afsuski bu Farhod haqida mufassil ma’lumotlar yetib kelmagan.¹⁶ N. Mallayev esa, Alisher Navoiyning “Tarixi muluki Ajam” asariga tayanib, Farhod – konkret shaxs, Besutun tog‘idagi chala qolgan Kisro toqi ishlarini tugallashda ishtirok etgan, qoyaga Xusrav, Shirin va Shabdizning tasvirini ishlagan rassom va tosh yo‘nuvchi usta bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, degan taxminni bildirgan.¹⁷

Farzlardan ko‘rinib turibdiki, Farhod nomi va shaxsini qanday bo‘lmasin tarixga bog‘lashga intilish foydasiz. Farhod deganda murakkab tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tgan badiiy obrazni tushunish kerak. Uning badiiy obraz sifatida shakllanishi va tadrijida xalq ijodiyoti, mifologiya va muallifning badiiy fantaziyasini zamin bo‘lgan. Zardushtiylik dinida Farhod - ma’bud, yerosti dunyosining xudosi, quruvchi va toshtaroshlarning homiysidir. Badiiy asarlarda toshtarosh va me’mor sifatida mashhur bo‘lib kelgan Farhod obrazining yaratilishiga qadimgi Farhod kultining prototiplik vazifasini o‘taganligini professor S. Tolstov ham qayd etgan.¹⁸ Mehnat bilan bog‘liq Farhod kulti O‘rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon va Turkiyada keng tarqalgan. Toshtarosh, rassom, me’mor Farhod nomi bilan afsona va

¹⁵ Алиев Г, Легенда о Хосрове и Ширин в литературах народов Востока - Москва ,1960 .

¹⁶ Брагинский И., Из истории таджикской народной поэзии, Академия наук СССР, 2004 , стр.291

¹⁷ Маллаев Натан. Сўз санъатининг гултожи - Т.:Faafur Fulom,1991.37-b.

¹⁸ Толстов С.П.Қадимги Хоразм маданиятини излаб.- Т. , 1964 .

rivoyatlar, ertaklar, kitobiy dostonlar yaratilgan. Bugungi kungacha bu o‘lkalarda Farhod nomi bilan ataluvchi tog‘lar, qoyalar, inshootlar, ariqlar, hatto maqbaraning mavjudligi ham bevosita Farhod kulti bilan bog‘lanadi.

A. Fitratning fikricha, VII-X asrlarda Eronda “Xusrav va Shirin” nomli xalq dostoni va Besutun tog‘iga tarixiy rasmlarni chizgan rassom haqida “Farhod – ko‘hkan” afsonasi mavjud bo‘lgan. Uning bir qismini Firdavsiy “Shohnoma”ga kiritgan, Nizomiy esa XII asrda bu doston va afsonani birlashtirib, sujetga yangi obrazlar qo‘shgan.¹⁹ G‘.Aliyev ham Farhod haqidagi afsonalarning “Xusrav va Shirin” qissasiga kelib qo‘shilmasdan oldin mustaqil ravishda yashab kelganini qayd etadi. Prof. S. Tolstov “Xorazm madaniyatini izlab” asarida XII asrda qurilgan Devqal’a obidasi va u bilan bog‘liq afsonani keltiradi. “Devqal’a” afsonasiga ko‘ra, Farhod – me’mor va toshtarosh dev. U Xorazmshohning qizi Shirinni sevib qoladi vasovchi qo‘yadi. Podsho qizini bahaybat devga turmushga bermaslik uchun, jodugar kampirning maslahatiga kirib, Qoraqum sahrosining o‘rtasida tosh qal’a qurishni buyuradi. Farhod janubdagagi tog‘lardan yelkasida tosh tashib, qal’ani qura boshlaydi. Bundan tashvishga tushgan podsho yana jodugarga murojaat qiladi. Jodugar Farhodga malikaning o‘lganini, butun Xorazm ahli aza tutib fig‘on chekayotganini aytadi. Shirinning o‘limi to‘g‘risidagi xabardan gangib qolgan Farhod: “Usiz menga yashashdan ne foyda!”- deb hali joyiga qo‘yishga ulgurmagan so‘nggi toshni osmonga uloqtiradi. Tosh Farhodning ustiga qaytib tushadi. Devni sevib qolgan Shirin fojia ro‘y bergen joyga keladi va Farhodning jasadi tepasida o‘ziga pichoq sanchib halok bo‘ladi.²⁰ Bu afsonaning boshqa xalqlardagi afsonalardan farqi shuki, Farhod tosh qal’ani tog‘da emas, toshdan asar ham bo‘lmagan cho‘lda quradi. Farhod cho‘pon yoki shahzoda emas, bahaybat dev bo‘lib, u yerosti xudosi, toshtarosh Farhodni yodga soladi.

Turk folklorshunoslari Turkiya va Ozarbayjonda tarqalgan Farhod haqidagi afsona va ertaklarni devon adabiyoti ta’sirida paydo bo‘lgan deb hisoblaydilar. Bunga asos Nizomiy fantaziyasining mahsuli bo‘lgan Mihinbonu obrazining xalq hikoyalarida Mehmene Bonu tarzida ishtirot etishidir. Onadolu va Ozarbayjonda aytilgan xalq ertaklari va afsonalarda voqeа Xurosonda boshlanib, Amasyada davom etadi.

¹⁹ Фитрат Абдурауф . Танланган асарлар - Т.: Маънавият,2000.132-133- б.

²⁰ Толстов С.П.Қадимги Хоразм маданиятини излаб.- Т. , 1964 .33-34-б.

Yozma adabiyotda Mihinbonuning jiyani bo‘lgan Shirin bu yerda uning singlisi sifatida ishtirok etadi. Eron hukmdori bo‘lgan Xusrav Amasya hukmdori Hurmuzshohning o‘g‘li-shahzoda Xusravga aylangan. “Farhod va Shirin” turk xalq ertagining qisqacha mazmuni quyidagicha: Xurosondagi bir shaharning hukmdori Mehmene Bonu o‘n besh yoshli singlisi Shiringa go‘zal saroy qurdirib, bu qasrning bezaklarini rassom Behzod va uning o‘g‘li Farhodga topshiradi. Bir kuni saroyga tashrif buyurgan Shirin Farhodni ko‘rib, sevib qoladi. Xuddi shunday, Farhod ham Shiringa bir ko‘rishda oshiq bo‘ladi. Saroy bitgach, Shirin Mehmene Bonuga saroyi oldidan ariq oqishini istayotganini aytadi. Mehmene Bonu jarchilarni to‘rt tarafga jo‘natib, kimki Shirinning orzusini amalga oshirsa, o‘sha kishining har bir istagini bajo keltirishini bildiradi. Farhod Mehmene Bonuga yaqin atrofdagi Besutun tog‘ini teshib, tog‘ning narigi tomonidagi buloq suvini qirq kunda saroy oldidan oqizishini aytadi. Farhod o‘ttiz to‘qqiz kunda ishni uddalaydi. Farhodga saroydan xona ajratiladi va uning har bir istagi amalga oshiriladi. Mehmene Bonu ham Farhodni yaxshi ko‘rib qoladi. Bir muncha vaqt o‘tgach, Mehmene Bonu Farhod va Shirin o‘rtasidagi muhabbatdan ogoh bo‘ladi va sir saroydan tashqariga chiqmasin deb, ularning uchrashuviga guvoh bo‘lgan kanizakni qatl ettiradi, Farhodni esa Demir Qal’ a (Qal‘a-i Ohanin)ga zanjirband qiladi. Biroq tushiga yuzidan nur yog‘ilib turgan pir kiradi va Farhodni ozod qilishni talab qiladi. Qo‘rqib uyg‘ongan Mehmene Bonu Farhodni ozod qiladi va mehnatini 1000 oltin tanga bilan taqdirlaydi. Farhod tillalarni kambag‘allarga tarqatib, o‘zi dala-qirga chiqib ketadi, tog‘larda sarson kezadi, yirtqich hayvonlar bilan do‘stlashadi. O‘ziga maskan qilgan g‘or devorlariga Shirinning suratlarini chizib, tasalli topishga harakat qiladi. Farhodning bu holatidan xabar topgan Amasiya hukmdori Hurmuzshoh Mehmene Bonuga urush e’lon qiladi va uni mag‘lub etadi; Farhod Shirinni Amasyadagi qarorgohga olib boradi. Bu orada Shirinni ko‘rgan Hurmuzshohning o‘g‘li Xusrav uni sevib qoladi. Otasining ta’qiqlashiga qaramay, o‘z sevgisidan voz kechmaydi. O‘ta og‘ir ahvolda qolgan Hurmuzshoh enagadan bu muammoga yechim topishni so‘raydi. Natijada, Farhodning Shiringa uylanishi uchun qirq kun ichida tog‘ning narigi tomonidagi suvni shaharga olib kelish shart qilib qo‘yiladi. Farhod bu shartni qabul qiladi va tog‘ni teshib, shaharga suvni ochmoqchi bo‘lganida, azadorlar kiyimini kiyib olgan enaga yig‘lab Shirinning o‘lganini aytadi. Bu xabardan so‘ng Farhod “ Shirin o‘lganidan keyin men qanday yashayman”, -deb teshasini havoga

uloqtirib, uning ostiga boshini tutib beradi va o‘z joniga qasd qiladi. Farhodning o‘lganini eshitgan Shirin darhol ariqning boshiga keladi, Farhodning jasadini ko‘rib belidagi xanjarni ko‘ksiga sanchadi. Vaziyatdan xabar topgan Hurmuzshoh enaga bilan voqeа joyiga yetib boradlari. Bu orada tog‘dan tushayotgan sher enagani parchalab tashlaydi. Farhod va Shirinning o‘limidan juda qayg‘urgan Hurmuzshoh, bu dunyoda birlasha olmagan ikki oshiқ uchun katta janoza uyushtiradi va ularni bir qabrga qo‘ydiradi. Aytlishicha, har bahorda bu qabrdan o‘sadigan ikkita chiroyli qizil va oq atirgul orasiga shafqatsiz enaga qora buta shaklida suqilib kirar, ularning birlashishiga to’sqinlik qilar ekan.²¹

Har ikki xalq yaratgan afsona va ertaklarda Farhod va Shirin sevgisi makr tufayli fojiali yakun topadi. Lekin “o‘rta o‘yin” va “soya teatri” deb ataluvchi turk xalq teatri repertuaridagi asarlarda Farhod va Shirin qissasi sevgi va sadoqat tantanasi bilan yakunlanadi. Soya teatri qahramonlari Karago‘z va Hajivat o‘yinlarida baxtli yakun topadigan ”Fasli Farhod”, ”Farhod va Shirin yoki xoin volida” deb ataluvchi asarlar sujeti o‘rta o‘yindagi sujetdan keskin farq qilmaydi. Har ikkalasida Farhod naqqosh usta, Shirin uchun qurilayotgan qasrning bezak ishlarini bajaradi. Har ikkalasida Farhod Elmadag‘ni teshib Amasya shahriga suv keltiradi. Shirinning o‘limi haqida xabar keltirgan shum kampirning nayrangiga qaramay, ikki sevishgan murodiga yetadi. Har ikkalasida Mehmene Bonu, Hurmuzshoh va Xusrav obrazlari ishtirok etmaydi, chunki soya teatrida o‘yin matnining qisqa bo‘lishi talab etiladi. ”Xoin volida” o‘yinining mazmuni quyidagicha: *Bir savdogar go‘zal qizi Shirinka atab qasr qukdiradi. Qasrga bezak berish ishlarini naqqosh Farhod bajaradi. Uning ishlarini tomosha qilishga kelgan Shirin Farhodni sevib qoladi. Shirinka befarq bo‘lman Farhod dardini Hajivatga aytadi. Keyin Hajivat Shirinning onasinkiga boradi va Farhod nomidansovchi bo‘lib kelganini aytadi. Ona bu iltimosni boshida butunlay rad etsa-da, oxir-oqibat Amasyadagi Elmadag‘ini teshib, suv tanqisligidan qiynalayotgan shaharga suv olib kelsa, qizini unga berishi mumkinligini aytadi. Farhod Karag‘oz bergen asbob bilan tog‘ni teshadi. Biroq qizini Farhodga berishni istamagan Shirinning onasi unga Shirinning o‘lganini xabar qilish uchun xizmatkorini yuboradi. Farhod qattiq qayg‘uga botib, xabarchini o‘ldiradi. O‘z joniga qasd qilmoqchi bo‘lganida, Shirin yetib keladi va ikki sevishgan o‘z maqsadiga erishadi.*

²¹. Ferhat ve Şirin efsanesi . [https://tr.wikipedia.org/w/index.php?title=Şirin_\(ebedi_efsanesi\)&oldid=1000000](https://tr.wikipedia.org/w/index.php?title=Şirin_(ebedi_efsanesi)&oldid=1000000)

Xullas, Farhod nomi bilan bog‘liq o‘zbek va turk afsonalari, ertaklari, kitobiy dostonlar yozma adabiyotdagi variantlaridan quyidagi belgilariga ko‘ra farqlanadi:

- 1) Farhod – dev; cho‘pon; rassom Behzodning o‘g‘li, toshtarosh, me’mor va qo‘ligul naqqosh;
- 2) Farhod ko‘kka o‘zi irg‘tgan xarsang tosh yoki tesha tagida qolib halok bo‘ladi;
- 3) Shirin Farhodning o‘limidan keyin o‘zini doim yonida olib yuradigan xanjari bilan o‘ldiradi. Farhod va Shirin bir qabrga qo‘yiladi;
- 4) voqealar Xusrav Parviz hukmronlik qilgan davrda emas, otasi Hurmuzshoh davrida ro‘y beradi;
- 5) armanzamin malikasi Mihinbonu afsonalarda Xuroson malikasi yoki Erzen hokimi, qahri qattiq Mehmene Bonuga aylangan;
- 6) Erzen shahrining hokimi Mehmene Bonu Farhodni sevib qoladi;
- 7) soya teatri va o‘rta o‘yin tomoshalarida Farhod va Shirin o‘lmaydi: vaqtida yetib kelgan Shirin Farhodni xudkushlikdan saqlab qoladi.

NIZOMIY VA NAVOIYNING OTA-O‘G‘IL MUNOSABATLARI HAQIDAGI QARASHLARI

Nizomiy Ganjaviy o‘z asarlari bilan Sharqning ijtimoiy-badiiy tafakkurida yangi sahifa ochgan buyuk shoirdir. Uning asarlari to‘qqiz asrdan beri tadqiqotlar mavzusi bo‘lib kelmoqda. Nizomiyning “Xusrav va Shirin” dostonida, pok muhabbat,adolatli shoh mavzularidan tashqari, yosh avlod tarbiyasi, ota-o‘g‘il munosabatlari komil inson mavzusiga bog‘lab juda chiroyli yoritib berilgan. Kisro-Xurmuz, Xurmuz – Xusrav o‘rtasidagi munosabatlar o‘rta asrlarda otaning farzand oldidagi, farzandning ota oldidagi burchlari qay yo‘sinda ado etilgani haqida XXI asr o‘quvchisiga aniq tasavvur beradi. Nizomiyning “Panj ganj” asariga tatabbu’ bog‘lagan Alisher Navoiy ham “Xamsa”ning barcha dostonlariga bosh mavzu qilib komil insonni tarbiyalashni tanladi. O‘g‘il farzand tarbiyasiga otani, qiz farzand tarbiyasiga esa onani mas’ul deb bildi. Nizomiy va Navoiy “Xamsa”sidagi otalar timsolini qiyoslab o‘rganish va tahlil qilish orqali ideal sharqona tarbiya, ideal ota, ideal farzand masalalariga ikki buyuk mutafakkirning munosabatlarini bilib olish mumkin.

Nizomiyning “Xusrav va Shirin” dostonida asosiy voqealar Kisroga qazo yetib, taxtga uning o‘g‘li Xurmuz o‘tirgani va mamlakatniadolati

bilan obod qilgani bayoni bilan boshlanadi.“Padar rasmini ul har dam tutardi, Berardi, dinni ham mahkam tutardi” bayti ota-o‘g‘il munosabatlarining ijobiy bo‘lganini ko‘rsatadi.²² Xurmuz otasiga o‘xshabadolatli, insofli, har ishda dinni mahkam ushlagan shoh bo‘ldi. Nazr-niyozlar qilib Xudodan farzand so‘raydi. Farzandi dunyoga kelgan kundan uning tarbiyasiga jiddiy qaraydi. Zamonasining eng kuchli muallimi, harbiy ustozlari qo‘liga o‘g‘lini topshiradi. O‘n to‘rt yoshida Xusrav oq-u qorani ajratadigan solih farzand darajasiga yetadi. Xurmuzning farzand tarbiyasiga jiddiy yondashishi, Xusravning o‘n to‘rt yoshigacha qo‘lga kiritgan muvaffaqiyatlari Navoiyning Farhodini esga soladi. Har ikkala shoir ham o‘g‘il bola tarbiyasida dunyoviy, diniy va harbiy bilimlar yetakchi bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydilar. Sharqona tarbiya talablari bayonida Navoiy Nizomiyga ergashadi. Xusravning qaysi chizgilari Farhod obrazida aks etganini quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin:

<i>Xusrav</i>	<i>Farhod</i>
Yaratgandan tilab olingan farzand	Yaratgandan tilab olingan farzand
Ki erdi gavhari daryoyi shohiy, Charog‘i ravshani nuri ilohiy.	Kiyurdi ilgiga davron nigini, Nigin o‘rnida la’li otashini. Yuzinda ishq asrori yozilg‘on, Ichinda dard ta’vizi qozilg‘on.
Taqdir uni tojdor- taxtgir qilib yaratgan edi.	Go‘dakning yuzida shohlik yog‘dusi ko‘zga tashlanib turardi.
Shu sababli otasi unga Xusravi Parviz deb ism qo‘yadi.	Shu sababli unga “Farhod” deb ism qo‘ydilar: uning yuzidagi yog‘dudan , ya’ni Fardan Himmat, Iqbol, Davlat ziynat topdilar.
Sut-u shakarga mayli baland edi, enagalari sutga shakar qo‘shib berishardi	Sut ichishni yoqtirmasdi, o‘z ovqatini sevgidan topar edi.
Yusufday go‘zal edi	Xoqonning tungi oromgohida oy tug‘ildi, oy emas, balki olamni bezovchi quyosh tug‘ildi.
Ustozidan dunyoviy va diniy bilimlarni o‘rgandi. Maoniy sohibi	Arastuga ustoz maqomida bo‘lgan muallimdan diniy va

²² Shayx Nizomiy Ganjaviy. Xusrav va Shirin. Jamol Kamol tarjimasi.-T., 2018, 42-b.

va suxanvar bo‘lib yetishdi.	dunyoviy bilimlarni o‘rgandi.
To‘qqiz yoshida sher, ajdaho bilan jang qilishga kirishdi	O‘n yoshida dunyoda u egallamagan, o‘rganib tagiga yetolmagan biron ilm qolmadı. Jangovarlik yarog‘larini o‘rganishga kirishdi.
O‘n yoshida o‘ttiz yoshlilarni lol qoldirdi	O‘n yoshida uning gavdasi, kuchquvvati yigirma yoshlilarnikiday edi.
Mohir kamonboz, kuchli nayzaboz edi.	Mohir kamonboz va qilichboz edi. Gurzi, shashparni o‘ynatganda ularning zarbiga hech narsa dosh berolmasdi.
O‘n to‘rt yoshida “Ko‘rib har neki oshkoru nihonda, Nedir yaxshi-yomon, bildi jahonda...”	O‘n to‘rt yoshigacha dunyoviy, diniy bilimlarni, harbiy ilmni puxta egalladi.

Nizomiy ota-og‘il bir-birlariga nisbatan kechirimli bo‘lishi kerakligini Xurmuz va Xusrav hayotiga oid ibratomuz bir voqeani keltirish orqali ta’kidlaydi. Xurmuz dono vaziri Buzurgummid bilan faxrlanar, uni jonidan ortiq yaxshi ko‘rar, har bir ishni u bilan bamaslahat amalga oshirardi, chunki:

Edi ilkida asrori nihoniyl,
Kaliti necha ganji osmoniy.²³

Hatto shahzoda Xusrav ham unga shogird tushib, dilini nurafshon qiladi; charxi davvorning sir-sinoatlarini o‘rganib, sohibi asror darajasiga yetishadi. Shoh Xurmuz asli turk bo‘lgan vazirining hayotiga shikast yetmasligini o‘ylab, “uzun qo‘llarni qisqa qiladi”, ya’ni turklarga ozor bermaslik, ularnng ekiniga, mol-holiga zarar yetkazmaslik to‘g‘risida farmon chiqaradi. Tabiatida yengiltaklik bo‘lgan Xusrav ovdan qaytayotganda yigitlari bilan turklar yashaydigan qishloqda tunab qoladi. Oti bo‘shalib, turk dehqonining dalasini payhon qiladi, yigitlaridan biri bog‘bonning bog‘idan pishmagan uzumlarni o‘g‘irlaydi, Sozandasini ertalabgacha chang chalib, qishloq aholisining tinchini buzadi. Bundan xabar topgan adolatli shoh Xurmuz o‘g‘lining sevimli otini so‘ydiradi, uzum o‘g‘risini qul qilib bog‘bonga taqdim qiladi, o‘g‘li kimning uyiga kirib ishrat qilgan bo‘lsa, taxtini o‘sha uy sohibiga sovg‘a qiladi, changchining tirnoqlarini sug‘urib tashlashni buyuradi.

²³ Shayx Nizomiy Ganjaviy. Xusrav va Shirin. Jamol Kamol tarjimasi.-T., 2018, 45-b.

Otasining g‘azabidan qo‘rqqan o‘g‘il “meni otamning oldiga elting” deb pirlarning huzuriga keladi. Ustiga kafan kiyib, bir qo‘liga tig‘ olib, pirlarning ortidan ergashib otasining oldiga boradi, gunohkordek o‘zini yerga otib, yig‘lab kechirim so‘raydi: ”Hamon ona sutidir menga oshna, Magar sherdek xunimga bo‘lma tashna ”.²⁴

Xusrav iltijolari bilan avval davradagilarni, oxirda otasini ham yig‘latadi. Chin ko‘ngildan tavba-tazarru qilayotganiga otasini ishontiradi. Nizomiy Xusrav hali yosh bo‘lsa ham mushkul vaziyatdan aql bilan chiqib ketdi, ham o‘z jonini, ham otasining sha’nini saqlab qoldi, deb ta’kidlaydi. Aqli Xurmuz o‘g‘lining kelajagini o‘ylab, qaytar dunyoda farzandidan qaytmasin deya, uni kechiradi. Solih ota uchun farzand iqboldidan ortiq baxt yo‘qdir.

Xusrav va Sheruya munosabatlari esa juda ziddiyatli, Xurmuz va Xusravning mehr-oqibatli munosabatlariga teskari qilib tasvirlangan. Sheruya onasiga ham shafqat qilmaydigan darajada qahri qattiq farzand bo‘lib voyaga yetadi. Xusrav uning mavhum kelajagidan qattiq xavotirga tushib,dono vazir Buzurgummidga xavotirlarini aytadi. Buzurgummid esa Xusravga shunday taskin beradi:

Yomon farzand kelurmi yaxshi shohdin?
Kelur yaxshi samar yaxshi butoqdin.
Asov ersa o‘shal farzandi bebosh,
Zamona rom etar, sen ayla bardosh.
Yigitlik qoni gar qaynab urar jo‘sh,
Yetuklik chog‘i ul etgay faromush”.²⁵

Afsuski, yaxshi butoqning mevasiga ham ba’zan qurt tushadi. To‘qqiz yoshidan o‘gay onasi Shirin oshiq bo‘lgan Sheruya balog‘at yoshiga yetganda ham jirkanch niyatidan qaytmaydi, Shirin yetishish uchun otasini otashxonaga qamab, o‘ldiradi.

Nega solih Xurmuzning tarbiyasini olgan Xusravdan bunday yovuz farzand - padarkush dunyoga keldi? Buning javobi Alisher Navoiyning “Tarixi muluki Ajam” asarida berilgan. Xusrav Farhodni rashkdan o‘ldirdi. Payg‘ambarimizning nomasini g‘ururga berilib yirtdi.”Va o‘z mulk va davlatiga qasd qildi va Hazrat mo‘jizasidan mulkiga zavol dorib, Sheruyaki aning o‘g‘li ma’mur bo‘ldi. Farhodning begunoh qatli muqobilasida otasini qasos qildi”.²⁶ Farzandning padarkushga

²⁴ Shayx Nizomiy Ganjaviy. Xusrav va Shirin. Jamol Kamol tarjiması.-T., 2018, 49-b.

²⁵ Shayx Nizomiy Ganjaviy. Xusrav va Shirin. Jamol Kamol tarjiması.-T., 2018,382-b.

²⁶ 3. Навоий Алишер.Муқаммал асарлар тўплами:15 томлик.Т.14.Тарихи мулуки Ажам-Т.: Фан,1967, 230- б.

aylanishiga, shubhasiz, ota sababchi bo‘ladi. Xusrav yaxshi tarbiya ko‘rgan, ota mehri quchog‘ida yayrab katta bo‘lgan bo‘lsa-da, o‘zi munosib ota bo‘la olmadi. Avvalo, farzandini chin dildan seva olmadi, buning sababi ham “Tarixi muluki Ajam”da berilgan: Xusravga munajjimlar “Sening zavoling o‘z avlodingning ilgida bo‘lg‘usidir ” deganlari uchun o‘n yettita o‘g‘lini bir hisorga solib, mahbus saqlab, ayollarni ularga yaqinlashtirmagan ekan.²⁷ Farzandiga tarbiya berish o‘rniga Shakar va Shirin ishqi bilan band bo‘ldi. To‘qqiz yoshli bolaning ko‘zidagi nafratni vaqtida ko‘ra olmadi. Xusravning qonida yengiltaklik, kayf-safoga moyillik bo‘lgani uchun (chaqaloqligida sut-u shakarga mayli baland bo‘lganligi bejiz emas edi), ulg‘aygach, taxt, muhabbat, farzand tarbiyasi masalalarida jiddiy xatoliklarga yo‘l qo‘yadi. Xusravning asosiy dushmani o‘z nafsi edi.

Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida go‘zal fazilatlar sohibi bo‘lgan Xoqon va Farhod; zolim va xudbin ota-o‘g‘il Xusrav –Sheruya juftligiga aniq badiiy- ijtimoiy vazifalar yuklagan. Chin xoqoni va uning o‘g‘li Farhod obrazlari orqali komil ota-o‘g‘il munosabatlarini temuriyzodalarga o‘rnak qilib ko‘rsatsa, Xusrav – Sheruya juftligi misolida ota-o‘g‘ilning yovlashishi oilaga, davlatga, xalqqa qanday ofatlar olib kelishi mumkinligidan ogohlantiradi.

Xoqon farzandi uchun nafaqat toj-taxtni, hatto, jonini ham berishga tayyor solih otadir. U otalik farzini o‘g‘liga go‘zal ism qo‘yishdan boshlaydi. Farzandining har tomonlama tarbiya olishiga katta e’tibor beradi. Dunyoviy, diniy va harbiy bilimlarni puxta o‘zlashtirgan shahzoda to‘rt qasr qurilishidan beri kelmay qolganida uning qiziqishlariga, san’atga oshnoligiga qarshi chiqmaydi. “Yigit kishiga qirq hunar oz” maqoliga amal qiladi. O‘g‘li mashaqqatli Yunon safariga otlanganida, toj-taxt va davlat ko‘ziga ko‘rinmay, ko‘zining oq-u qorasiga hamrohlik qiladi. Farhod ajdaho, dev, sher, temir odamlar bilan olishganda ruhiy madad berib turadi. Xoqon o‘g‘il tarbiyasida quyidagi maqsadlarni ko‘zlagan edi: 1) solih musulmon farzandni tarbiyalash; 2) ko‘zining ochiqligida valiahdni davlatni boshqarish ishiga har tomonlama tayyorlash; 3) o‘g‘lini odil bo‘lishga o‘rgatish; 4) el maslahati bilan ish ko‘rishga odatlantirish. Baxtiga, o‘g‘li o‘ylaganidan ham ming marta yaxshi bo‘lib yetishdi. Sheruyaning asl maqsadi podshohlik taxtini otasidan zo‘rlik bilan tortib olish bo‘lgan bo‘lsa,

²⁷ 3. Навоий Алишер.Мукаммал асарлар тўплами:15 томлик.Т.14.Тарихи мулуки Ажам–Т.: Фан,1967, 231- 6.

Farhod esa otasining taxtni egallash haqidagi taklifini tajriba orttirishga ijozat so'rash bilan ortga suradi. Navoyning fikricha, solih farzand - dunyo hoy-u havaslaridan oson voz kecha oladigan, ko'zi to'q, qalbi ma'rifikatga oshno insondir. Chin xoqoni va Mulkoroning sa'y-harakatlari tufayli Farhod ana shunday farzand bo'lib voyaga yetadi.

Navoiy ahil, oqibatli shoh va valiyahd obrazlari orqali toj-taxt talashib yurgan Husayn Boyqaroning o'n to'rt o'g'li va ikki nabirasiga to'g'ri yo'lni ko'rsatadi: otaga qarshi qilich ko'tarmasdan, uning tajribasini, bilimini o'rganishlari kerakligini ta'kidlaydi.

“Farhod va Shirin” dostonidagi Xusrav - xudbin, johil podshoh. Uning butun qilmishi xalqni talab, boylik orttirishga qaratilgan. Navoiy ham, Xusravning Eron va Armanistonda xalqqa yetkazgan zulmini tasvirlashdan oldin, uning ota-bobolaridan so'z ochadi. Xusrav podshoh Kisroning nabirasi edi. Kisro o'lgach, uning o'lkasini o'g'li Xurmuz egallagan va yashnatgan. Xurmuz ham o'lib ketgandan keyin, uning o'rniga o'g'li Parvez o'rinxbosar bo'ldi. Bu davlat unga yetmish otadan qolib kelayotganini u yaxshi bilar edi. Bu o'tgan otalarning hammasi o'z farzandlariga mehribonlik bilan podshohlik taxtini topshirib ketganlar.²⁸

Shahzoda Sheruya o'z johilligi, insofsizligi bilan otasidan qolishmaydi. “Uchqun o'tga farzand bo'lganiday, o'q uchi temirdan uzilib tushganiday, Xusravning ham o'g'li o'ziga o'xhash edil. U o'g'ildan otaning ta'bi xush emas edi. Otaning ham qiliqlari o'g'ilga yoqmas edi”, - deb yozadi Navoiy.²⁹ Xudbin, badxulq o'g'il Shiringa oshiqlik niqobi ostida otasini o'ldiradi: yovuz ota yovuz o'g'ilning qo'lida halok bo'ladi. Bir vaqtlar Xusrav Farhodga zulm qilgan edi, davron uning boshiga o'zining qilichini soldi. U xalqning yaralaridan qonlar oqizgan edi, o'zining qoni ham o'z jigaporasining qo'lida oqdi. Agar qotil gado bo'lsa ham, hukmdor bo'lsa ham, baribir, ishq shariatida “Qonga qondir!” Xusrav va Sheruya qaytar dunyo qoidalarini unutib qo'yishgan edi.

Navoiyning Xusrav va Sheruya o'rtasidagi fojiali nizoga katta e'tibor berishi bejiz emas. Bunday nizolar Navoiy yashagan davr uchun ham xos edi. Navoiy shoh va shahzodalar o'rtasidagi nizolarni qoralaydi, ularni ahil bo'lishga chaqiradi.

²⁸ Навоий Алишер. Хамса. –Т.: Наврӯз, 2019, 228 - 6.

²⁹ Навоий Алишер. Хамса. –Т.: Наврӯз, 2019, 281- 6.

MEHINBONU – AFRIDUN AVLODI

Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviy, Orif Ardabiliy, Shayxiy, Faxriyning sosoniylar hukmdori Xusrav Parviz va malika Shirin sevgisi tarixi haqidagi go‘zal dostonlarini qiyosiy o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, Navoiy asar sujetiga yangi obrazlarni olib kirish, mavjud obrazlarni qayta ishslashda ko‘proq Nizomiyga ergashgan.

Nizomiyning obrazlarni olib kirish mahorati o‘ziga xosdir. Juda ko‘p qahramonlarini Xusravga aloqasi bo‘Imagan doston yoki rivoyatlardan tanlab olgan va ularni umuman boshqa timsolga aylantirib dramatizmga to‘la voqealar tasviriga mahorat bilan singdira olgan. Ana shunday obrazlardan biri Mehinbonu obrazidir. ”Mehinbonu” ismining ma’nosи “Ulug‘ xotun” bo‘lib, dostondagi ayol podshohning haqiqiy ismi Shamiradir. Shamira arman afsonalaridagi amazonkalar - jangovar ayollarning podshohi Shamiram; Midya-Suriya afsonalaridagi Semiramidadir, degan qarash mavjud. Folklorshunoslikda Semiramida va Shamiram obrazlarining tarixiy prototipi Suriya hukmdori Shammuramat (e.av IX asr) deb tan olingan.³⁰

Fozila Sulaymonova Tomiris, To‘maris, Semiramida kabi ismlarni, jangovar ayollar yashaydigan Samiram shahrining nomini Ossuriya malikasi Sammuramat (Shammurat) bilan hamohang deb hisoblab, o‘xhash antroponomislarni (“t” va “s” tovushlari almashinuvi hodisasiga tayanib) quyidagicha guruhlaydi: Tomiris –massagetlar malikasi; Tamiris – grek mifologiyasidagi personaj; Tomiranda – Kafkaz amazonkalari malikasi; Mirina – Kichik Osiyodagi amazonkalar malikasi; Samiram – Qoraqalpog‘istondagi amazonkalar yashagan shahar nomi; Sammuramat (Shamiram)-Ossuriya malikasi; Tamirid, Tomiras, Tomur – kohinlar avlodи vakillari; Tamara – Gruziya qirolichasi.³¹ Olima bu nomlarni *Tomiris* ismining o‘zgargan shakllari deb hisoblaydi.

Nizomiy Mehinbonu obrazini yaratganda Semiramida (*yun. Shammuramat, ossuriycha — Sammuramat*) afsonasiga tayanganmi? Yunon va arman mifologiyasida Semiramidaga munosabat ikki xil. Yunon yozuvchisi Ktesiy (e. av. V asrning oxiri – VI asrning boshi)ning tasvirlashicha, Semiramida – ma’bud Astartning qizi. Go‘dakning otasi oddiy yer odami bo‘lgani uchun Astart farzandidan voz kichadi, uni

³⁰Маллаев Н.М. Сўз санъатининг гултожи. Т.:Фафур Ўлом, 1991, 39- б.

³¹ Сулеймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. Т.: Ўзбекистон, 1997,88- б.

o‘rmonga tashlab ketadi. Chaqalojni bir juft kaptar tumshug‘ida suv, ovqat keltirib boqadi. Chaqalojni topib olgan insonlar unga “Semiramida” degan ismni beradilar. Bu ism qadimgi yunon tilida “kaptarlarni sev”, ”jajji kabutar” degan ma’noni anglatgan. Kambag‘al oilada tarbiya topgan Semiramida go‘zalligi tufayli bir amaldorga turmushga chiqadi va kambag‘allik azobidan qutuladi. Baqtriya – Suriya urushida Suriya shohi Ninga aqli maslahat beradi va shohning muhabbatini qozonadi. Urushda g‘alaba qozongan Nin Semiramidaga uylanadi. Nin vafot etgach, Suriya taxtiga Semiramida o‘tiradi. Misr, Efiyopiya, Hindiston va boshqa joylarga yurishlar uyshtiradi. Ktesiy Semiramidi davlatni qirq ikki yil boshqargan ijobiy obraz sifatida tasvirlagan.

Qadimgi Rim adabiyotidagi Semiramida davlatmand va ulug‘vor ayol, lekin badtarin, ma’naviy tuban, axloqsiz malika sifatida qalamga olingan.

Shamira obrazi esa Nizomiyda ijobiy obraz, Afrosiyobning vorisi, Mug‘on, Arman, Abxaziya va Barda kabi katta hududlarning hukmdori, ko‘chmanchi turkiylarning malikasi, mardlikda erkaklardan ustun ayol, buyukligi uchun unga “Mehinbonu” deb nom bergenlar:

Shamira adlanir o go‘ycheck kadin,
Buyukdur ma’nasi bu guzel adin.
Jur’etde kishiden hech geri durmur,
Buyuk oldugundan Mahin Banudur.³²

“Shamira ismining ma’nosи “Mahin Banudir” deya Nizomiy Shamiraning ma’nosи “ulug‘ xotun – buyuk xonim” ekanini ta’kidlaydi. Demakki, *To‘maris, Tomiris, Tamiris, Shamira, Shamiram* ismli hukmdorlar bir inson emas, chunki *Tomiris* so‘zi qadimgi fors tilida “hukmdor” degan ma’noni bildirgan. Turli davrlarda turli hududlarda yashagan malikalarning ismidagi o‘xshashlik bu nomlarning ayol kishining ismi emas, balki e.av.I ming yillikda O‘rta Osiyo, Kichik Osiyo, Kavkaz o‘lkalarida ayol hukmdorlarga nisbatan ishlatilgan mansab-unvon bildiruvchi so‘z bo‘lgan, ayol hukmdorlar shu nom bilan taxtga o‘tirganlar, degan xulosaga olib keladi.

Ozarbayjonlik olima Saadet Shixiyevaning ta’kidlashicha, Nizomiy tarixiy haqiqatni buzmagan holda Mehinbonu – ayol hukmdor obrazini uchta sababga ko‘ra dostoniga olib kirgan:

³² Низами Гянжяви. Хосров вя Ширин. –Бакы, “Лидер няшрийят”, 2004, 64- сях.

- Vataniga va Shirinning prototipi bo‘lgan Ofoqqa muhabbati tufayli (Ofoq ko‘chmanchi turkiylardan bo‘lgan);

- o‘tmishda Bobil davlati tugatilib, unga qarashli poytaxti Barda shahri bo‘lgan mehroniylar davlatining Parfiya tarkibiga kirishi; Semiramida Bobil hukmdorlaridan biri edi;

- Ozarbayjonga yaqin hududda – Albaniya tepasidagi tog‘larda amazonkalarning mavjudligi haqidagi fikrlar.³³

Nizomiyshunoslarning e’tirofiga ko‘ra, Mehinbonuning otashparast qilib tasvirlanishi ham (mehroniylar nasroniy dinida edilar) Semiramidaning dini bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Mehinbonu va Shirinning turmush tarzi diqqatga sazovordir. Bahorda Mug‘onda, yozda Armanzamin tog‘larida, kuzda Abxaziyada, qishda Bardada yashaydigan Mehinbonuning hayoti ko‘chmanchi turklar hayotiga mos tasvirlangan. To‘rt faslga moslab qurilgan to‘rt qasr - qo‘rg‘on tasviri Mehinbonu xalqining ko‘chmanchi ekanini tasdiqlaydi. Nizomiy Mehinbonu va Shirinning qaysi millatga mansubligini ochiq aytmaydi, ularning turkiy ekanliklarini o‘z tillaridan bayon qildiradi yoki urf-odatlar, ismlar, qahramonlarning nasihatlari, xatti harakatlari orqali ko‘rsatadi. Masalan: *Agar u Oy bo‘lsa, biz Quyoshmiz, // Agar u Kayxusrav bo‘lsa, biz Afrosiyobmiz,* - deydi Mehinbonu Shiringa Xusrav haqida. Bu baytda iyhom san’ati qo‘llangan bo‘lib, baytni ikki xil talqin qilish mumkin:

1) Mehinbonu o‘zining Afrosiyob avlodi ekanligidan faxrlanadi, siyosiy qudrat, obro‘-e’tibor jihatidan sosoniylardan qolishmasligini ta’kidlaydi. Zotan uning unvonining ma’nosi ham “shahanshoh”, “buyuk hukmdor” degan ma’nolarni anglatuvchi Xusrav ismiga yaqindir. Bu baytda Kayxusrav Oyga, Afrosiyob esa Quyoshga qiyoslangan;

2) ozarbayjon xalq og‘zaki ijodida, shuningdek Navoiyning g‘azallarida ham, oy - o‘g‘il bola, Quyosh esa qiz bola sifatida tasavvur qilinadi. Baytda Shirin - Quyosh, Xusrav esa Oyga o‘xhatilgan. O‘xhatishning asosi ikkita: birinchidan, sovuq va qorong‘i samoviy jism bo‘lgan Oy nur va yorug‘likni Quyoshdan oladi. Oy-Quyoshning oshig‘i. Ikkinchidan, Shirin - Afrosiyobning avlodi, Xusrav esa Kayxusravning davomchisi. Nizomiy, Afrosiyobni Quyoshga oxshatish orqali, turk hukmdorini yuksak maqom egasi sifatida ko‘rishini ta’kidlagan.

³³ Sixiyeva Səadət. Türklüyü ilə qürurlanan Şirin. Nizaminin "Xosrov və Şirin"i əsasında - Səadət SIXIYEVA | Edebiyyatqazeti.az

Alisher Navoiy esa “Farhod va Shirin” dostonida Mehinbonuni Afridun avlodidan deb ta’riflaydi: “Jannatlar rashk qiladigan bu o’lkaning hukmdori hayo pardasidagi bir ayoldir. Uning kelib chiqishi Afridunga borib taqaladi. Zoti Jamshid podshohnikidan yuqori. Boshiga toj (*turmush o’rtog’i*) soya solmasa ham, ko‘p tojdorlardan boj oladi. Belini garchi kamar qidirib topolmasa ham, uning qo’shinini zarrin kamarlar (*jangovar qizlar*) tashkil etadi. Uning bu xil sifatlarini tushunib, dunyo xalqi uning otini Mehinbonu deb ataydi.³⁴

Nega Navoiy Nizomiy yo‘lidan yurib, Mehinbonuni Afrosiyob avlodidan deb ta’riflamadi? Chunki tarixiy asarlarda Afrosiyobga munosabat bir xil emas. Mahmud Koshg‘ariy va Yusuf Xos Hojib Afrosiyobni ijobiy tarixiy shaxs, mamlakat va davlat boshqaruving katta tashkilotchisi sifatida e’tirof etganlar, podshohlik faoliyatiga yuqori baho bergenlar. “Ravzat us-safo”, “Tarixi muluki ajam” kabi tarixiy asarlarda esa zolim shoh sifatida tasvirlangan. Afrosiyob shoh Navdarni o’ldirib, o’n ikki yil Eronda podshohlik qilgan. Mamlakatni qattiqqo’llik bilan boshqargani uchun mahalliy xalqning noroziligi kuchaygan. “Chun Navdarni o’lturdi, Eron mulkini andoq buzdi, oz yerda ma’murluq qoldi, yig‘ochlarni kesti va imoratlarni yiqtin va korizlar bila bulog‘larni ko‘mdi”, -deb yozadi A.Navoiy.³⁵ Shuning uchun bo‘lsa kerak, Navoiyning e’tiqodiga ko‘ra, adolatli hukmdor, jangovar ayollar sarkardasi, olima podshoh, tun-u kun el tinchligini o‘laydigan, kanallar qazish, yurtni obod qilish dardi bilan yashaydigan Mehinbonu Afrosiyob avlodi bo‘la olmaydi. Yuksak axloqli olim, adolatli va xalqparvar podshoh Afridun (Faridun) zotidan bo‘lishga munosibdir.

XVI asr boshida yashab ijod etgan turk shoiri Ahmad Ridvan esa o‘zining “Xusrav va Shirin” dostonida Mehinbonuning kelib chiqishini Bahromi Fag‘furga bog‘lagan.

Garchi Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonini Xusrav Dehlaviyning “Shirin va Xusrav” dostoniga tatabbu qilib yaratgan bo‘Isa-da, Mehinbonu obraqi Dehlaviyning Mehinbonusidan keskin farq qiladi. Dehlaviyda Mehinbonu ikkinchi darajali timsol, faqatgina Shirin tomonidan Xusrav Parvez sharafiga uyuştirilgan ziyofat tasvirida ko‘rinish beradi. Nizomiy Mehinbonu timsoliga davlatni adolat bilan

³⁴ Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами: 20 томлик. Т.8.Ҳамса:Фарҳод ва Ширин – Т.: Фан,1991,227- б.

³⁵ Алишер Навоий.Муқаммал асарлар тўплами:15 томлик.Т.14.Тарихи мулуки Ажам–Т.: Фан,1967, 191- б.

boshqarish, taxt vorisi Shirinni komila, iffatli qiz qilib tarbiyalash vazifalarini yuklagan bo‘lsa, Navoiy ilm-fanga homiylik qilish, kanallar qazdirib yurtni suv tanqisligidan qutqarish, xalqning osoyishtaligi uchun kurashish, Farhodga onalik mehrini ko‘rsatish, Farhod va Shirinning pok sevgisini zolim Xusravdan himoya qilishday vazifalarni ham yuklagan.

ALISHER NAVOIYNING “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDAGI O‘N GO‘ZAL QIZ OBRAZINING GENEZISI

Xamsanavislik an’anasi ko‘plab sujet va mavzularning bugungi kungacha yetib kelishida muhim o‘rin tutadi. Turli davrlarda amalga oshirilgan “Xamsa”larning qiyosiy tadqiqi sujet va obrazlarning genezisi va tadrijiy takomilini o‘rganishga, shoirning an’anaviy obrazlar evolyutsiyasiga qo‘shgan hissasini aniqlashga imkon beradi. Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida xamsataynda uchraydigan obrazlar galereyasini Mulkoro, Moniy, Boniy, Quran, Suhaylo, Suqrot, Xizr payg‘ambar, soxta oshiq yigit, Ajdaho, Ahriman dev, soqchilar boshlig‘i kabi timsollar bilan boyitdiki, shubhasiz, bu obrazlar Navoiyning xamsanavislik an’anasiga qo‘shgan buyuk hissasidir.

O‘tgan XX asrda hamda yangi asrning birinchi choragida Alisher Navoiy “Xamsa”si tarkibidagi alohida dostonlarni shu mavzudagi asarlar bilan qiyosiy aspektida o‘rganishga oid ko‘plab dissertatsiya va monografiyalar, ilmiy risola va maqolalar e’lon qilindi. Biroq, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy va Alisher Navoiy dostonlarida qalamga olingan, lekin shu kungacha xamsashunoslikda kam o‘rganilgan masala – dostonlardagi o‘nta qiz obrazini qiyoslab tadqiq etish, ularning genezisi, tadrijiy takomili, mualliflar tomonidan bu timsollarga yuklangan vazifalarni tadqiq etishga ehtiyoj bor.

Epizodik obrazlar asosiy qahramon tabiatidagi muhim xususiyatlarni ishonarli yoritishga xizmat qiladi. Ular asar sahnasini to‘ldirib turish yoki bosh qahramonni sahnada yolg‘iz qoldirmaslik uchun kiritilmaydi. Muallif bosh qahramonning xarakterini, qiziqishlarini, tashqi ta’sir orqali shakllangan ruhiy holatini ochib berish uchun epizodik obrazlarga murojaat qiladi.

Nizomiy ham “Xusrav va Shirin” dostoniga olib kirgan o‘nta qiz obraziga ana shunday vazifalarni yuklagan edi. Afsuski, dostonga tatabbu’ bog‘lagan yoki uni erkin tarjima qilgan ayrim shoirlar bu obrazlarni keraksiz deb hisoblab, asar sujetidan tushirib qoldirganlar.

Nizomiyning “Xusrav va Shirin” dostonidagi o’nta dilbar. Nizomiy dostonida Shirin har doim yetmish qiz qurshovida tasvirlanadi. Barchasi aslzoda, oliynasab; husnda oromijon; zebolikda oroyi jahon. Agar ular maydonda jang qilsalar, fil-u arslonning ahvolini tang qiladilar. O‘q uzib ko‘kdagi yulduzni urib tushiradilar. Shirin bu qizlar bilan goh ovga chiqadi, goh bog‘da may ichib, gullar teradi. Bu qizlar Shirinni kun-u tun qo‘riqlab yuradilar. Shopur Xusravning rasmlarini daraxtga osib qo‘yanida, qizlar “rasmni devlar o‘g‘irlab ketdi”, “parilar olib ketishdi” deb Shirinni aldaydilar, aslida, rasmlarni yashirib, bekachlarining tinchini o‘ylaydilar. Shirinning yetmishta qiz bilan ovga chiqish manzarasi bu qizlarning (Shirinning ham) nimalarga qodir ekanini aniq ochib bergen:

*Shu dam yetmishta qiz urg‘ochi sherdai,
Shirin oldida hozir bo‘ldilar, shay.
Kurashda har biri Isfandiyordek,
Tirandozlikda chun Rustamsavordek.
Va chavgon bobida cholok, ham muncha
Yetardi ursalar gar ko‘kka koptok .³⁶*

Otasidan qolgan taxtni Bahrom cho‘binga boy bergen Xusrav qo‘smini bilan ozar yurtiga qochib keladi. Shikorga chiqqanida Shirin boshchiligidagi bu alp qizlarga duch keladi, bir oy davomida ular bilan chovgon o‘ynaydi, ohu va qulon oviga chiqadi.

Nizomiy o‘z o‘quvchisini yetmishta qizning ichidan tanlab olingan o‘n dilbar: *Farangis, Suhamli, Humaylo, Humoyun, Sumanturk, Parizod, Falaknoz, Xo‘tanxotun, Gavharmulk va Ajabno‘sh* bilan ziyofat lavhasida tanishtiradi. Qadimda Sharq ziyoftlarida, mayxo‘rlikdan tashqari, chiroyli qo‘sniq tinglash, g‘azal o‘qish, qissago‘ylik qilish an’anasi mavjud bo‘lgan. Dostonda ham Xusrav, Shirin, Shopur va o‘nta kanizak tonggacha qissago‘ylik qiladilar.³⁷

Birinchi masalni *Farangis* so‘zlab beradi: “Davlat ganjni yerga pinhon ayladi – yashirdi. Bundan xabar topgan Faridun, ranjlar chekib, yer tagidagi bori ganjni qazib oldi” (ganj – Shirin, Faridun – Xusrav, Davlat esa Shirinning tarbiyasiga juda qattiq ahamiyat bergen Mahinbonu hisoblanadi).

Suhamlining masali: Baland sarv daraxtining tagida tustovuq o‘ynar edi. Banogoh qaerdandir lochin uchib keldi, tustovuq uning domiga

³⁶ Shayx Nizomiy Ganjaviy. Xusrav va Shirin. Jamol Kamol tarjimasi.-T., 2018, 122- 6.

³⁷ Shayx Nizomiy Ganjaviy. Xusrav va Shirin. Jamol Kamol tarjimasi.-T., 2018, 131- 6.

tushdi. (Tustovuq – Shirin, lochin – otasining g‘azabidan qo‘rqib Armanzaminga qochib kelgan Xusrav, baland sarv – Mahinbonu).

Ajabno ‘shning hikoyasi: “Bir bog‘da anbarin gul ochildi. Jannat qushi uchib kelib, uni o‘pdi va minqorida gulni olib ketdi”. (Anbarin gul – Shirin, Jannat qushi – Xusrav).

Falaknozning hikoyasi: “Biz olamni bir ko‘z bilan ko‘rar edik. Yaratgan yana bir ko‘z berdi oshnolik. Ikki ko‘zga ro‘shnolik yaqin bo‘ladi”. (Ikki ko‘z – Shirin va Xusrav, ularning bir-birlarisiz yashay olmasliklariga ishora).

Humayloning deganlari: “Bog‘-u rog‘larni yashnatib toza, tiniq suv oqardi. Tashnalab bir javonsher keldi-yu, ziloliy suvni nogoh simirdi” (Toza, tiniq suv – bokira Shirin, tashnalab yigit – mag‘lubiyatlar tufayli Shirin sevgisidan taskin izlagan Xusrav).

Humoyun hikoyasi: “Xaloyiq ko‘zidan pinhon bo‘lgan la’l koni bor edi. Kon o‘z sirlarini shohga ochdi: unga davlat yor bo‘ldi. Shoh ularni olib tojiga zeb-ziynat qildi “(la’l koni – Shirin, u Xusravga befarq emasligini ayon qiladi, shoh – Xusrav; u ham Shiringa, ham uning davlatiga ega bo‘ladi).

Turkisuman hikoyasi: “Bir kuni sadafga yashiringan dur sadafidan ayrildi va Falak uni shohga ravo ko‘rib, hamono yoqutga payvand qildi” (dur - Shirin, yoqut – Xusrav, sadaf – Mahinbonuning mehri).

Parizodi parirux hikoyasi: “Ovloqda oy qiz yolg‘iz o‘yin o‘ynardi. Oftob chiqib uni mo‘ljalga oldi va bechorani tutib ganbarga soldi” (oy qiz – Shirin, oftob – Xusrav).

Xo‘tanxotun masali: “Ipakpo‘sh shamshod tanho edi. Sarvi ozod nogoh unga yetishdi. Sarv-u shamshod hamdam bo‘lsa, qanday yoqimli.” (shamshod – Shirin, sarv – Xusrav).

Gavharmulk hikoyasi: “Ko‘pdan beri Zuhro yolg‘iz edi. Saodat unga iqbol qo‘lini cho‘zdi: Qironi Mushtariyga payvast qildi” (Zuhro – Shirin, Mushtariy – Xusrav). Lavhadan ko‘rinib turibdiki, Shirin va uning atrofidagi qizlar nafaqat jismonan baquvvat mohir jangchi, usta kamonboz, tajribali ovchi, chavgon ustasi, balki so‘z san’ati shaydosи hamdirlar. So‘zlangan masal-hikoyalarning mohiyatiga nazar solinsa, ularning inson ruhiyati bilimdoni ekanliklarini ham sezish mumkin.

Amir Xusrav Dehlaviyning “Shirin va Xusrav” dostonidagi o‘nta go‘zal. Xusrav Dehlaviy o‘z “Xamsa”sini Nizomiy “Xamsa”siga tatabbu’ qilib yaratgan bo‘lsa-da, ayrim yangiliklarni ham kiritgan. Ikki dostonni qiyoslab o‘rganganimizda, farqlar faqat dostonlarning nomlanishida emas, mazmun, timsollar talqini va uslubda ham

kuzatiladi. O'nta navkar yigit obrazı Dehlaviyning doston sujetiga qo'shgan yangiliklaridan biridir Xotini Maryamning o'limidan keyin Xusrav o'nta navkari bilan shikorga otlanadi va Shirinka duch keladi. Dostonda o'nta go'zal qizning qandaydir hunar yoki bilim egasi ekanligi to'g'risida aniq ma'lumot yo'q.³⁸ Ziyofatda yigitlarga so'z berilganda, ular go'zal qizlarga maftun bo'lganliklarini, qizlar ham o'z navbatida yigitlarga befarq emasliklarini bildiradilar. Shu tariqa *Nasim* va *Bahor*, *Lola* va *Savsan*, *Gulrang* va *Gulnor*, *Shamshod* va *Zulol*, *Kavsar* va *Gulob*, *Anvar* va *Parvin*, *Maymun* va *Humo*, *Navshod* va *Nishot*, *Tovus* va *Minu*, *Javzo* va *Sayyora* bir-birlariga sevgi izhor qiladilar, tonggacha bir-birlariga o'z kechmishlarini so'zlab beradilar. Bu ziyofatda Shopur ham qatnashayotgan edi. U Shirinning bolalikdan birga katta bo'lgan kanizagi Mushtariyga muhabbatini izhor etadi. Navbat Xusravga keladi. Xusrav Shirinning davradagi qizlardan har tomonlama farq qilishini – ustun ekanligini ta'kidlab, uning qo'lini so'raydi. Shirin Xusravning iqroriga darhol javob qaytarmaydi, lekin harakatlari bilan unga befarq emasligini bildiradi. Xusravning farmoni bilan oshiq-ma'shuqlarning to'ylari bo'ladi, lekin o'zi uylanishga shoshilmaydi. Shirinka nikohsiz ishqiy munosabatda bo'lishni taklif etadi. Buni arman malikasi o'ziga ravo ko'rmaydi, rad javobini beradi. G'ururi toptalgan Xusrav Madoinga qaytadi va Shopurning maslahatiga kirib, Isfaxon malikasi Shakarga uylanadi. Lavhadan shu ma'lum bo'ladiki, Dehlaviy o'n go'zal qiz va o'n navqiron yigitning ishqiy munosabatlarini tasvirlash orqali Xusrav va Shirinning sevgi masalasidagi qarashlarida farq borligini ko'rsatib bergen.

Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidagi o'nta dilorom. Navoiy "Xamsa"lardagi ikkinchi dostonning an'anaviy obraziga aylangan Mehinbonu timsoliga yangi koloritlar qo'shdi. Mehinbonu obrazining yangicha mohiyati quyidagilarda ko'rindi: Farhodga bo'lgan onalarcha mehri, Xusravga qarshi kurashi va nafrati, ilm-ma'rifikat homysi ekanligi, uning ko'magida saroydagi o'nta qizning ilm va hunarda ajoyib kishilar bo'lib yetishgani.³⁹

O'nta dilorom ta'rifi dostonning o'ttiz beshinchi bobida berilgan. "Nahr ul-hayot" arig'i bitgach, Mehinbonu Farhodning sharafiga "Bahr

³⁸ Абдуллаев О. Творческая новизна и новаторства в поэтических произведениях «Ширин и Хосрав» Амира Дехлави и «Фархад и Ширин» Алишера Навои . Наука, новые технологии и инновации Кыргызстана №8, 2016, стр. 95-98.

³⁹ Навоий Алишер.Мукаммал асарлар тўплами:20 томлик.Т.8.Хамса: Фарход ва Ширин–Т.: Фан,1991, 272- б.

ul-najot” hovuzi yonidagi toshqasrda ziyofat beradi. Shirin ziyofatga qo’shilgunicha, Mehinbonu, Farhod va Shopur jonga quvvat berguvchi maylardan ichib, jonlarni o’z pardasidan o‘ynab chiqib ketgudek qilguvchi qo’shiqlarni tinglaydilar.

Bu majlisda o‘nta dilorom qiz ham qatnashadi. Qizlarning hammasi sarvqomat, gulbadan edilar.Ular Shirinning xos xizmatchilari bo‘lib, Mehinbonu harami shu qizlar bilan yoqimli edi.Ularning har biri bir fan bobida mohir edilar :

*Biri ash’or bahri ichra g‘avvos,
Biri advor davri ichra raqqos.
Biri mantiq rusumida raqamkash,
Biri hay’at ruqumig ‘a qalamkash.
Birining shevasi ilmi haqoyiq,
Balog‘atda biri aytib daqoyiq.
Biri tarixda so ‘z aylab fasona,
Biri hikmat fani ichra yagona.
Hisob ichra birining zihni borib
Muammoda birisi ot chiqorib.
Bu fanlardan bular bir-birdan ahsan,
Yuz ul fanliq aro har qaysi yakfan .⁴⁰*

Biri – shoira, ikkinchisi – ajoyib raqqosa, uchinchisi – mantiqshunos, to‘rtinchisi – yulduzshunos, beshinchisi – tasavvuf ilmi bilimdoni, oltinchisi – balog‘a ilmi bo‘yicha mutaxassis, yettinchisi – tarixchi, sakkizinchisi – faylasuf, to‘qqizinchisi – matematik, o‘ninchisi – muammo san’ati ustasi .

Ularning ismlari *Dilorom, Diloro, Diloso, Gulandom, Sumanbo‘, Sumanso, Parichehra, Parizod, Parivash va Paripaykar* edi. Mehinbonu o‘zining bilimdonligini ko‘rsatib, ularga nozik-nozik savollar berardi. Ular ham yuz dilkash so‘zlarni topib, savollarga javob qillardilar. Ularning savol-javobini diqqat bilan tinglagan Farhod ham yodidan ko‘tarilgan ilmlarini qaytadan eslaydi. Har bir qizga uning o‘z faniga oid savollar beradi. U o‘rtaga tashlagan masalalar shu vaqtgacha hali eshitilmagan masalalar bo‘lgani uchun sanamlar javobga ojiz qoladilar. Ular yecholmagan muammoli savollarga Farhodning o‘zi javob beradi. Hamma bilimdonlarning boshlig‘i bo‘lgan Mehinbonuga Farhodning ilohiy sirlarga oshnoligi, jamolidan shahzodaligi ayon bo‘ladi.

⁴⁰ Маллаев Н.М. Сўз санъатининг гултожи.. –Т.: Фафур Ғулом, 1991, 49- б.

Qiyosiy tahlildan ko‘rinib turibdiki, Nizomiy va Dehlaviy dostonlarida o‘nta qiz Shirinning dugonalari, kanizaklari hisoblanadi, Shirin doim ularning qurshovida yuradi. Nizomiy o‘nta qiz obrazini quyidagi maqsadlarda Xusrav va Shirin sevgi qissasiga kiritgan: 1) ov manzaralari, chavgon o‘yini tasviri orqali Shirinning qiziqishlarini ko‘rsatish; 2) Mehinbonu tarbiyasini olgan o‘ta kamtarin, iffatli qizning hech kimga aytolmagan hislarini yuzaga chiqarish; 3) Shirinni Xusravga turmushga chiqishga da’vat etish.

Dehlaviy dostonida esa o‘nta go‘zalga yuklangan vazifa bitta: Shirinni Xusravga turmushga chiqishga undashdir.

Alisher Navoiy dostonidagi o‘nta qiz esa Mehinbonuning shogirdlari, uning tarbiyasini olgan olma qizlar. Alisher Navoiy Farhod sharafiga uysushtirilgan ziyofat lavhasi orqali o‘nta qiz obraziga quyidagi vazifalarni yuklagan:

- 1) Mehinbonuning olima rahbar ekanligini ta’kidlash;
- 2) Shirinning dunyoviy va diniy bilimlardan xabardor ekanligini ko‘rsatish;
- 3) ayollarning ham ilm sohasida erkaklardek muvaffaqiyatlar qozona olishini isbotlash;
- 4) shoirning ayollarga bo‘lgan yuksak hurmat-ehtiromini aks ettirish.

Ulug‘ shoir Alisher Navoiy Mehinbonu, Shirin va o‘nta dilorom obrazlari orqali o‘qimishli rahbar ayol, diniy – dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan olima ayollar timsolini adabiyotga olib kirdi.

ALISHER NAVOIYNING EPIZODIK OBRAZLAR YARATISH MAHORATI

Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonini yozishni boshlaganida: *“Ani nazm etki, tarhing toza bo‘lg‘ay,*

Ulusqa mayli beandoza bo‘lg‘ay”, - deb yangi tarhdagi asarni yozishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan edi. Shoir majoziy ishq qissasini irfoniy ishq qissasiga aylantirar ekan, bosh va epizodik obrazlarga muayyan bir vazifani yukladi. Nizomiy, Dehlaviy, Ashraf Marog‘iy, Orif Ardabiliy kabi salaflarining asarlaridagi obrazlarni yangi qiyofada o‘quvchilarga taqdim qildi. O‘zi ham majoziy ishq bilan ilohiy ishq omuxta bo‘lib ketgan sevgi qissasi sujetiga Mulkoro, Boniy, Moniy, Quran, Suhaylo, Suqrot, soxta oshiqlarini olib kirdi, ajdarho,

Axriman dev, sher, temir paykar kabi folklor elementlarini dostoniga kiritib, ularga tasavvufiy ma'nolarni yukladi.

Navoiyning obraz yaratishdagi mahorati va yangiliklarini chuqur his qilish uchun uning “Mehnatnoma” (“Farhod va Shirin”)sini Navoiygacha “Xusrav va Shirin”/”Farhod va Shirin” dostonlarini yaratgan o‘zbek, ozarbayjon va turk shoirlarining (Nizomiy, Dehlaviy, Qutb, Faxriy, Shayxiy, Orif Ardabiliy) asarlari bilan taqqoslab o‘rganish kerak bo‘ladi. Navoiyning badiiy mahorati o‘zbek olimlari Sodir Erkinov, Aziz Qayumov, Abduqodir Hayitmetov, Alibek Rustamov tadqiqotlarida o‘z aksini topgan bo‘lsa, Nizomiy, Orif Ardabiliyning obraz yaratish mahorati ozarbayjonlik sharqshunos olimlar G‘azanfar Aliyev, Nushaba Arasli tomonidan o‘rganilgan. Turk olimlaridan Farux Demirtash Shayxiy ijodi bo‘yicha, O‘zlem Gunesh esa Faxriy ijodi bo‘yicha doktorlik tezini himoya qilganlar. Navoiy asarini ungacha yaratilgan asarlar bilan qiyoslab o‘rganish, shubhasiz, Nizomiy va Dehlaviy an’analarini davom ettirgan Navoiy ijodiy niyatini chuqurroq anglashga imkon beradi. Biz ushbu maqolada Alisher Navoiyning episodik obrazlar yaratish mahoratini makkora kampir va Farhodning onasi timsollari misolida ko‘rib chiqamiz.

Makkora kampir obrazini Xusrav-Shirin-Farhod qissasiga ilk bor turk shoiri Shayxiy olib kirgan. Orif Ardabiliy va Navoiy bu obrazni takomillashtirdilar.

Farhodning qotili kim? Nizomiy, Dehlaviy va Faxriyning dostonlarida Shirinning o‘lgani haqidagi yolg‘on xabarni Besutun tog‘ida ishlayotgan Farhodga yetkazish va unga ruhiy zarba berish uchun erkak kishi yollanadi.

Nizomiydagi makkor kishining botiniy tubanligi zohirida aks etgan: xunuk yuzli, ko‘zлari ukkining ko‘ziday o‘tkir boquvchi, qassobnikiga o‘xshagan yuzidan qon sizib turuvchi, olamga nafrat va qahr bilan boquvchi bedavo.

Chu topdilar bir bedavoni,
Xunuk yuz, ukki ko‘z, manglay qaroni.
Yuzida qahr ila qondin nishone,
Qilichdek mo‘ylovi otashfishone.
Yomon so‘zlar ila ta’lim etishdi,
Berib zar va’dasin, so‘ng qo‘rquitishdi.⁴¹

⁴¹ Shayx Nizomiy Ganjaviy. (2018). Xusrav va Shirin . Jamol Kamol tarjimasi. (qo’lyozma asosida).T.:2018.323-b

Dehlaviyning “Shirin va Xusrav” dostonidagi makkor odam Parvizning qora tanli soqchisi hisoblanadi. U Parvizning emas, aslida tuhmatnig soqchisidir. Tilida tuhmat, ko‘zida yomonlik. Do‘zaxdan kelgan jodugar. Kimsa uning xushxabar keltirganini ko‘rmagan. Motamda sevinadigan, birovning boshiga tashvish tushsa, kuladigan, to‘ylarda boshiga kul sepadigan odam. Hasaddan tanasi ko‘karib ketgan, badanidagi har bir tuki bitlab ketgan bu ittumshuqning ismi Harangan edi.⁴² Shayxiyning “Xusrav va Shirin” dostonida bu ish uchun qari kampirni yuboradilar.⁴³

Orif Ardabiliy salaflariga o‘xshab kasbi makr bo‘lgan insonni tanlamadi. Og‘ir vazifani farzand dog‘ida kuygan xuntalab ona obraziga yukladi. Uning “Farhodnama” dostonida Gulistonga chin dildan oshiq bo‘lgan rumlik yigitchani Farhod rashkdan bo‘g‘ib o‘ldirib qo‘yadi. Onasi o‘g‘lining qasosini olish uchun qotilni izlab avval Abxaziyaga keladi, so‘ng uni Besutun tog‘i etagidan topadi.⁴⁴

Navoiyda esa Xusrav va Buzurg Ummid Farhoddan qutulish uchun bir emas, ikki makkorni yolg‘on xabar bilan Farhodning oldiga jo‘natadilar. Birinchisi - “hiylagar, gumrohi makkor”, u soxta oshiq qiyofasida kelib Farhodni behush qilgan va uning Salosil g‘origa bandi bo‘lishiga sababchi bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchisi Shirinning o‘limi haqidagi yolg‘on xabarni yetkazib, Farhodning o‘limiga sababchi bo‘ladi. Navoiy “zoli makkora, balki Farhodkushi xunxora” ning chirkinligini batafsil tasvirlaydi, nahs ko‘rinishini nafrat bilan ochib tashlaydi: qaddi ikki bukilgan, yuzida makr chizig‘idan ajinlar tushgan, umrida tilidan biror chin so‘z chiqmagan. Hiyla va nayrang bilan toshni mumday erita oladi. Afsun bilan otaga qizini, o‘g‘ilga onasini olib bera oladi. Bitta yolg‘on so‘zi bilan yuzta oilani buza oladi. Hatto Quyoshni xunuk va xira Zuhal yulduziga (nahs sayyorasiga) oshiq qilib qo‘yishga qodir... U o‘z hukmi bilan yuzta Buqrot hakimni mot qilar, bisotida bunday makr va hiyla no‘xatlari yulduzlarday ko‘p edi.

Navoiy makkoraning portretini chizishda Dehlaviy yo‘lini tutdi: mubolag‘ali tasvirlar, osmon makkorasi Zuhal va o‘z ayyorligi bilan nom chiqargan ayol - afsonaviy Dallat ul-muhtola obrazlaridan ustalik bilan foydalandi. Makkor kampirning ust - boshini shunday

⁴² Əmir Xosrov Dəhləvi .Şirin və Xosrov. Bakı, “Avrasiya Press”.2006.118-s.

⁴³ Güneş, Özlem. Fahrî'nin Husrev u Şîrîn'i (metin ve tahlil), Nizâmî ve Şeyhî'nin eserleriyle karşılaşılması. Doktora tezi. İstanbul üniversitesi. Sosyal bilimler enstitüsü.Türk dili ve edebiyati anabilim dalı.Istanbul.2010.183 s.

⁴⁴ Ardabili, Arif. Farhadnama. Xalil Yusifli terjumesi, Bakı.2007.278-283 s.

tasvirlaydiki, har bir detal uning ma’naviy tubanligini ko‘rsatib turadi: makr-hiyalarini hisoblash uchun bo‘yniga juda ko‘p tasbehlarni taqib olgan, yuzidagi to‘rpardasi qalloblik va haromzodalik iplaridan to‘qilgan, ustidagi to‘ni tuturiqsizlik matosidan tikilgan. U o‘zini Farhodga tarkidunyo qilgan, faqat toat-ibodat bilan shug‘ullanuvchi, shu tog‘lardan o‘ziga bir qorong‘i g‘or izlab yurgan shaxsday tanitadi. “Odamizodda vafo yo‘q, odamdan ko‘ra qora toshdan vafo kutish mumkin” deb ayyuhannos tortadi.⁴⁵

Makkor(a)dan yolg‘on xabarni eshitgan Farhod o‘zini qanday tutadi, qanday o‘lim topadi?

Nizomiyda makkor odam Farhodga Shirinning to‘satdan vafot etgani haqida xabar beradi. Bechora Farhod shum xabarni ko‘tara olmay o‘zini tog‘ tepasidan pastga otadi. “*Shirin!*” deb so‘nggi bor ul chekdi afg‘on, *O‘pib yer, Haqqa taslim ayladi jon...*⁴⁶

Dehlaviyda Shirinning o‘limi haqidagi xabarni eshitgan Farhod boshini qoyatoshlarga urib yoradi. Sut arig‘ida uning qip-qizil qoni oqadi.

Gunduzu gecəyə çevrildi bu an,
Bezdi şirin canı acı həyatdan.
Ağzında acılıq, dilində Şirin,
Olumun şərbeti şirindi, şirin.
Şirin ləyən kimi, goz doldu qandan,
Şirin deyə-deyə can çıxdı candan.⁴⁷

Shayxiyda shum kampir Besutun tog‘iga kelib Farhodning yoniga o‘tiradi. Biroz vafosiz dunyodan shikoyat qilib, yig‘lab dardini to‘kkadan keyin, kim uchun buncha zahmat chekayotgani bilan qiziqadi. Farhod shuncha xatti-harakatlari sevgilishi Shiringa yetishish uchun ekanligini aytganda makkora kampir sovuq oh chekib, Shirinning o‘limi haqidagi xabarni yetkazadi. Farhod o‘zini yo‘qotib qo‘yadi, teshasini osmonga, o‘zini qoyadan pastga otib, umriga nuqta qo‘yadi.⁴⁸

⁴⁵ Navoiy, Alisher .Xamsa. Nasriy bayon.Toshkent: Navro‘z. 2019.267-268-b.

⁴⁶ Shayx Nizomiy Ganjaviy. (2018). Xusrav va Shirin . Jamol Kamol tarjimasi. (qo‘lyozma asosida).T.:2018.235-b

⁴⁷ Əmir Xosrov Dəhləvi .Şirin və Xosrov. Bakı, “Avrasiya Press”.2006.120-s.

⁴⁸ Güneş, Özlem. Fahrî’nin Husrev u Şîrîn’i (metin ve tahlil), Nizâmî ve Şeyhî’nin eserleriyle karşılaştırılması. Doktora tezi. İstanbul üniversitesi. Sosyal bilimler enstitüsü.Türk dili ve edebiyati anabilim dalı.Istanbul.2010.184-s.

Orif Ardabiliyda qasoskor ona Farhodning suvidishiga bildirmasdan zahar solib qo'yadi. Farhod suvdan ichib zaharlanadi va qon qusib o'ladi.⁴⁹

Navoiyda zoli makkora Farhodga vazir Buzurg Ummidning gaplarini, ya'ni Xusrav Arman shahrini olib, hamma orzulari ushalganini, Bonu unga Shirinni qo'shib qo'yanini, Shirin Xusravni Farhoddan ortiq ko'rganini, endi Farhod o'z yurtiga ketishi lozimligini yetkazishi kerak edi, lekin u Farhodning huzuriga borib bu gaplarning tamomila teskarisini aytadi. Shirin Xusravga tegishga rozi bo'lmay, Farhod yodida o'zini o'lindi, deydi. Shu yolg'on gapi bilan zoli makkora sodda, beg'ubor qalbli Farhodni halok qiladi. Dehlaviyning Farhodi kabi behush holda boshini toshlarga urib, ko'ksini o'tkir tosh parchalari bilan yaralab jon taslim qiladi.

Nega shum kampir podshoh va vazirning aytganlarini qilmadi? O'z bilganicha harakat qildi? Zoli makkora podshoh Xusravning tiliga chiqmagan haqiqiy maqsadini anglagan edi, shuning uchun o'ziga berilgan topshiriqni dadillik bilan o'zgartiradi. Garchi bu qotil butun vujudi qabohat bilan sug'orilgan bir nahn bo'lsa-da, uni harakatga keltirgan va jinoyatga undagan kuch Xusravning kir niyati, Buzurg Ummidning tuban kordonligi edi. Navoiy turli yovuz kuchlarning birlashuvi qanday mudhish natijalarga olib kelishi mumkinligini ana shu voqealar orqali ko'rsatga.⁵⁰

Farhodning o'limiga sababchi bo'lgan makkor(a) jazolanadimi?

Nizomiy, Dehlaviy, Faxriy, Shayxiy va Ardabiliy dostonlarida Farhodning umriga zomin bo'lgan shaxslar jazolanmaydi. Har qanday jinoyat jazosiz qolmasligi kerak, deb hisoblaydigan Navoiyda esa ikkala makkoring taqdiri o'lim bilan yakun topadi. Hiylagar "oshiq" yigitni Shopur o'ldiradi. Zoli makkorani esa sahrodagi hayvonlar, Farhodning o'limini ko'rgach, tishlab, tirnab, pora-pora qilib tashlaydilar. Navoiyning e'tiroficha, go'yo hayvonlar "vafosiz insonlardan hayvon yaxshi" degan xulosaga keladilar. Shunisi e'tiborliki, "Farhod va Shirin" dostoni asosida yaratilgan turk xalq ertagida ham Farhodga yolg'on xabarni yetkazgan va uning o'limiga sababchi bo'lgan enagani arslon parchalab tashlaydi.

Ona obrazi. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidagi xarakterli epizodik obrazlardan yana biri ona obrazidir. Salaflarning

⁴⁹ Ardabili, Arif. Farhadnama. Xalil Yusifli terjumesi, Baki.2007. 283- s.

⁵⁰ Каюмов Азиз«Фарход ва Ширин» сирлари: Эзгулик ва севгини улуғловчи мотивлар.— Т. Адабиёт ва санъат нашиёти.1979.163-б.

dostonlarida Farhodning onasi umuman tilga olinmagan. Taxminimizcha, Farhod va Shirin qissasiga ona obrazini birinchi bo‘lib olib kirgan shoir Orif Ardabiliy bo‘ladi. “Farhodnama” ning kirish qismida Chin xoqoni oilasidagi fofja va xiyonat tasvirlanadi: Chin xoqoni Fag‘fur xastalanib vafot etgach, taxtga uzoq vaqt hibsda saqlangan, akasi o‘lib, nihoyat, ozod bo‘lgan uka o‘tiradi, bu ham yetmaganday, akasining bevasiga uylanadi. Erining motami tugamasdan, boshqa erkakning quchog‘ida baxtdan gul-gul yashnagan onasini ko‘rgan Farhod dahshatga tushadi. Ayollarning sadoqatiga bo‘lgan ishonchini yo‘qotadi. Onasining marhum eriga xiyonatini kechira olmay, yana amakisi va uning to‘rt o‘g‘li taxt ilinjida uni omon qo‘ymasliklarini tushunib yetgach, Shopur bilan Abxaziyaga ketadi.⁵¹

Navoiyning dostonidagi Farhodning onasi esa har tomonlama tarbiyali ayol, mehribon volida, sadoqatli turmush o‘rtoq. U Mehinbonuday faol harakatda ko‘rsatilmaydi. Sujetning kirish va xotima qismida ayrim hodisalarning ishtirokchisi, xoqonning umr yo‘ldoshi, uning yonida hozir turgan hamrohi sifatida tasvirlanadi. O‘zini malikalarday kiborli tutsa-da, yirish-turishida ulug‘sifatlilikni namoyon etsa-da, saroy an’anasiga ko‘ra o‘z bolasini emizmagan bo‘lsa-da (chaqaloq doyani emib katta bo‘ladi), farzandiga mehri cheksiz ayoldir. Xoqon kabi farzandining ruhiyatidagi o‘zgarishlardan tashvishlanadi, o‘g‘li hushidan ketsa, u ham hushidan ketguday bo‘ladi. Dostonning oxirida esa Farhodning firoqida dunyodan o‘tadi. O‘g‘il ko‘rib, o‘g‘lining rohatini ko‘rmagan, hamisha unga zor bo‘lgan sho‘rlik onaning iztiroblarini Farhodning bodi sabo orqali onasiga yo‘llagan yigirma ikki baytli alamli taassuflaridan bilib olish mumkin. Yana xotima bobda onaning jannat bog‘ida turmush o‘rtog‘i va o‘g‘li Farhod bilan birga yurgani tasvirlanadi, qirqta mo‘tabar zotning tushida onaga ham rahmat yetishgani ayon bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, garchi Farhodning onasi obrazi voqealar rivojida ahyon-ahyonda ko‘rinib qo‘ysa-da, Xoqon va Farhod obrazlarini to‘ldirishga xizmat qiladi. Alisher Navoiy dostoniga epizodik ona obrazini kiritib, asosiy obrazlar va ularga oid voqealarning hayotiyligini oshirgan.

⁵¹ Ardabili, Arif. Farhadnama. Xalil Yusifli terjumesi, Baki.2007.49-51 s.

ALISHER NAVOIY “XAMSA” SIDAGI SUQROT OBRAZI GENEZISI

Hakimlar va yunon faylasuflari Sharqda yaratilgan “Xamsa” larning, xususan, Iskandarga bag‘ishlangan dostonlarning an’anaviy obrazlari sirasiga kiradi. Yunon faylasuflarinining qarashlari islomiy dunyoqarashga muvofiq kelgani, Suqrot, Platon va Arastuning komil axloq haqidagi o‘gitlari tasavvuf g‘oyalari bilan bir xil bo‘lgani, bu hikmatlar islomga xizmat qiladi deb hisoblaganliklari uchun ularni musulmon qilib tasvirlash tendensiyasi X asrlardan boshlangan. Qadimgi hind, fors, musulmonlar tafakkuri mahsuli bo‘lgan hikmatlar ham ularga nisbat berila boshlangan. ”Natijada,- deb ta’kidlaydi iskandarnomalardagi yunon faylasuflari genezisini o‘rgangan navoiyshunos olim Ilyos Ismoilov,- ular xamsanavislikka musulmon qiyofaga ega obrazlar sifatida kirib keldi, ya’ni Navoiy va Nizomiyga qadar yunon donishmandlari haqidagi tasavvurlar islomiy tus olib ulgurgan. Shu bois Nizomiy va Navoiyning bu obrazlarga doir talqinlari asosini sharq manbalari, xususan, forsiy andarzlar va arab hikmat adabiyotidan qidirish mantiqli”.⁵² Suqrot, Aflatun va Arastu bu obrazlar orasida eng faollari hisoblanadi.

“Iskandarnoma”da Iskandarning xilvatda yetti hakim bilan olamning asosi haqidagi suhbati va hind donishmandlari bilan savol-javobi; Arastu, Aflatun va Suqrotning uning uchun maxsus yo‘riqnomalar bitishi voqealari Iskandarning donishmand sifatida kamolotga erishuvi, shu orqali uning payg‘ambarlikka yetishuvini asoslash, shuningdek, olimlarning mamlakat taqdiriga ta’sirini ko‘rsatish uchun kiritilgan. Albatta, haqiqiy olim va faylasuflar davrasi ilm nuri ila charog‘on bo‘ladi. Ularning davrasini adib shunday ta’riflaydi:

*Yetti pargor edi shoh tegrasida,
Ul esa nuqtadek, eng o‘rtasida.
Ajab davra edi, shu kuchli, porloq,
Kibrdan xoliyu bodadin yiroq...⁵³*

Bir kuni Iskandar uyqudan uyg‘onib, Suqrotni huzuriga keltirishlarini buyuradi. Xilvatda zohidona hayot kechiradigan Suqrot ikki marta shohning taklifini rad etadi. Bora olmasligining sabablarini

⁵² Исмоилов И. (2019). Алишер Навоий «Садди Искандарий» достонининг қиссий таҳлили. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий дараҷасини олиши учун ёзилган Диссертация/Кўлъёзма ҳуқуқида, 113- б.

⁵³ Nizomiy Ganjaviy.(2017). Iqbolnoma. – T.: Extremum – press, 139- b.

birma-bir sanaydi: 1) yaxshi-yomonni ajrata oladigan aqlim saroyga bormasligim kerakligini aytmoqda; 2) shohning ko‘nglida va so‘zlarida menday zohidga mehr yo‘q; 3) inson ostonasida turgan Jabroil bilan o‘ynashmaydi; 4) shohning mahramlari kambag‘al insonga do‘ston a nazar solmaydi, ular dengizdagi dur-u javohirni yutishga tayyor nahanglarga o‘xshaydi; 5) shoh xizmatidagi insonning tili shirin bo‘lishi kerak, mening kabi tili achchiq inson shoh g‘azabiga duchor bo‘lishi shubhasiz; 6) saroyga boray desam, yo‘ldagi tosh ham menga to‘sinq bo‘ladi, otim oqsoqlanadi; 7) menga yomonlik qilganlar aslida o‘zlariga ziyon yetkazadilar, chunki:

*Menga xaloyiqdin ne sudu samar,
Haq boylaganman belimga kamar.*

Elchi uning javobini Iskandarga yetkazadi. Iskandar Suqrot yashaydigan xilvatgohga yo‘l oladi, uning faqirona hayoti shohga qattiq ta’sir qiladi. “Men bilan saroyga yur, jahon tashvishidan ozod bo‘lgaysan”, - deydi. Suqrotning bu taklifga bergen rad javobi, beixtiyor, “Qutadg‘u bilig” dostonidagi O‘zg‘urmish bilan O‘gdulmish suhbatini yodga soladi: “Sening bug‘doy noningdan mening arpa nonim shirin; bir dona somonni ko‘tarsa, charchaydigan odam tog‘dek yukni ko‘tarishni qanday zimmasiga olsin? Sen ko‘p yeguvchisan, men kam yeymen. Juhon oldingda shay misoli surfa, Har qancha yesang-da, to‘ymaysan sira. Issiqda ham, sovuqda ham korimga yaraydigan bir jandam bor. Sening ustingda to‘nlaring qavat-qavat...”

Suqrot har jihatdan komil pir va ustod sifatida shohga maslahatlar beradi. Iskandarga o‘zi yasatgan ko‘zguga hech qachon zang qo‘ndirmasligini uqtiradi. So‘ngra turli xil diniy va dunyoviy masalalarda savol-javoblar bo‘lib o‘tadi. “Achchiqlanma, magar gapirdim achchiq, Aytarimni shirin aytmadim ortiq. Kuyik qalbim meni tark etmish edi, Sayr etgali samoga ketmish edi. Osmondin zaminga qaytdi bu ko‘ngil, U yoqdin senga deb keltirgani shul...”, - deydi Suqrot suhbat so‘ngida. Shohning yuzlari yorishib ketadi, chunki Suqrot shohga Yaratgandan vahiy olib kelgandi. Shoh saroyga qaytadi va Suqrotning nasihatlarini oltin harflar bilan qog‘ozga yozdirib qo‘yadi.⁵⁴

Nizomiy uchun ham, Navoiy uchun ham Suqrot donishmandlik, zohidlik, kamolot timsoli edi, shuning uchun har ikkala “Xamsa” da Suqrot obrazi Iskandar va Farhodning ustozи, piri qilib tasvirlangan.

⁵⁴ Nizomiy Ganjaviy.(2017). Iqbolnomi. – T.: Extremum – press, 112-125- b.

Nizomiy Iskandarga rahnamo qilib zohid Suqrotni tanlar ekan, tarixiy Suqrotning zohidona hayoti va bashoratchilik qobiliyatiga asoslangani shubhasiz. Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida esa Suqrot Iskandarning dengiz safariga boshchilik qiladi. Hakimlar dengiz ilmi juda murakkab bo‘lgani uchun hikmat ahlining ustozি bo‘lgan Suqrotni yo‘lboshchi qilishni va uning fikrlariga quloq tutishni maslahat beradilar. Ikkinchi safarning so‘ngida Iskandar qalbi poklanib, dengiz tubidagi mo‘jijalarni pardasiz ko‘ra olish darajasiga, payg‘ambarlik maqomiga erishadi.

“Farhod va Shirin” dostonida Suqrot aqlga o‘xshatilgan, chunki tarixiy Suqrotning e’tiroficha, aql inson ongi mazmunini belgilab beruvchi oliy instansiyadir. Aql- turli bilimlarni vujudga keltiruvchi manba. Bilim tashqaridan tayyor holda qabul qilinmaydi, inson uni o‘zining xatti-harakati bilan qo‘lga kiritadi. Bahs-munozaralar jarayonida inson suhbatdoshining fikrlarini tahlil qiladi, zarurlarini o‘zida saqlab qoladi, ortiqchasini chiqarib tashlaydi. Shunday yo‘l bilan haqiqatga erishiladi. Suqrot shogirdlarini munozaraga chorlab, bu bahslardagi o‘zining rolini “doya ayol”ga o‘xshatgan ekan. “Farhod va Shirin”da ham Suqrot dostondagi voqealarni boshqarib turadigan (“doyalik qiladigan”), asarni usiz tasavvur qilib bo‘lmaydigan obrazdir. Navoiy Suqrotni quyosh kabi porloq siymo, jismi pok, ruhi toza shaxs sifatida ko’rsatadi. U kamolot cho’qqisini egallagan komil inson, o’zi bir joyda o’tirsa ham ruhi butun dunyoni kezib chiqadi. Jamshid jomi, Iskandar ko‘zgusi ham uning ko‘ngil ko‘zgusi oldida xira. U Farhod bilan bo‘lgan suhbatda uni xuddi o‘z farzandiday ko‘radi, chunki bu yigit timsolida u o‘z sulukining (yo‘lining) davomchisiini ko‘rgan edi. Suqrot Farhodga shunday deydi:

*Muni bilkum,jahon foniydur asru,
Haqiqat ahli zindoniydur asru.
Agar topsang Iskandar mulki zoting,
Gar o’lsa Nuh umricha hayoting.⁵⁵*

Bu baytda Navoiy Suqrot tilidan tasavvufning muhim g‘oyasini bayon etadi, ya’ni bu dunyo o‘tkinchi, foniydir, shu sababli unga ko‘ngil bog‘lash to‘’ri emas. Haqqa yetishish yo‘li ikki qadam masofadek gap, lekin bu ikki qadamni bosib o‘tish uchun ming yillik mashaqqat sarflanishi kerak. N. Komilovning yozishicha, Suqrot piri komil timsoli bo‘lib, usiz Farhod o‘z maqsadiga erishishi mumkin emas edi. Farhod

⁵⁵ Navoiy Alisher. ”Farhod va Shirin”. MAT, 20 jildlik ,8-jild-T.:1991. 179-180- b

Suqrot oldiga borishda tariqat maqomlarini bosib o'tadi. Piri komil suhbatidan bahramand bo'lib, ilohiy ishqning mohiyatini anglay boshlaydi. Chin mamlakatiga qaytib borib, ko'zguda endi nafaqat Shirinni, balki o'zini va o'zi kelgusida boshidan kechirishi kerak bo'lgan voqealarni ko'ra boshlaydi, chunki ko'zgu bu o'rinda komil insonning - Suqrotning qalbidir.⁵⁶ Suqrot ta'kidlaganidek, Farhod o'zini anglashni, ichidagi "men"ini, ya'ni dardini tushunishni o'rganadi. Shubhasiz, Nizomiy an'analarining izdoshi bo'lgan Alisher Navoiy Suqrot obrazini takomiliga yetkazdi, uning misolida tariqatda piri komil qanday bo'lishi kerakligini zamondoshlariga namuna qilib ko'rsatdi.

Afsuski, Alisher Navoiy "Xamsa"sida avliyo, piri komil sifatida ulug'langan tarixiy Suqrotning falsafiy-axloqiy qarashlari zamondoshlari tomonidan noto'g'ri talqin qilingan. D.N.Vorobyov "Сократ как пророк. Архаические черты ксенофонто-платоновского образа Сократа" maqolasida maha shu masalaga to'xtalib, qadimgi yunonlarning diniy qarashlari va udumlariga tayangan holda, Platon va Ksenofont tasvirlagan Suqrot obrazining ayrim chizgilariga tanqidiy munosabatini bildiradi. Olimning ta'kidlashicha, Suqrot ilohiy ishq haqida ko'p narsalarni biladigan va tog'ridan to'g'ri yuqori kuchlardan bilim olgan, ular tomonidan ilhomlantirilgan, folbin, tabib, shoir, diniy va siyosiy ekspert vazifalarini o'zida mujassam etgan yunon donishmandlaridan biri bo'lgan.⁵⁷

Ma'lumki, qadimgi yunon dinida g'ayritabiiy kuchlar tomonidan yuborilgan belgilarni talqin qilish san'ati *mantika*, keyinroq *fol ochish* deb nomlangan. Yunonlar xudolarga va mantikaga sajda qilish marosimini boshqaruvchi mutaxassislarini mantislar deb atashgan. Ko'pincha mantis bir vaqtning o'zida ham payg'ambar, ham tabib-shifokor bo'lgan. Qadimgi yunon dinida payg'ambar Xudoning irodasini tushunish va talqin qilishga qodir bo'lgan shaxs hisoblangan. U odamlarga mo'jizalar orqali bildirilgan. Payg'ambar Haq ovozini eshita olgan; undan ilhomlangan, ya'ni jazbaga tushgan; odamlarga oliy bilim zarralarini Xudoning irodasini o'zida mujassam etgan tushunarli shakllarda taqdim etish qobiliyatiga ega bo'lgan.

Suqrot haqidagi ilmiy va badiiy asarlarda mantis Suqrotga xos "ilohiy ovoz"ga ("ichki ovoz", "iblis ovozi"ga) urg'u beriladi. Bundan tashqari, diniy marosimlarda Suqrotning trans holatiga tushib qolganligi

⁵⁶ Komilov N.(2009). Tasavvuf.- T.: Movarounnahr-O'zbekiston, 186- b.

⁵⁷ Воробьев Д.Н. (2017). Сократ как пророк. Архаические черты ксенофонто-платоновского образа Сократа, Философская мысль, № 11, стр 49.

haqida ham ma'lumotlar mavjud. Ksenofont tasvirlagan Suqrot taqvodor va hurmatli fuqaro: u uyda va davlat qurbongohlarida qurbanlik qilishning belgilangan marosimlarini bajargan, ilohiy alomat va vahiylargan ishongan, ularga amal qilgan. U insonlarga biror narsa qilishni emas, balki biror narsani qilmaslikni oldindan bashorat qilgan va nasihatlariga amal qilmaganlar qiyin ahvolda qolganlar. Platon ham Suqrotning boshqa dunyo kuchlari bilan o'zaro ta'sirini mantika jarayoni bilan bog'lab tasvirlaydi. Platonning Suqroti butun yil davomida yalangoyoq, bitta kiyimda yuradi. Uni bu dunyo boyliklari qiziqtirmaydi, oddiy, zohidona hayot kechiradi. O'z hayotida ilohiy irodaning doimiy mavjudligini his qiladi. Uning uchun har kuni "yaxshilik" va "yomonlik", "mehribonlik" va "komil axloq" mavzusida bahs-munozaraga kirishish Xudoga xizmat qilishni, odamlarga haqiqatni ko'rsatishni anglatadi. Afsuski, zamondoshlari tomonidan Suqrotning mantis sifatida e'tirof etilishi buyuk faylasufning fojiali o'limiga sabab bo'ldi. Suqrot xudo bilan hisoblashmaslikda, qandaydir yangi xudoni joriy etmoqchi ekanlikda va o'zining bunday qarashlari bilan minglab yoshlarni o'z ota-onalari gaplariga qulq solmaydigan qilib qo'yganlikda ayblangan va odamlar axloqini "buzgani" uchun o'lim jazosiga hukm qilingan.⁵⁸

Aslida Suqrotni payg'ambar-mantis sifatida talqin qilish to'g'ri edimi? Nega hikmat ilmining bilimdonlarini e'zozlagan Sharq Suqrotni payg'ambar deb tan olmadi? Payg'ambar so'zi forscha bo'lib, "payg'om"- xabar, "bar" yetkazuvchi demakdir. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Islom tarixi" kitobida shunday yozadilar: "Hozirda arab tilidan boshqa tillarda arabiyl "nubuvvat" va "risolat" so'zleri o'rniiga bir so'z, ya'ni "payg'ambarlik" degan so'z ishlataladigan bo'lib qolgan. Aslida Alloh taolo Qur'oni Karim uchun ixtiyor qilgan arab tilidagi bu ikki so'zning o'ziga xos daqiq ma'nolari bor". Bular quyidagilardir: 1) rasul o'ziga kelgan payg'ambarlikni o'zgalarga yetkazishga amr qilingan, nabiy esa bunga amr qilinmagan. U payg'ambarlikni boshqalarga yetkazadimi, yetkazmaydimi – baribir; 2) rasul farishtalardan ham, insonlardan ham bo'laveradi. Nabiylik faqat insonlarga xosdir; 3) rasul yangi shariat bilan keladi. Nabiy esa yangi shariat bilan kelmay, oldingi shariatga ko'ra amal qiladi va uni o'zgalarga yetkazadi. 4) Alloh taolo payg'ambarlar yuborish bilan birga,

⁵⁸ Воробьев Д.Н. Сократ как пророк. Архаические черты ксенофонто-платоновского образа Сократ, Философская мысль, № 11, 2017. стр 47-57

bandalarni o'sha zotga iymon keltirish va ularga ergashishga amr qilgan. Iloji bo'lsa, "rasul"ni "payg'ambar" deb tarjima qilsak ham, "nabiy"ni tarjima qilmay, o'z o'rnida qoldirganimiz ma'qul bo'ladi, deb ta'kidlaydi Shayx hazratlari.⁵⁹

Xulosa shuki, m.o.V asrda yashagan Suqrot payg'ambar-mantis (rasul) bo'lмаган, rasullikni ham da'vo qilmagan. Undagi "ichki ovoz" nabiylilik, avliyolik iqtidori edi. Bu iqtidorning missiyasi, Nizomiy va Navoiy to'g'ri ta'kidlaganidek, bilim orqali komil insonlarni tarbiyalashga qaratilgan edi.

2-fasl:

**"Ko'ngil bermish so'zumga turk jon ham,
Ne yolg'uz turk, balkim turkmon ham..."**

⁵⁹ Шайх Мұхаммад Содик Мұхаммад Юсуф. Ислом тарихи. 1-жуз - Т.: "Hilol-Nashr", 2018. 163-165 б.

LAMI'I MAHMUD CHALABIYNING ALISHER NAVOIYGA TATABBU' DOSTONI

Turk adabiyotiga Navoiyning ta'siri haqida so‘z ketganda bursalik Lami'i Mahmud Chalabiyning 1512-yilda yaratgan “Farhod-u Shirin” yoki “Farhodnama” dostonini eslamaslikning ilojisi yoq. Firdavsiy tomonidan yozma adabiyotga olib kirilgan Xusrav va Shirin qissasiga qiziqish fors va turkiy adabiyotda shu mavzuda ko‘plab dostonlarning va tarjimalarning yaratilishiga sabab bo‘ldi. Nizomiy Ganjaviy bu sevgi qissasini o‘z tafakkuri va fantaziyasi bilan boyitib, uni badiiylikning eng yuqori cho‘qqisiga olib chiqsa oldi. Hech kimning yo‘lidan yurmaslikka ahd qilgan Alisher Navoiy majoziy ishq qissasini ilohiy ishq qissasiga aylantirib, salaflari Nizomiy, Dehlaviy va Orif Ardabiliy asarlaridan keskin farq qiluvchi go‘zal bir masnaviyni yaratdi. Voqealar va qahramonlarning rolini o‘zgartirib, sujetni folklor va diniy motivlar bilan boyitib, oldiga qo‘ygan maqsadni muvaffaqiyatli amalga oshirdi.

Lami'i Chalabiyning “Farhod-u Shirin” dostoni qisman bo‘lsa-da Navoiyning mashhur asari tarjimasidir. Shoir Navoiyga murojaat qilar ekan, o‘z iste’dodini zamondoshlariga to‘laqonli ko‘rsata olish imkoniga ega bo‘ldi, chunki Navoiyday ustozning asarini tarjima qilish u bilan bellashish degani ham edi.

Lami'i ijodiga munosabat o‘z zamonasidayoq turlicha bo‘lgan. Lami'i XVI asr boshida fors adabiyotidan tarjima qilgan masnaviyatlari va nasriy asarlari bilan mashhur edi. U boshqa tarjimonlardan farqli o‘laroq, hali hech kim tarjima qilmagan, o‘quvchilar auditoriyasiga kirib bormagan asarlarga qo‘l urdi. Shuningdek, tasavvufiy qarashlarni targ‘ib qiluvchi diniy asarlar yozib, zamondoshlariga tasavvufni sevdirishga harakat qildi. Turk devon adabiyotini yangi mavzular bilan boyitdi. Uning “Farhod-u Shirin” asari yuzasidan Hasan Ali Esir doktorlik (1998) va Abdulqodir Erkal (1998) nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Go‘nul Ayan esa Lami'i asarlari qo‘lyozmalari bibliografiyasini tuzib, adibning shu kungacha topilgan va topilmagan asarlari haqida to‘liq ma’lumot berdi.⁶⁰ Agah Sirri Levend, Hasan Ali Esir, Hamit Bilen Burmaog‘lu, Abdulqodir Erkal kabi olimlar “Fehad-u Shirin” dostonini erkin tarjima deb hisoblasalar, Go‘nul Ayan unga “o‘xhatma asar”, ya’ni “tatabbu’ asar” deb baho bergen.

⁶⁰ Ayan, Gönül. (1994). *Lami'i Çelebi'nin hayatı, edebi kişiliği ve eserleri*. Turkiyat arastirmalari dergisi, Sayi:1, Kasim. S.49-65.

Biz ushbu maqolada ikki asarni qiyosiy o‘rganib, bu masalaga aniqlik kiritishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ydi.

Lami’i Chalabiy hayoti va ijodi. XVI asrda yashagan turk mumtoz she’riyatining yirik vakillaridan biri shoir Lami’i Chalabiyning asl ismi Mahmud bin Osman bin Naqqosh Ali bin Ilyosdir. Otasi Osman Chalabiy Sulton Boyazidning daftardorligini qilgan. Bobosi Naqqosh Ali Bursali bo‘lib, Amir Temur tomonidan Movarounnahrga olib kelingan, bu yerda samarqandlik ustalardan naqqoshlik san’atini mukammal o‘rganib, yana vatani Bursaga qaytgan. Osman Chelebiy va Dilshod Xotunning nikohidan 1475-yilda Lami’i Mahmud Chalabiy dunyoga kelgan.

Shoir hayotini ikki davrga: madrasa va takka davrlariga ajratish mumkin. Mahmud Murodiya madrasasining mudarrislari, zamonasining buyuk olimlari bo‘lgan Mulla Ehaveyn va Mulla Muhammad bin Hoji Hasanzodalardan tafsir, hadis va fikh ilmlarini o‘rganadi, zamonasining barcha ilmlaridan voqif bo‘ladi, arab va fors tillarini mustaqil ravishda mukammal o‘zlashtiradi. ”Tazkira-i Latifiy”da qayd etilganidek,” ...mo‘tabar kitoblarni tarjima qilishda ustod-i jahon va kasrat-i madde va ma’lumotda daryo-yi fazl u irfan” darajasiga yetadi

Lami’ining naqshbandiylik tariqatiga e’tiqodini ikki sabab bilan izohlash mumkin: 1) Bursada yashab, shuhrat taratgan Amir Buxoriy bilan yaqinligi, unga bo‘lgan cheksiz hurmati; 2) ustozlari Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiyarning ayni shu tariqatga mansubligidir. Lami’i - tariqatda shayxlik maqomiga erishgan mutassavuf shoir, shu sababli uning har bir asarida tasavvufning izlarini ko‘rish mumkin.

Lami’i Chalabiy Humo Xotun bilan turmush quradi; Mehmed, Ahmed, Abdulloh ismli uch o‘g‘li va Safiye ismli bir qizi dunyoga keladi. O‘g‘illaridan Dervish Mehmed Chelebiy otasining izidan borib, ”Bahr ul-avzon” nomli aruz ilmiga bag‘ishlangan risola yaratgan.

Lami’i Chalabiy umri davomida saroydagi biror vazifada ishlagagan, poytaxtdan ancha olisda - Bursada yashashiga qaramay podshohlarning, vazirlarning hurmatini qozongan. Kitoblari va tarjimalarini ularga taqdim etib, katta-katta ehsonlar olgan. Masalan, ”Farhodnama” asarini Yovuz Sulton Salimga taqdim qilgan. Yovuz Sulton Salim asarni yuksak qadrlab, shoirga Bursadagi bir qishloqni hadya qilgan ekan. Fattoh Nishaburiyning ”Husn va Dil” masnaviysi uchun esa 35 aqcha, Jurjoniyning ”Vis va Ramin”ining tarjimasi uchun Ibrohim Poshodan 20 aqcha; Unsuriyning ”Vomiq va Uzro”

masnaviysini tarjima qilib Qonuniy Sulton Sulaymondan 4000 aqcha olganligi tarixiy manba'larda qayd etilgan.⁶¹

Lami'ining vafoti sanasi tazkiralarda hijriy 938 (M.1532), faqat Oshiq Chalabiy tazkirasida hijriy 940 (M.1534)- yil deb ko'rsatilgan.

Lami'i Chalabiy ijodi. Lami'i Chalabiy butun hayotini ijod qilish, o'qib-o'rganishga bag'ishlagan ko'p qirrali ijodkor edi. Latifiy "Tazkirayi Latifiy" asarida shoir ijodiga yuksak baho berib, uni "bu davr shuarosindan va shuaronun fuzalosindandur" deya ulug'lagan. Oshiq Chalabiy esa Lami'ining she'r va nasrda ustozlik darajasiga erishganini ta'kidlab, shunday yozadi: "bil-jumla she'r va inshoning ustodidir. Jomiyning asarlarini ko'p tarjima qilgani uchun Jomiyi Rum derlardi". Haqiqatan, Lami'i Chalabiy "Onadolu Jomisi" nomi bilan mashhur bo'lgan. Turk olimi Go'nul Ayanning ta'kidlashicha, Lami'i Chalabiyning bunday nom bilan atalishiga Abdurahmon Jomiyidan qilgan tarjimalarini sabab qilib ko'rsatish yetarli emas. Naqshbandiylik tariqatining ustunlaridan biri bo'lgan Abdurahmon Jomiy (1414-1492) bu sohada ham juda ko'p va foydali asarlar yaratgan. Lami'i ham Jomiy kabi barakali ijod qilgani uchun bunday nomga loyiq ko'rilgan bo'lsa kerak.

Hasan Chalabiy esa o'z tazkirasida Lami'iga shunday ta'rif bergan: "olami she'r-u inshoning mehr-i sati'i va zamonasinda samoyi balog'atin najm-i saqib va badri lami'idir"⁶²

Mukkammal devon tuzgan shoir Lami'i "Debocha" da nazmnинг nasrdan ustunligi, she'r va shoirlik haqida fikr yuritib, maqsadi xalqqa kitob o'qitish, o'rgatish va ta'lim-tarbiya berish - qalblarga ma'rifat nurlarini olib kirish ekanini ta'kidlagan. Lami'i Chalabiy bir emas, ikkita "Xamsa" yozgan shoir sifatida tanildi. Bizgacha uning 46 ta asari yetib kelgan. Ularning aksariyati tarjima asarlar bo'lib, Eron adabiyotidan turk adabiyotiga "yangi havo olib kirishni istagan" va buni uddalagan, Vis va Ramin, Vomiq va Uzro, Salomon va Absol kabi yangi mavzularini turk o'quvchisiga tanishtirgan birinchi raqamli tarjimon sifatida tarixda qoldi.

Lami'i nasrda ham shuhrat qozongan. Uning diniy va tasavvifiy asarlari ichida siyar va manoqibnomalar muhim o'rin tutadi. Maktublaridan namunalar to'plab, "Munshaot" tuzgan. Hayoti davomida to'plagan latifa va rivoyatlarni "Latoifnoma" nomi bilan e'lon qilgan.

⁶¹ Ipekten, Haluk. (1996). *Divan Edebiyatında Edebi Muhitler*, Milli Egitim Bak.Yay. Istanbul.; s. 77.

⁶² Ayan G., 1994;s. 18.

Lami’i Chalabiy asarlari. Bursalik Lami’i Chalabiy XVI asrning eng sermahsul ijodkorlaridan biri edi. Go‘nul Ayanning ta’kidlashicha, nazm, nasrda yaratgan badiiy, diniy va tarjima asarlarining soni 46 ta bo‘lib, ayrimlari bizgacha yetib kelmagan.⁶³

Abdulkadir Erkalning Lami’i Chalabiyning “Farhod va Shirin” tarjimasiga bag‘ishlangan yuksek lisans tezida bu asarlarning alfavit tartibidagi ro‘yxati keltirilgan (qavs ichidagi izohlar maqola muallifiga tegishli):

1. “Absal - u Salaman” (Jomiydan tarjima)
2. “Jabir-name”
3. “Divan ve Dibaje”
4. “Ferhad-name” yoki “Ferhad u Shirin” (Alisher Navoiyga o‘xshatma)
5. “Fetih-name-i kal’a-i Moton”
6. “Feza’il-i shi’r – u sha’iran” yoki “Dibaje”
7. “Firak-name”
8. “Futuhu'l-mujahidin li-tervihi kulubi'i-Mushahidin”(Jomiyning “Nafohat ul-uns” tazllkirasingning erkin tarjimasi)
9. “Gida'u'r-ruh”
10. “Hayret-name”
11. “Heft - peyker” (Nizomiydan tarjima)
12. “Xired - name” (Jomiydan tarjima)
13. “Husn u Dil” (Fettahiydan tarjima)
14. “Istilahat-i Sufiyye”
15. “Ibret - name”
16. “Guy u chevgan” (Arifiydan tarjima)
17. “Leta’if-name”
18. “Lug‘at-i Farisiyye”
19. “Maktel-i Huseyn”
20. “Menkibe-i Uveys-i Karaniy”
21. “Mesleku's-salikin”
22. “Menakib-i jenabi Ali”
23. “Mesnaviy”
24. “Mevlid” (“Mevlidu'r-Rasul”)
25. “Miftahu'n-nejat fi havassi's-suveri ve'l-ayat”

⁶³ Ayan G.,1994; s.49

26. “Mir’atu'l-esma ve jam-i Jihan-numa” yoki “Risale-i mu’amma terjumesi” (Mir Husayn Nishobiriydan tarjima)
27. “Munazara-i Bahar -u Shita” yoki “Bahar-u Hazan”
28. “Munsheat”
29. “Nefsu'l-Emr risalesi”
30. “Nisabu'l-belag‘a”
31. “Rijalu'l-g‘ayb”
32. “Risale fi sherhi Kelimati'sh-Shehade”
33. “Risale-i fal”
34. “Risale-i aruz”
35. “Risale-i usul mine'l-funuz”
36. “Risale-i Tasavvuf”
37. “Resa'il”
38. “Shem - u pervane” (Ehli-i Shiraziydan tarjima)
39. “Shehrengiz” yoki “Shehr-engiz-i Bursa”
40. “Sherefu'l-insan”
41. “Sherh-i dibaje-i Gulistan” (Sa'diy Sheraziydan tarjima)
42. “Shevahidu'n-Nubuvve terjumesi” (Jomiyidan tarjima)
43. “Tuhfe-i Lami'i” yoki “Lug‘at-i manzume”
44. “Vamik – u Azra” yoki “Kissa-i Vamik u Azra” (Unsuriydan tarjima)
45. “Vis –u Ramin” yoki “Veys - u Ramin” (Faxriddin Jurjoniydan tarjima)
46. “Kissa-i Edhem –u Huma”⁶⁴

Lami'ining “Farhod va Shirin” masnaviysi. XVI asr turk adiblari fors adabiyotidan asosan an'anaviy mavzudagi asarlarni ko'plab tarjimalar qilayotgan paytda Lami'i yangi mavzularga qo'l urdi. Tarjimalarining asosiy qismi turk adabiyotida yagonaligi bilan ahamiyatlidir. Asarlarni so'zma-so'z emas, ijodiy tarjima qilib, o'z xayolot dunyosi bilan boyitgan, asl manbadan farqli matnlar yaratgan. Masalan, Orifiyning “Go'y va chavgon” masnaviysi asliyatda 500 baytdan iborat bo'lsa, Lami'i tarjimasida esa 1893 baytga yetgan.

“Farhod va Shirin” masnaviysining muqaddimasida otasining vafotidan keyin boshiga ko'p qiyinchiliklar tushganini yozib, valiylik vazifasida yangi ish boshlagan Jamoliddin Mehmed Shoh haqida to'xtaladi. Valiy tasodifan qo'liga tushib qolgan Navoiyning “Farhod va

⁶⁴ Erkal, Abdulkadir. (1998). *Lâmi'î Çelebi. Ferhad u Şirin (FERHADNAME)*. İnceleme – Metin. Yüksek lisans tezi, Erzurum; s.5-6.

“Shirin” dostoni bilan qiziqib qoladi, asar juda yoqqani uchun shoirdan uni Onadolu turkchasiga tarjima qilib berishini iltimos qiladi. Lami’i avval bunday buyuk asarni tarjima qilishga ojizlik qilishini aytadi, lekin Valiy Lami’ining fors tilidan qilgan go‘zal tarjimalaridan so‘z ochganidan keyin, bu taklifni qabul qilishga majbur bo‘ladi.

Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida tasavvufning barcha bosqichlari, qonun – qoidalari, talablari badiiy aks etgani uchun asarni o‘z ona tiliga o‘girishga qaror qiladi. O‘zining “Farhod-u Shirin” masnaviysida ishq haqiqiy bilan ishq majoziy qiyosiga katta o‘rin berdi. Asar oxirida buyuk sarkarda Bahromning taxtni tark etib, tariqatga kirishi, Shayx Shem’unning etagini tutishini tasvirlash orqali “haqiqiy ishq Ollohdir“ degan g‘oyani ilgari surdi. Bosh qahramon Farhodga majoziy ishqdan ilohiy ishqqa intilish jarayoni, o‘zining kimligini bilish uchun qiyinchiliklarni yengib o‘tgan solik timsoli sifatida qaradi.

Lami’i Navoiyning asaridagi voqealar ketma-ketligini saqlagan holda, uslubni o‘zgartirib, hikoyani yangi shaklda so‘zlab berdi. Navoiyning asari Farhodning tug‘ilishidan vafotigacha bo‘lgan voqealarga bag‘ishlangani uchun uni “Farhodnoma”deb ham atadi. Har ikkala asarning muqoyasasi Lami’i dostonining Navoiy dostonining aynan tarjimasi emasligini ko‘rsatadi. Mazmunni yangi ma’lumotlar bilan to‘ldirish, ba’zi hodisalarining o‘rnini o‘zgartirib, yetarsiz deb hisoblagan holatlar tasvirini to‘ldirish, ortiqcha deb bilganlarini qisqartirib bayon qilish holatlari kuzatiladi. Masnaviy orasiga lirik parchalarning kiritilishi uning Navoiy asaridan faqat mazmun jihatidan emas, shakl jihatidan orginallik kasb etuvchi asar yaratganini ko‘rsatadi. Farqlarni quyidagicha guruhash mumkin:

1) tarjima asarning kompozitsion qurilishidagi farqlar;

2) sujetdagi farqlar;

3) tarjima jarayonida matnni qisqartirish yoki o‘zgartirish bilan bog‘liq farqlar.

Lami’i dostonining kompozitsion qurilishi. Navoiyning “Farhod va Shirin”i 54 bob 5782 baytdan iborat. Muqaddima qismi 11 bobni o‘z ichiga oladi. Lami’i dostoni esa 5043 baytdan tashkil topgan. Lami’i asarning 16 bobdan iborat muqaddima qismini Navoiydan tarjima qilmagan, o‘zi mustaqil yaratgan. Navoiyda asosiy voqealar 12- bobdan boshlansa, Lami’ida 17-bobdan boshlanadi. Muqaddimalarning boblar bo‘yicha farqi quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan:

Navoiy dostonining muqaddimasi

Lami’i dostonining muqaddimasi

1. Hamd	1. Münacâ'at
2. Hamd	2. Tevhîd (Besmelenin açıklanması)
3. Munojot	3. Na't (kaside)
4. Na't	4. Tevhîd
5. Me'roj tuni ta'rifi	5. Kasîde-i Kelime-i Tevhîd
6. Qalam ta'rifi	6. Fenâ-yı tevhide vasıl olmak
7. Abdurahmon Jomiy ta'rifi	7. Na't
8. Dostonning yozilish sababi	8. Dört Halifenin Medhi
9. Hech kimnikiga o'xshamagan doston yozish niyati	9. Na't (kaside)
10. Husayn Boyqaro ta'rifi	10. Mirâciye
11. Shahzoda Badiuzzamon ta'rifi	11. Emir Buhâriye Medhiye
	12. Sebeb-i Telif
	13. Yavuz Sultan Selime Medhiye
	14. Yavuz Sultan Selime Medhiye (kaside)
	15. Yavuz Sultan Selime Medhiye
	16. Kânûnî Sultan Süleymana Medhiye

Navoiy dostonining xotimasi ikki bobdan iborat bo'lib, ularda Sulton Husayn Boyqaroning o'g'li shahzoda Abulfavoris Shohg'arib mirzo madhi, unga bag'ishlangan bir necha nasihatlar (53-bob) va Farhod timsoli barcha temuriy shahzodalariga ibrat va o'rnak qilib yaratilgani (54-bob) tasvirlangan. Lami'ining dostonidagi bir bobdan iborat xulosa ham tarjima emas: u Ollohga hamd va payg'ambarga salavot bilan boshlanadi, keyin asarning 16 oyda tarjima qilingani, mehnatining muxlislar tomonidan munosib taqdirlanishini orzu qilishi bayon qilinadi.

Lami'i Chalabiyning sujetga kiritgan yangiliklari quyidagilardan iborat:

1. Mehinbonu Farhod sharafiga uyushtirgan ziyofatda majlisni parda ortidan kuzatib o'tirgan Shirin, Farhod o'qigan g'azalni eshitib, ortiq sabri yetmay ichkariga kiradi. Farhodga qo'lidagi mayni tutib, uning ishqini uchun ichishini so'raydi. Farhod qo'lida may tutgancha bir tarji'bandni o'qiydi. Navoiyda esa Shirin Mehinbonu chaqirganidan keyingina ziyofatga qo'shiladi. Tarji'band o'qish lavhasi berilmagan.

2. Xusrav Farhodni osishga buyuradi va uni dor tikilgan qatlgohga jo'natgach, vijdon azobida qoladi. Muvaffaqiyatsizlikka uchrashdan qo'rqib, vazirining tavsiyasiga qulq tutib, Farhodni ostirishdan voz

kechadi, uni qal’adagi zindonga tashlattiradi. Navoiyda Xusrav vijdon azobida qolgani uchun emas, xalqning g‘azabidan qo‘rqib, buyrug‘ini bekor qiladi.

3. Pulga sotilgan makkora kampir Mehinbonuning Xusrav bilan yarashganini, Xusravning qal’aga kirganini va Shirinning Xusravga oshiq bo‘lganini so‘zlab beradi. Navoiyda esa Shirinning o‘zini o‘ldirgani haqidagi xabarni yetkazadi.

4. Farhodni qutqarish uchun Chindan armanzaminga kelgan Bahromning asli kim ekanligi aniq aytilmagan, faqat Mulkoroning vafot etgani, o‘rniga Bahrom o‘tirgani aytiladi. Navoiyda Bahrom vazirning o‘g‘li, mohir sarkarda va Farhodning ko‘kaldoshi hisoblanadi. Xoqon vafot etgach, taxtga Bahrom emas, Chin xoqonining ukasi o‘tiradi.

5. Bahrom arman yurtiga kelishi bilan Shopurni Sheruyaning oldiga yuborib, Xusravning arman xalqiga yetkazgan zararni to‘lashni talab qiladi. Navoiyda Bahrom Sheruyani yoniga chaqirtiradi. Sheruya otasi tarafidan yetkazilgan zararlarning barchasini to‘lab, Madoyinga qaytib ketadi.

6. Bahrom Shopurni armanzaminga hokim qilib tayinlaydi. Navoiyda Bahrom Mehinbonu oilasidan munosibini tanlab taxtga o‘tqizadi.

7. Asarning oxirida Bahrom dunyo ne’matlaridan voz kechib, Rohib Sham’unga murid tushadi. Unga tushini so‘zlab beradi. Rohib Sham’un Qur’ondan oyatlar keltirib, tushni uzundan-uzoq izohlab beradi. Rohib Sham’un insonning, hattoki butun borliqning bir ro‘yo ekanligini, bugun bor bo‘lgan narsaning ertaga yo‘q bo‘lishi, yagona haqiqat faqat Olloh ekanini Farhodning taqdiri bilan bog‘lab tushuntirishga harakat qiladi. Lami’ining asari tush ta’biri bilan o‘z nihoyasiga yetadi. Navoiyda Bahrom Farhodning qabri tepasiga keladi. Shopur bilan birga maqbarada mujovirlik qiladi.

8. Farhod tarafidan o‘qilgan 10 ta g‘azal Navoiyda yo‘q.⁶⁵

Ko‘rinib turganidek, mavzu yuzasidan olib qarasak, ikki masnaviy o‘rtasida kuchli farq yo‘q. Lami’i o‘z uslubidan kelib chiqib makon va inson tasvirlarini jonliroq tasvirlashga harakat qilgan. Voqealardan ko‘ra qahramonlarning o‘ziga xosligiga diqqatini qaratgan. Bahromning saltanatdan voz kechib, Sham’unga murid tushishi Lami’ining bu asarni yozishdan qanday maqsadni ko‘zlaganiga ishoradir.

⁶⁵ Erkal, 1998; s.14-15

Masnaviy tarkibidagi she’riy shakllar va ularning vazni. Lami’i tarjima qilish jarayonida fors adabiyotidan o’zlashgan doston ichida turli she’riy janrlardan namuna keltirish an’anasiga sodiq qoladi. O’quvchini monotonlikdan qutqarish uchun ba’zan nazm shakli bilan vaznini ham o‘zgartiradi: masnaviyga qasida, g‘azal va tarji’band kabi nazmiy shakllarni kiritadi. Ularning vaznlari ham turlicha.

Masnaviy	<i>Dostonning asosiy vazni</i>	Mafoiylun mafoiylun fauvlun
Tarji’band	Ya Rab, bu ne jam-i pur safadur, Kim aina-i Xuda-numadur.	Mafuvlu mafoiylun fauvlun
1-g‘azal	Qildi tejelli januma bir kez cemal-i do‘st, Yillar durur go‘zinde o chiravesh xayal-i do‘st	Mafuvlu foilotun mafoilun foilun
2-g‘azal	Tutalim mey go‘nul achar leb-i dilber yerine, Bize janmi virur ol buse-i shekker yerine.	Failotun failotin failotun failun
3-g‘azal	Ey mah-i husn-i janima mihrung ziya yeter, Hakim zar etmeye nazaring kimya yeter.	Foilotun foilotun foilotun foilun
4-g‘azal	Yine segirur go‘zum o nergisi shehla mi gelur, Yine achildi jihan, ol guleri’na mi gelur.	Failotun failotin failotun failun
5-g‘azal	Sunelden saki ashking bana jam-i gam-efzayi, Bugun bezm-i chihan ichre benum rusva-yi sheydayi	Mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun
6-g‘azal	Sakiya sanma sharab hushk ara anlar beni, Bezm-i ishk ichra hayal-i la’l-i yar anlar beni	Foilotun foilotun foilotun foilun
7-g‘azal	Ey pari, qan yashum ichun ins-u jan ag‘lar bana, Ajiyup derya gibi cheshmi jihan	Foilotun foilotun foilotun foilun

	ag‘lar bana	
8-g‘azal	Namaki ol jandan gelir mansur-i ikbalimdir ol Mehr-i mehri levh-i dilde naksh-i amalumdir ol	Foilotun foilotun foilotun foilun
9-g‘azal	Gun yuzun shevkile, mahum, gijedur gunduz bana, Ve nije bir talim achmaz yuz sitarim yuz bana	Foilotun foilotun foilotun foilun
10-g‘azal	G‘am-i diyarmi ya derd-i yarmi diyelim, Firak-u hasret ruj-i nigarmi diyelim	Mafoiylun mafoiylun mafoiylun foilun

Farhod tilidan o‘qilgan o‘nta g‘azal ikki xil vazifani bajaradi: 1) lirik chekinishlar sifatida o‘quvchi diqqatini hikoyadan biroz uzoqlashtirib, bosh qahramonning ruhiy olamiga olib kiradi; 2) asarni yanada ohangdor qiladi.

Vazndagi har xillikni muqaddimada ham ko‘rish mumkin. Munojot, Me’rojiya, oltita madhiya, uchta tavhid, bitta Na’t va “Sababi telih” boblari dostonning asosiy vaznida yozilgan bo‘lsa, uchta na’t qasida uch xil vaznda yozilgan.

Lami’ining tarjimonlik mahorati. Tarjimon har bir konkret asar tarjimasida nimani saqlashi, nimaning bahridan o‘tish mumkinligini bilishi lozim. Tarjimada badiiy-psixologik manzara, holat, vaziyat, tafsilotlarning asl nusxaga muvofiq bo‘lishi juda muhim hisoblanadi. Ikki asarni shakl jihatidan solishtirganimizda Lami’i voqealar zanjiridagi ona baytlarning asliyatini saqlab qolishga harakat qilganini, aynan – so‘zma-so‘z o‘girganini ko‘rishimiz mumkin.⁶⁶ Tarjimon Navoiy baytlaridagi fors tilidan o‘zlashgan so‘zlarning turkchasini berishga harakat qilgan, arabcha so‘zlarni asliday saqlab, baytlarning aynan tarjimasini amalga oshirgan. Bu baytlarning ba’zilaridan namunalar keltirib o‘tamiz:

Navoiyda:

*Sipohi yer yuzida qum hisobi ,
Ne qum gardun uza anjum hisobi.⁶⁷*

⁶⁶ Erkal A.,1998;15-17

⁶⁷ Navoiy, Alisher . Mukammal asarlar to’plami,8-tom.Xamsa. Farhod va Shirin. -T.:Fan,1991. 60-6.

Lami’i’da:

*Cerisi yir yüzünde kum hesabı
Nice kum çarhda encüm hesabı*

Navoiyda:

*Chu Xoqonning bu erdi muddaosi,
Ijobat qurbini topib duosi. (64-bet)*

Lami’i’da:

*Çü Hâkânun oğuldı müdde’âsı
İcâbetle karin oldu du’âsı*

Navoiyda:

*Yuzinda ishq asrori yozilg‘on,
Ichinda dard ta’vizi qozilg‘on. (64-bet)*

Lami’i’da:

*Tışında işk esrârı yazıkmiş
İçünde derd ta’vidi kazılmış*

Navoiyda:

*Ki qilgay to ‘rt oliv qasr bunyod,
Bo ‘lub har fasl bir qasr ichra Farhod (76-bet)*

Lami’i’da:

*Ki kila dört ala kasr bünyâd
Ola her fâsl bir kaşr içre Ferhâd*

Navoiyda:

*Laqabda biri Boniy, biri Moniy,
Muni ko ‘rgan tasavvur aylab oni. (80-bet)*

Lami’i’da:

*Lakabla biri Mâni biri Bâni
Gören buni tasavvur iyler âni*

Navoiyda:

*Chu ta’rif ettilar haddin ziyoda,
Havs qildi ko ‘rarga shahzoda. (84-bet)*

Lami’i’da:

*“Çü ta’rif itdüler haddün ziyâde
Varup görmek diledi Şâh-zâde”*

Navoiydan aynan tarjima qilinmagan baytlarning mazmunini bir baytda yoki ikki baytda o‘zgartirib ifoda etadi. Masalan, quyidagi baytni olaylik:

*Debonkim, chun jahonning yo ‘q vafosi,
Emas mahkam amal qasri asosi. (61-bet)*

Lami’i baytning ma’nosini kengaytirib ikki baytda o‘quvchiga taqdim qiladi:

*Deridi kim bu kaşr-i çarh-i ablak
Döner su üzre dün gün cün mu’allak.*

*Bu rişendür ne defiliüdür bekâsı
Ki konmuştur fena üzre binası*

Navoiyning quyidagi baytining mazmuni ham ikki baytda berilgan:

*Bu foniy dayrdin bo ‘lgach xiromim,
Kelib begonaye tutgay maqomim. (62-bet)*

Lami’i:

*Hemâ-veş bu yuvadan cün açam bâl
Geliüp yirüm tuta zağ-i siyeh-fâl*

*Kila bigâne tâc u tahtuma hükm
İde düşmen sarayı zahmete hükm*

Bunday holatlarda tarjimonning shoirlik qobiliyati ish bergenini ko‘rish mumkin.

Lami’ining tarjimonlik mahoratiga baho berish uchun Chin xoqoni ta’rifiga bag‘ishlangan XII bobni T - jadvaliga joyladik.⁶⁸ Onadolu turkchasiga aynan yoki qisman o‘zgarishlar bilan o‘girilgan baytlarni quyuq harflarda taqdim qilyapmiz. Qisqartirilgan, tarjimada tushirib qoldirilgan Navoiyning baytlari va Lami’i tarafidan ijod qilingan yangi baytlar oddiy shaklda berildi.⁶⁹

<i>Navoiyning “Farhod va Shirini”</i>	<i>Lami’ining “Farhod va Shirin’i”</i>
Bu chiniy hullag‘a bo‘lg‘on raqamkash, Yuzin bu tarh ila qildi munaqqash	Gel ey ‘arş âş-yân-ı tavus zer-bâl İrem gül destesindendür safla bâl
Ki, Chin mulkiki, rashki naqshi Chindur, Savodi g‘ayrati xuldi barindur.	Nice tâvus-ı ‘ankâ-yı cihansın Değil ‘ankâ hümâ-i lâmekânsın
Shahe erdi muazzam xoni oning, Dema xoni oning, xoqoni oning.	Hakâyık seyridür mi’râc-ı pâyun Sa’âdet tâcidur âfâka sâyun
Iki olamcha mulki vus’at ichra, Yeti garduncha taxti rif’at ichra,	Ta’âlluk kes bu cismâni kafesden Uçur fikr-i heyulayı hevesden

⁶⁸ Navoiy, 1991;55-60

⁶⁹ Erkal, 1998;99-101

**Sipohi yer yuzida qum hisobi,
Ne qum, gardun uza anjum hisobi.**

Tajammul onda Afriduncha yuz ming,
Xizona maxzani Qoruncha yuz ming.

Uluvi dargahi gardun misoli.
Qayu gardunki, andin dog'i oliy.

Mo'g'ul qullar kibi ollinda xonlar,
Bo'lub kishvardihi kishvarsitonlar

**Kafining bazli ummondin ham afzun,
Javohir sochmog'i kondin ham afzun.**

**Dema kondin, degil imkondin ortuq,
Nekim yo'q ondin ortuq, ondin ortuq.**

Zamona toqi ofoq aylab oni,
Bari xonlar aro toq aylab oni.

Aningdek fard etib charxi kuhangard
Ki, bir farzanddin ham aylabon fard.

**Mukallal mehr durri birla toji,
Aning bir o'zga durga ehtiyoji.**

**Murodi bog'i yuz guldin barumand,
Vale ul o'zga gulga orzumand.**

**Yuzidin ravshan aylab nuri kavnayn,
Anga ko'zdin uchub bir qurratul -ayn.**

Debonkim: «Chun jahoning yo'q vafosi,
Emas mahkam amal qasri asosi.

**Baqo ayvoni ko'p oliy emastur,
Havodisdin jahon xoliy emastur.**

**Kishi gar qilsa ming yil podsholiq,
Jahon mulkiga aylab kadxudoliq,**

Chu tortar oqibat jomi fanoni,

Olurken nâz-ı kudsilerle hem şayd
Ne lâyık safla olmak âb u gül kayd

Dilüfi tütileyin sükkâr beyân it
Lisân-ı ğaybe her dem tercüman it.

Fesahat ravzasının bülbülü sen
Melâhat 'arsasının düldüli sen

Düzüp efsânelerden dam u dâne
Kıl efsün-ı hakâyikdan terâne

Demünden tazelensin can-ı müştak
Nevâgile prı olsun kalb-i 'uşşak

Mesihâ dem olup can 'âleminden
Halâs itgil bizi 'âlem gamından

Yine bir şem' yak âfak içinde
Ki nûri berk ura ne tak içinde

Dahi gün gibi kılsın dehri pür-nür
Cemâli eylesin âfâkı mesrur

Gel imdi kıldı derd-i yas-ı cüsi
Sadef-veş tut bu dürre güş-ı höşî

İden tahrir bu Çin-i hariri
Bu yüzden kıldı resm-i dil-peziri

**Hitâ mülki ki hâki müşk-i Çindür
Sevâd-ı dide-i çarh-i berîndür**

**Varidi bir mu'azzam hâni anun
Dü 'âlem bende-i fermanı anun**

**Çerisi yir yüzünde kum hesâbı
Nice kum çarhda encüm hesabı**

Güneş babında hâk ile beraber
Sipihre künküri eyvanı efser

Kefinun bahri 'Ummandan ziyâde

Borur dam fahm etar birdamcha oni.

Shahekim, ko‘kka chiqqay taxtu johi,
Gadokim, taxtagiz bo‘lg‘ay panohi,

Baqo tufrog‘idin silkar zamon yeng,
Bu dog‘i ul ikisi teng durur, teng.

**Ne chekkay ko‘kka boshni tojdore
Yo‘q ersa bir dur andin yodgore.**

Valaddur ul duru, valid sadafdur,
Sadaf, ya’ni otou dur xalafdur.

**Sadaf yo‘q, bahr aro gar bo‘lmas inju,
Ani bil, bir nihoyatsiz achig‘ suv.**

**Ne achchig‘ suvki mastu vahshat oyin,
Labida kaf, yuzida mavjdin chin.**

**Chamanda sarv bas ra’no shajardur,
Yo‘q andin naf’, chunkim besamardur.**

Shajarkim juz latofat shevasi yo‘q,
O‘tun o‘rnidadur gar mevasi yo‘q.

**Yog‘indin gar bulut yetkurmasa sud,
Havoda ul hamonu bir qalin dud.**

Chaqinkim yorudi anvori oning,
Chu o‘chti, qolmadı osori oning.

Agar o‘t o‘chsa bo‘lmas g‘ussa yutmoq,
Chu axgar qoldi osondur yorutmoq.

**Men o‘ldum ul tengizkim gavhari yo‘q,
Va yo ul o‘tki oning axgari yo‘q.**

Tengiz yo‘qkim, g‘adiri vahshatangez,
Qayu ul o‘tki, yovshondin bo‘lur tez.

Bu o‘tlug‘din erur bag‘rimda dog‘im,
Qurutmosun debon davron o‘chog‘im.

Güher-pâş olmada kandan ziyâde

Nice kân hadd-i imkândan fiizün-ter
Ne takdir eylesen andan füzun-ter

Gubari kühl-i çeşm-i âsumânun
Külâh-i fahr-i fark farkadanun

Düşüp âvâze-i ‘adl-i cihâna
Irüşmişdi ‘Irak u Isfahana

Şu resme virmüşidi mülke revnak
Sipehden güç görür yayıldı ancak

Zamanında yoğdı bend ü zindan
Meğer hübânda zülfîle zenâhdan

Tirâz itmezdi kimse ceng için dest
Meğer kim ğamze-i sâki-i ser-mest

Neyi bl-dil idüp kasd u hicazı
Kılardı hân-kâhlarda niyazı

Sırışık ü nâle için eyler aheng
Hemin çeşm-i şûrâhidi dil-i çeng

Cihan bağın idelden lutf-i seyrâb
Varise âteşidi cân-i pertâb

Değildi gerçi kim dünyâ-perest ol
Veli urmuşdu her maksuda dest ol

Cihanda yoğdı göfilünde bir bend
Meğer kim ‘ukde-i ümmid-i ferzend

**Murassa’ gün cevahir birle tacı
Bir özge dürre vardı ihtiyâci**

Egerçi şahn-i bağı pür-gül idi
Veli bir şonne içün bülbül idi

**Münevver gün yüzünden cümle günin
Gözünde idi hayâl qurretu'l-ayn**

**Zihi hasratki, men yillar yutub qon,
Bo'lub Chinu Xito mulkida Xoqon.**

**Bu fonyi dayrdin bo'lg'ach xiromim,
Kelib begonaye tutqay maqomim.**

**Ayoq qo'yg'ay firoshu bistaring'a,
Ilik sung'ay sirohu kishvarimg'a.**

**Shabistonim aro orom qilg'ay,
Zamona subhi irzim shom qilg'ay.**

Manga yig'moqta yetgay mehnatu ranj,
Anga serarg'a qolq'ay maxzanu ganj.

Aodi ta'nu afsusinmu aytay,
Eranlik nangu nomusinmu aytay.

O'g'ulsizlig'din o'ldi bu shikanjim
Ki Haq daf' aylagay bu dardu ranjim.

Bu qattig' vartada ilgimni tutqay,
Ko'zumni bir xalaf birla yorutqay».

**Bu erdi muttasil guftu shunidi,
Xudoyidin o'g'ul erdi umidi.**

Bo'lub ko'z yoshidin haryon guharposh,
Guhardek ko'zga istab o'zga bir yosh.

Bu maqsudi uchun sochib diramlar,
Qilib ko'p nazrlar, aylab karamlar.

**O'g'ulsizlarni ham aylab navoliq,
Atosizlarg'a ham aylab atoliq.**

Bulardin barcha komu muddaosi
Bukim, bo'lg'ay bir o'g'ulning atosi.

**Bo'lub g'ofilki, nekim kilki taqdir
Raqam chekti, emas imkonni tag'yir.**

Kishi har muddaodakim ko'rар sud,

**Deridi kim bu kasr-ı çarh-ı ablak
Döner su üzre dün gün çün mu'allak**

**Bu rüşendür ne defilüdür bekâsı
Ki konmuştur fena üzre binası**

**Beka eyvanı ki 'âlâ degildür
Hevâdisden cihan hali degildür**

**Kişi ger kilsa bin yıl zerd-kâni
Olup bezm-i cihânumi kâm-râni**

**Fena camin içüp çün vire cani
Ser-â-ser fehm ider bir demce ani**

**Ne issı dehrün olmak tâc-dâri
Ki bir dür yok sonında yâd-ğârı**

Hilâfet revnakı olmaz halefsüz
Sipîhrün kadri yok mâh şerefsüz

**Deniz kim yokdur esdâtında Iülü
Ani bil bir nihayetsiz acı su**

**Nice su mest-dil şüride âyin
Lebinde kef yüzinde mevdenen çin**

**Çemende serv gerçi hoş şecerdür
Ne nef 'i varanun çün bî-semerdür**

**Bulut kim andan irmez 'âleme sûd
Hevû üzre anı bil âteşin düd**

**Ben oldum ol deniz kim gevheri yok
Veya şol od kim anun ahkeri yok**

**Zihi hasret ki ben yıllar yudup kan
Olam Çin-i hitam mülkine hâkân**

**Hemâ-veş bu yuvadan çün açam bâl
Gelüp yirüm tuta zağ-ı siyeh-fâl**

Kila bigâne tâc u tahtuma hükm

Yaqin ermas ani tormog‘da behbud.

Baso gavharki rangi ahmar erdi.
Ko‘rundi la’lu, tutqach axgar erdi.

Ko‘p asfar lavn soz etti zamona,
Ko‘rundi zarvaraq, erdi zabona.

Kishi komida sud ermas chu ma’lum,
Rizo avlo durur bo‘lg‘ong‘a maqsum.

**Chu Xoqonning bu erdi muddaosi,
Ijobat qurbini topib duosi.**

**Shabistonida tug‘di bir yangi oy,
Yangi oy yo‘qliki, mehri olam oroy.**

Ochildi bog‘ida bir otashin vard,
Demaykim, vard, balkim shu’lai dard.

Kiyurdi ilgiga davron niginı,
Nigin o‘rnida la’lı otashını .

**Yuzinda ishq asrori yozilg‘on,
Ichinda dard ta‘vizi qozilg‘on.**

Niginu la’l yo‘q, durri shabafro‘z,
Dema dur, gavhare – lekin jahonso‘z.

**Eshilgan rishtasi tobi vafodin,
Teshilgan bag‘ri hakkoki qazodin.**

Ko‘zida ashk selidin asarlar,
Damida oh dudidin xabarlar.

**Muhabbat nuri ollinda huvaydo,
Jamlolida vafo tug‘rosi paydo.**

Falak deb dard elining shohi oni,
Malak deb dard o‘ti ogohi oni.

Tushub ishq ahli ichra har taraf jo‘sh,
Chu tug‘di o‘tda sayr aylar Siyovush.

İde düşmen sarayı zahmete hükm

**Ayak başa şerir ü peşterüme
Elin suna sipâh uleşgerüme**

**Şebüstananum içinde ide ârâm
Gülistânnum içinde nûş ide cam**

**Bu idi muttasıl keft ü şenidi
Hüdâdan bir oğul idi umidi**

**Hüdâdan göz açıp lutf-ı ‘azime
Atalık eyleridi her yetime**

**Veli bilmezdi kim çün kilk-i takdir
Ne kim yazduysa yok imkân tağıyr**

Şeb-i habli meğer kim bir seher dem
Toğurdu ‘Isâ-yı mehri çü Meryem

Şafak âlâyişinden kilmağa pâk
Yudu nurila cismini tarâb-nâk

**Çü hâkânun oğuldı müdde’âsı
Îcâbetle kabul oldı du’âsı**

**Şeb-istânunda toğdı bir meh-i nev
Nice meh âfitâb-ı berk-perreve**

**Tışında ‘ışk esrarı yazılınuş
İçinde derd ta‘vîdi kazılmış**

**Delinmiş bağırı hekkâk-i kazadan
Bükülmüş riştesi tâb-ı vefadan**

**Muhabbet nün alnında hüveydâ
Cemâlinde vefa tuğrası peyda**

**Muhassal çün şerefden toğdı ol meh
İşiden didi zade’llahu ‘omreh**

**Ata ol dürri çün tabında görü
Sadef-veş ağzin açıp hande urdı**

Vafo xaylida g‘avg‘o shodlig‘din,
Biri-birga muborakbodlig‘din.

**Ato ul durg‘a chun nazzora qildi,
Sadafdek og‘zi kulmakdin yoyildi.**

Sochib oncha javohir olam ichra
Ki, andin bahru kon qolib g‘am ichra.

Yasab kishvarni oyin birla borchha,
Bu oyin tuhfai Chin birla borchha.

Bu yanglig‘ hukmi om aylab nadivor
«Ki, Chin mulkida bo‘lsa harne devor

Yasalsun borchha oyin birla zebo,
Tutulsun borig‘a iksinu debo.

Ne debo, borchasi sanginu dilkash,
Xito suratlari birla munaqqash».

Qilib bu nav’ ziynat birla oyin,
Tamomi Chinni suratxonai Chin.

Xaloyiq harne qilsa tergamak yo‘q,
Ne qilg‘onni yomon qilding demak yo‘q.

Tuzub bir jashnkim charxi kuhan sayr,
Aning davrida bu toqi kuhan dayr —

Aningdek ko‘rmayin bazmi Kayoni,
Yuzidin bircha ham bermay nishoni.

Falakdek xon fuzunroq anda haddin,
Quyosh qursi kibi non xud adaddin.

**Olib kishvar elining ehtiyojin,
Bag‘ishlab elga uch yilliq xirojin.**

Ulus tutmay tarabdin bir dam orom,
Vale asrab tarab tavrida andom.

Tarab g‘avg‘osin ul kishvarda chog‘lab,

Kuzisin gören gamdan hifzicün hân
Koyunlar itdi koç başına kurban

Bu resme hükm idüp kıldı nidayı
Ser-a-ser mülket-i Çin vü hitâyı

**Görüp kişişverün herd merd bacın
Başışlar halka üç yıllık haracın**

**Diyüp dilden ğam-ı dünyâya yahu
Kara kığuyı def eyler kızıl su**

**Gel ey saki kurup bezmi dil-keş
Aluma mihrlle sun câm-ı meh-veş**

**Beni Çin ehli gibi mey-perest it
Mey-i safi virüp canı mey-mest it**

Mashaqqat korvoni raxt bog‘lab.

Qilib yag‘mo xaloyiqdin garona,
Tutub aysh anda manzil jovidona.

Yuzinda kimsa chindin topmayin bahr,
Magar dashti yuzi lek ul dag‘i shahr.

**Qilib mahv el ichidin boda qayg‘u,
Qaro qayg‘uni daf’ aylab qizil suv.**

**Ketur, soqiy, chekib yirlar uchun un,
Manga to‘ydin ulush ber, jomi gulgun.**

**Meni Chin ahli yanglig‘ mayparast et,
To‘lo chiniy ayog‘lar birla mast et.**

Asliyatda bu bob 82 baytdan iborat. Lami‘i faqat 35 baytni tarjima qilib, Navoiyning 47 baytini qisqartirgan; 33 baytni o‘zidan qo‘shib, bobning hajmini 68 bayt qilib shakllantirgan. Ba’zi o‘rinlarda asl nusxa bilan tarjima o‘rtasida tafovut bor, ayrim tafsilotlar tushib qolgan yo o‘zgargan. Navoiy assosiy e’tiborni farzand tug‘ilganda Chin xoqonining qay darajada xursand bo‘lganiga qaratgan bo‘lsa, Lami‘i esa o‘quvchining diqqatini befarzand Chin xoqonining o‘taadolatpesha va boy bo‘lganiga qaratadi.

*Ochildi bog‘ida bir otashin vard,
Demaykim, vard, balkim shu ‘la-i dard.*

*Kiyurdi ilgiga davron nigini,
Nigin o‘rnida la ‘li otashini, –*

kabi Navoiyning shoh satrlari, afsuski, tarjimada o‘z aksini topmagan.

A.Navoiydagi kishining ichki ruhiy olami, qiliqlari, xattiharakatlari tasviri bilan bularning boshqa tilga qilingan tarjimalarga qanday ko‘chganligi muqoyasa qilinsa, bir-biridan farq qiladigan turlicha holat va qiyofalar namoyon bo‘ladi. Masalan XIII bobning tarjimasini asliyat bilan solishtirsak, Lami‘ining tarjima ishiga juda erkin, o‘z kuchi va iste’dodiga ishonib yondashganini ko‘ramiz. 87 baytdan iborat bobning 45 bayti Onadolu turkchasiga tarjima qilingan: 21 bayti so‘zma-so‘z, 26 bayt esa erkin o‘girilgan. Qolgan 42 bayt

qisqartirilib, o‘rniga yangi ma’lumotlarni aks ettiruvchi 46 bayt qo‘shilgan. Navoiyning Farhodi uch yoshidan ilm o‘rganib, mahzunlik dardiga o‘smirlik yoshida chalinsa, Lami’ining Farhodi avval dardga chalinadi, so‘ng uni Arastuga o‘xshagan yuzta shogirdi bor muallimning qo‘liga topshiradilar. Ibn Sinoni lol qoldiradigan maqolalar yozish darajasiga yetganda harbiy ilmlarni, she’r yozishni o‘rganishga kirishadi. Mohir kamonboz, qilichboz, gurzibon, ovchi bo‘lib yetishadi. U to‘qigan she’rlarni bulbul eshitsa, yoqasini chok qiladi. Navoiydagি Farhodning yoshi bilan bog‘liq mubolag‘ali tasvirlar tarjima qilinmagan, Lami’i shu yo‘l bilan Farhod timsolining oddiyligini, hayotiyligini ta’milagan. Navoiyda Farhodga ism qo‘yish tasviri o‘n baytda berilgan, muammo san’atining go‘zal namunalari yaratilgan⁷⁰. Lami’ida esa besh bayt bilan cheklanilgan.⁷¹

Lami’i Chalabiyning “Farhod – u Shirin” masnavisi erkin tarjimami yoki tatabbu’ asarmi? Tarjimada asl nusxaning faqat lug‘aviy mazmunini to‘kis berishga ruju qilish uning badiiy, nazmiy tabiatiga lat yetkazadi yoki, aksincha, “she’r asosida she’r yaratish”ga zo‘r berish tarjimonni muallifdan, tarjimani asliyatdan uzoqlashtirib yuboradi. Asliyat bilan tarjimaning chatishuvidan hosil bo‘lgan uchinchi adabiy – estetik voqelik ham borki, buning nomini “nazira”, “tatabbu’”, “o‘xhatma” deydilar. Tatabbu’ salaf ijodkor asarining mazmunan va shaklan yangilangan, mavzu doirasi kengaytirilgan va chuqurlashtirilgan, obraz va tasviriy vositalari yanada boyitilgan, orginallashgan namunasidir. Tatabbu’ asar ham salaf, ham xalaf ijodi haqida umumiylar xulosalar chiqarishga imkon beradigan manbadir.⁷²

Ma’lumki, Alisher Navoiyning “Xamsa”si yaratilgach, shu qadar mashhur bo‘ladiki, undagi dostonlarga tatabbu’ bog‘lash musobaqasi boshlanib ketadi. Forsiyzabon shoirlardan Xoja Shamsiddin Osafiy (1449-1517), Badriddin Hiloliy(v.1529-y.) lar Navoiyning bittadan dostoniga tatabbu’ bog‘lagan bo‘lsalar, Abdurahmon Jomiyning jiyani Abdulloh Hotifiy (1453-1520) esa Navoiyga ergashib “Xamsa” yaratadi. Bu shoirlar Navoiyning shogirdlari bo‘lib, uning homiyiligida o‘qigan, ijodiy kamolga yetgan edilar. Ular haqidagi ma’lumotlar “Majolis un-nafois”dan joy olgan.

⁷⁰Navoiy,1991; 67-b.

⁷¹ Erkal, Abdulkadir.1998. s.101.

⁷² Shamsiyeva, Zarnigor. (2021). *O‘zbek mumtoz adabiyotida tatabbu’ tarixidan.* “ Filologiya ufqlari” jurnalı , no. 6 (ноябрь 12, 2021).106-b.


Usmoniylar davlatida Navoiy dostonlariga birinchilardan bo‘lib tatabbu’ bog‘lagan shoir Lami’i Chalabiy bo‘ldi. Oradan taxminan o’ttiz yil o’tgach, 1512 - yilda Lami’i Chalabiy, buyuk ustozidan ilhomlanib, bosh qahramoni komil inson bo‘lgan turk adabiyotida birinchi "Ferhad u Shirin" ("Ferhad-name") masnaviysini yozdi. Uning tatabbu’si jamoatchilik tarafidan ijobiy kutib olindi va masnaviy eng ko‘p o‘qiladigan asarlardan biriga aylandi. Hatto, Lami’i asari asosida xalq dostonlari, ertaklar-u sahma asarlari yaratildi. Farhod turk xalqining sevimli qahramoniga aylandi.

Bizningcha, Lami’i Chalabiyning masnaviysini erkin tarjima emas, tatabbu’ asar deb baholashimizga quyidagilar asos bo‘ladi: 1) dostonning muqaddimasi 16 bobdan iborat bo‘lib (Navoiyda 11 bob), mustaqil yozilgan, Navoiydan tarjima qilinmagan; 2) Farhod tilidan o‘qiladigan tarji’band va o‘nta g‘azal Navoiy asarida uchramaydi. Ular Lami’i taxallusi bilan yozilgan; 3) har bir bobda voqealar bayoniga kichik o‘zgartirishlar kiritilgan; 4) joylar ta’rifining ishonchli va insonlar tavsifininig yanada jonli chiqishiga erishilgan, mubolag‘ali tasvirlar tarjima qilinmagan; 5) voqealar rivojidan ko‘ra, qahramonlarning ruhiy holatiga ko‘proq e’tibor qaratilgan; 6) ayrim qahramonlarning taqdiri yangicha talqin qilingan (Shopur va Bahrom); 7) sujetning oxiri tubdan o‘zgartirilgan; 8) har xil vaznda yozilgan lirik parchalarni kiritib, vazn o‘ynoqiligiga erishilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bursalik Lami’i Chalabiy Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonini Onadolu turkchasiga – eski turk adabiy tiligi so‘zma-so‘z tarjima qilmagan, o‘zining histuygularini qo‘shib, mavzu va uslubni boyitdi. U o‘z masnaviysida Navoiyning komil inson, ilohiy ishq g‘oyalarini o‘zgarishsiz saqlagan holda ulug‘ shoir she’riyatining teran ma’nolari va go‘zalligini ham himoya qilishga harakat qildi. “Tarjima teng qiymatli, teng sifatli bo‘lishi lozim. Binobarin, tarjimon ham muallif bilan bo‘ylasha va bellasha oladigan “ekvivalent ijodkor” bo‘lmog‘i darkor” deyiladi tarjima nazariyasi qoidalarida.⁷³ Naqshbandiya tariqatida shayxlik darajasiga erishgan, tasavvuf ilmini chuqur o‘rgangan, arab va fors tillarining nuktadon bilimdoni bo‘lgan Lami’i Mahmud Chalabiy bir umr Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ta’sirida ijod qildi. Alisher Navoiy saviyasida bo‘lmasa-da, Navoiyning o‘lmas san’atini turk

⁷³ Саломов, Ғайбулла. *Таржима ташвишилари*. - Т.:Адабиет ва санъат нашриети,1983.49-б.

o‘quvchilariga yuqtira oladigan tatabbu’, ya’ni o‘xshatma asar yarata oldi. Shu sababli Lami’i turk adabiyotida Navoiy an’analarining ilk davomchilaridan biri hisoblanadi.



3-fasl:

**“Ham o‘lg‘ay bu raqamdin san’ati ko‘p,
Ham o‘lg‘ay san’atida diqqati ko‘p...”**

ALISHER NAVOIYNING “XAMSA”SI – IKKINCHI RENESSANS HAYRATNOMASI

Mustaqil O’zbekiston xalqi “Yangi O’zbekiston” g’oyasini amalga oshirishga kirishdi. Bu g’oyaning zamirida Birinchi va Ikkinci Renessansga asos solgan ajdodlarimizning orzu - niyatları, XX asr boshida Uchinchi Renessansning tamal toshini qo`yib ketgan jadid bobolarimizning armonlari yotadi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida ta’kidlanganidek, “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘yan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim”.⁷⁴

O’zbekiston zamini qadimda ikkita buyuk uyg`onish davriga – Birinchi (IX – XII asrlar) va Ikkinci (XIV – XV asrlar) Renessansga beshik bo‘lgan.

Birinchi Sharq Renessansi haqida ko‘plab asarlar yozilgan. Ularda o’sha davrlarda Sharqda Islom ilmlari bilan bir qatorda ijtimoiy, tabiiy fanlar ham rivojlangani qayd etilgan. Bu haqda shveysariyalik mashhur sharqshunos Adam Metsning “Musulmon Renessansi” asaridan ma’lumotlarni olish mumkin. Mazkur asar IX-X asrlarda musulmon sharqida yuz bergen madaniy rivojlanishning tarixiga bag‘ishlangan .⁷⁵

⁷⁴ O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. Xalq so‘zi. 2020 yil 30- dekabr. №276. 2-bet.

⁷⁵ Адам Мец. Мусульманский Ренессанс. Изд-во “Наука”. Главная редакция Восточной литературы. М., 1966, 144-145-бетлар.

Bugun Ikkinchı Renessans asoschilari Amir Temur va Temuriylar sulolasining dunyo sivilizatsiyasi rivojiga, insoniyatning ilmiy, siyosiy-huquqiy, ma’naviy-g`oyaviy, madaniy va tafakkur darjasini keskin ko`tarilishiga qo’shgan hissasi beqiyosligi hech kimda shubha uyg`otmaydi. Jahon hamjamiyati Temuriylar davrini ilm-fan, madaniyat, san’at va adabiyot taraqqiyoti hamda ulu` kashfiyat va ixtirolarda o`z aksini topgan davr, xalqimizni esa shu paytgacha ikki marotaba Renessansa asos solgan el sifatida e’tirof etadi, ya’ni xalqimiz haqli ravishda ikki marta Renessans yarata olgan kam sonli xalqlar sirasiga kiritiladi.⁷⁶

“Temuriylar davri Renessansi”, “Temuriylar davri yozma yodgorliklarining O`zbekistonda va xorijda o`rganilishi” kabi ilmiy asarlar, o`z ichiga olti mingga yaqin kitob va maqolalar haqida ma’lumot jamlagan “Amir Temur. Bibliografiya” to`plamining birinchi kitobi chop etilishi mavzuning hamon dolzarbligini ko`rsatadi.

Birinchi Renessans ma’rifiy xarakterga ega edi. Ma’mun akademiyasida Muhammad Xorazmiy bilan birga Xolid ibn al-Malik al-Marvarrudiy, Al-Abbos ibn Sayd al-Javhariy, Ahmad ibn Abdulloh al-Marvaziy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Fazl al-Hamid ibn Vase’ ibn Turk al-Xuttaliy, Abu Yusuf Yoqub ibn Sabboh al-Kindiy va boshqa ko‘plab O’rta Osiyolik olimlar ijod qilib, turli fanlar rivojiga katta hissa qo’shdilar. Bag‘dod, Damashq rasadxonalarida, Bag‘doddagi “Bayt ul-hikma” akademiyasida, Xorazmdagi “Majlisi ulamo” akademiyasida, Marv, Samarcand, Buxoro madrasalarida faoliyat ko`rsatgan mutafakkirlarga quyidagi xislatlar xos edi: insoniyatning o`tmishda erishgan yutuqlarini, jumladan, Yunon, Hind, Xitoy merosini chuqur o’rganish, tarjima qilish, sharhlar yozish, ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirish; tabiiy fanlar, panteistik falsafa, islom ilohiyoti taraqqiyoti; ratsionalizm, hurfikrlilik, insonparvarlikni ulug‘lash; insonning axloqiy, ma’naviy go‘zalligi va kamoloti Allohning yuksak in’omi sifatida talqin etilishi, so’z san’atiga muhabbat, ilmiy asarning badiiy shakliga e’tibor berilishi, qomusiy bilimlarga ega bo`lishlik.⁷⁷

Ikkinchı Renessans Sohibqiron Amir Temur va temuriylar sulolasi hukmronlik qilgan davrga to`g‘ri keldi. Bu davrda Qozizoda Rumiy,

⁷⁶ Akmal Saidov, Temuriylar Renessansiga yangi chizgilar, “Yangi O’zbekiston” gazetasi, 2021 - yil 8 - aprel.

⁷⁷ Muhammadjon Qodirov. *Uchinchi Renessans haqida ba’zi mulohazalar*. Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 2 ISSN 2181-1784 156 w 2021 March ,157-158 – betlar.

Mirzo Ulug`bek, G`iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi kabi benazir olimlar; Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Bobur kabi alloma shoirlar; Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxon, Xondamir kabi tarixchilar; Kamoliddin Behzod kabi musavvirlar, xattotlar, musiqashunoslar ijod qildilar, asarlari bilan “cherik tortmay” butun dunyoni zabit etdilar.

Poytaxt Samarqand va Hirotda, Shosh, Kesh, Buxoro kabi yirik shaharlarda me’morchilik, qog’oz ishlab chiqarish, to`qimachilik, qurolozlik, temirchilik, chilangarlik, hunarmandchilikning barcha sohalari gullab - yashnadi. Temuriylar davrida, ayniqsa, ilm - fan, adabiyot, san’at sohalari kamolot bosqichiga ko`tarildi.

Ma’lumki, XIV asrning ikkinchi yarmidan XVII asrgacha bo‘lgan davr *Uyg`onish davri o’zbek adabiyoti* deb ataladi. Adabiyotning har tomonlama rivojlanishiga avval Samarqanddagagi, so`ngra Hirot va Buxorodagi yuksak ilmiy, madaniy muhit o‘z ta’sirini ko`rsatdi. Husayn Boyqaro davrida Hirot birgina Xurosonning emas, butun turkiy dunyoning muhim madaniy – adabiy markaziga aylandi.

Quyosh tufayli zarra mavjud bo`lganidek, Haq tufayli xalq mavjud; xalq bor ekan, inson deb atalmish vujud mavjud. O‘z zamonasining farzandi bo‘lgan Alisher Navoiy Hirot Renesansining barcha yutuqlarini: amaliy san’at, me’morlik, musiqa, ilm-fan sohasidagi yangiliklarni asarlarida aks ettirdi, shuningdek o‘zining ilmiy fantaziyalarini ham tasvirladi.

XV asrdagi amaliy san’atning rivoji badiiy adabiyotga kuchli ta’sir ko`rsatdi. Bunga misol qilib ”Sabb’ai sayyor” dostonidagi zargar Zayd Zahhob hikoyasini keltirish mumkin. O‘z kasbining mohir ustasi bo`lgan zargar shohga yaxshi ko`rinish uchun ajoyib falaksifat taxt yasaydi. Oltin taxtning tasviri o`sha davrdagi amaliy san’at tarqqiyoti darajasini ko`rsatadi. E’tiborlisi shundaki, bu taxtning o`zi yurar zinasi bor edi! Agar shoh bu taxtga chiqadigan bo`lsa, pillapoyalari uning qadam qo`yishi uchun pasayib, bir-biri ustiga yotardi. Shoh sakkiz poyaning hammasini bosib o`tib, taxtga o`tirgach, u zinalar yana baland ko`tarilar edi. Bu –shubhasiz, zamonaviy eskalatorning tasviri. Taxt tasvirida yana bir detal bor: shoh qay tarafga qarab o`tirishni istasa, ozgina ishorat bilan ikki ming botmon oltindan yasalgan og`ir taxt o`sha tarafga qarab aylanadi! XX asr texnikasi yutuqlarini eslatuvchi bu tasvirlar mutafakkir bobomizning chuqur ilmiy fantaziysi mahsuli edi.⁷⁸

⁷⁸ Алишер Навоий. Хамса. Т.:Наврўз,2019, 432-440 бет.

“Saddi Iskandariy ” dostonida esa Navoiy bobomiz buyuk ixtirochi, kimyogar olim sifatida namoyon bo‘ladi. Iskandarning Kashmirlar yurishi voqealarini eslaylik. Kashmirda zolim shoh Mallu hukmronlik qilardi. Iskandar Kashmir chegarasiga qadam qo`yganda osmonga tutashib ketgan tog` ko`rinadi. Bu tog` afsonaviy Qof tog`idek juda baland, toshlari silliq qilib yo`nilgandek yarqiroq edi. Buyuk tog`ning o`rtasida shigof - yoriq bor edi. Yoriq orasidan yo`l o`tgandi . Kashmirliklar dushmani qaytarish uchun yo`l boshiga – ikki qoya o`rtasiga qal'a qurishgan; qal'aning ichiga ikki ming sehrgar joylashib olgan edi. Agar biror kishi sehrlangan qal'a tomonga qadam qo`ysa, oyoq – qo`li bo`shashib, harakatdan qolar edi. Odamgina emas, ot ham u tomonga yursa, oyog`ida mador qolmasdi. Iskandar askarlari bu yerga yetganda xuddi shunday behol bo`lib, hayratga tushdilar. Voqeadan ogoh bo`lgan Iskandar sehriga qarshi ilmni qurol qiladi:

Qilib hikmat oyinig‘a iltijo,
Buzoli alar sehrini jobajo.

Safarda unga hamrohlik qilayotgan besh yuzta olim sharoitni o`rganib, unga qalay, simob, mis aralashmasidan katta koptokka o`xshash bir qurol yasab berishdi. To`pning ichini turli dori va moddalar bilan to`latdilar. Bu to`pning piligi havoda yonsa , ichidagi portlovchi moddaga o`t tegib, to`p mo`ljallangan yerga tushadi va qattiq portlab yonishidan to`rt narsa hosil bo`ladi: bahaybat sado, o`t-alanga, qora tutun, badbo`y hid. Kuchli portlash sadosidan qal'a ichidagi sehrgarlarning asboblari ishdan chiqadi; o`t alangasidan qal'aning darvozasi ochiladi; qora tutundan sehrgarlarning yuzi qorayadi; hidi kimning dimog`iga kirsa, jodugarlik ilmini tamoman esdan chiqarib yuboradi. Iskandar qurolni ishlatib Mallu ustidan g`alaba qozonadi. Qal`aga kirmoqchi bo`lganida olimlar u yoqqa borishga ruxsat bermaydilar, chunki to`pdan chiqqan tutun bilan badbo`y hidning ta`siri hali yo`qolmagan, undan shoh va askarlarning salomatligiga putur yetishi mumkin edi.

Kuchli tovushning har qanday to`lqinni sindirishi, temir darvozani parchalashi, odam terisining nурдан kuyib qorayib ketishi, badbo`y hid tufayli inson xotirasining o`chib ketishi Ikkinchı Renessans ixtirolari ko`lamini ko`rsatadi.⁷⁹

Yovuz Mallu tilsimlangan qo`rg‘onga qochib kirib, xalqdan yel va o`tni yashiradi, mamlakatni olovsiz, shamolsiz qoldiradi. Iskandar

⁷⁹ Алишер Навоий, 2019, 588-592- бет.

Aflatun yordamida xalqqa ularni qaytaradi. Kuchli shamol va olov band qilingan ikkita chohning tasviri o`quvchinig diqqatini tortmay qolmaydi. Zamonaviy neft quvurlarini eslatuvchi bu moslamalar ham buyuk mutaffakkirning xayol mahsuli edi; yer qa`ridagi dahshatli olovni , yer yuzidagi kuchli shamolni bo`ysundirib , ulardan inson manfaati yo`lida oqilona foydalanish orzusi edi⁸⁰

Bugungi kunda tergov ishlarida aybdorning rost yoki yolg`on gapi rayotganini aniqlab beruvchi detector (moslama) yoki haydovchining spirtli ichimlik ichgan - ichmaganini aniqlovchi uskunaning mavjudligini hamma biladi. Qizig`i shundaki, bunday moslamalar haqidagi ilk ma'lumotlar “Saddi Iskandariy” dostonida uchraydi.

Chin xoqoni Iskandar sharafiga shohona bazm beradi, turli - tuman sovg‘alar, nodir tuhfalar hadya qiladi. Tuhfalardan biri “Oyinayi chin”- haqiqat oynasi edi. Bu oynaning ikkala beti oy va kundek yorug` bo`lib, sira zanglamasdi. Olimlar oynaning ikki betiga ikki xil ko`rsatish qobiliyatini bergen edilar. Masalan, uning bir yuzi rost gapirgan odamning yuzini ko`rsatar, yolgon gapirgan odamnikini ko`rsatmas edi. Ikkinci yuzining tilsimi shundan iborat ediki, me'yorida may ichuvchining yuzi unda to`g`ri aks etardi, me'yorida ortiq may ichgan odamning basharasi esa buzilib: uzun, qisqa, yapaloq, katta yoki kichik bo`lib ko`rinardi. Bu oynadan Iskandar qanday hayratga tushgan bo`lsa, biz ham Navoiy bobomizning tafakkuridan shunday hayratlanaveramiz.⁸¹

Iskandar chinlik olimlarning mehnatini yuksak taqdirlab, o`zi ham ularni yangi ixtirolari bilan lol qoldirishni istaydi. To`rt yuz olimni ikki guruhgaga bo`lib, avvalgilardan ham a`loroq mo`jiza yaratishga kirishadi. Birinchi guruhgaga Aflatun va Suqrot bosh bo`ladi. Ular osmonda qanday jism bo`lsa, barchasini ko`rsatuvchi suturlob (teleskop) yasaydilar. Ikkinci guruhgaga Arastu bilan Buqrot bosh bo`ladi. Ular yer kurrasida nimaiki mavjud bo`lsa, hammasini ko`rsatuvchi ko`zgu –jahonnamo oyna yasaydilar. Hikmat ahliga Iskandarning o`zi madad bo`ladi. Kashfiyotlarning biriga to`qqiz qavat osmon joylashtirilgan bo`lsa, ikkinchisiga yetti iqlim sig`dirilgan edi.⁸² Farhod ham shu oyna

⁸⁰ Алишер Навоий, 2019, 595-600 -бет.

⁸¹ Алишер Навоий, 2019, 634-636 -бет

⁸² Алишер Навоий, 2019, 642-644- бет

yordamida avval Suqrot yashaydigan tog`ni, keyin tog ichidagi g`orni topgan edi.

XXI asr o`quvchisi jahonnamo oyna bilan kompyuterdagи Google Maps dasturi o`rtasida o`xhashlik borligini sezmay qolmaydi, albatta. Ha, bizning ajdodlarimiz zamonlar osha fikrlay oladigan darajada dono edilar!

Birovkim qilsa olimlarga ta'zim,
Qilur go'yoki payg`ambarga ta'zim.

“Saddi Iskandariy”ni o`qir ekansiz, ul zotning suvosti kemasi haqidagi chuqur tasavvufiy qarashlariga ham tahsinlar o`qimaslikning iloji yo`q. Rivoyatga ko`ra, Iskandar yer yuzini zabit etib bo`lgach, Bahri Muhitni o`rganishni niyat qiladi. Ikki yil okeanda suzib, girdob - u p`ortanalarni yengib, Bahri Muhitning qoq markaziga yetib keladi. Sandiqqa o`xhash bir shisha yasatib, uning ichiga tushadi. Shishanинг og`zini po`kak va mum bilan mahkamlaydilar. Iskandar suvosti kemasida yuz kun okeanning tagida turib, u yerdagi hayotni o`rgangan, holsizlangach shishanинг arqonini tortib, yuqoridagilarni ogohlantirgan. Navoiy olim sifatida voqeanning bunday rivojiga shubha bildiradi. Uning fikricha, Iskandarning dili dengiz safarida qattiq zahmat chekadi, qiyinchiliklarni yenga olgani uchun poklanadi. Safari oxiriga yetguncha o`zi ham haq yo`liga kiradi - valiylik darajasiga yetadi. Ko`zini payg`ambarlik nuri yoritadi, shuning uchun okean tagidagi ko`zga ko`rinadigan – ko`rinmaydigan barcha jonzotlarni aniq - tiniq ko`radi. Demak, Iskandar uchun Okean markaziga sayohat, suvosti kemasi payg`ambarlik maqomiga erishish uchun bir vosita bo`lgan.

“Farhod va Shirin”, “Sabb’ai sayyor”, “Saddi Iskandariy” dostonlarida me’morlik, tasviriy san’at va naqqoshlik sohasida Hiro ustalari qo`lga kiritgan yutuqlar shunday mohirona tasvirlanganki, beixtiyor qo`liga tesha olib toshni saryog`day kesayotgan toshyo`nar ham; to`rt faslning go`zalligini naqshlarda jilolantirgan naqqosh ham; go`zal qizning rasmini tirik insonday qilib toshga, qog`ozga chizgan rassom ham ; Chin oynasiday tiniq g`ishtlardan qurilgan, ayvoniga bulutning soyasi tushmaydigan, posboni Zuhal yulduzi bilan suhbat qiladigan osmono`par binolarning me’mori ham – bu Navoiyning o`zi, degan xulosaga kelasiz. “Farhod va Shirin ” dostonidagi taqdir oynasi, murakkab mexanizm bilan ishlovchi temir odamlar (robotlar), yetti iqlimni ko`rsatuvchi Jamshid jomi - “Jomi getinamoy”, Chin o`lkasida qurilgan to`rt faslga monand qasrlar, arman o`lkasida yaxlit katta

xarsangtoshning ichini o`yib, naqsh bilan bezatilgan toshqasr; Bahrom uchun qurilgan yetti qasr, “Saddi Iskandariy” dostonidagi ichsa mayi tugamaydigan “Jomi ishratfazoy” kabi mo‘jizalarning badiiy talqini hazrat Navoiyning o‘z davridagi ilm - fan, amaliy san’at, me’morlik sohasidagi ixtiolar va yangiliklar bilan yaxshi tanish bo`lganini ko`rsatadi. Ayrim narsalarning ilmiy talqinida Navoiyning o‘z davri ilmidan ham ancha ilgarilab ketgani ko‘zga tashlanadi.

Xullas, Hirot Renesansi “Xamsa”day buyuk asarning yaratilishiga sabab bo`lgan bo`lsa, hazrat Navoiy o‘z davrining ilg`or fikrlarini go`zal asarlari bilan kelajak avlodga yetkazib berdi. Bunday daho ajdodlarimizning merosini chuqur o`rganish, milliy g`ururni tiklash, so‘ngan ruhning ko`tarilishi, ma’naviy – ma’rifiy qadriyatlarga bo`lgan hurmat - e’tiborning qaytarilishi, ilm – fan, ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish borasidagi sa’y-harakatlar, albatta, yaqin kelajakda kutilgan natijalarini beradi, deyishimizga to`la asos bo`ladi.

NAVOIY IJODIDA TASAVVUFIY CHIN MAVZUSI

Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotiga kiritilgan g‘azallarda *Chin*, *Xitoy*, *Xo’tan* nomlari, *naqshi Chin*, *naqqoshi Chin*, *nigorxonayi Chin*, *lo’bati Chin*, *chiniy ayog’* birikmalari ko‘p qo’llangan. Tashqaridan qaraganda, bu atama va birikmalar buyuk mutaffakirning Chin davlatiga bo`lgan qiziqishi va hurmatini ifodalaydi go‘yo. Lekin “Xamsa” dostonlaridan joy olgan Chin bilan bog‘liq hikoyatlarni tahlil qilsak, ularga tasavvufiy ma’nolar yuklanganini ko‘ramiz.

Istiqlolga erishgach, tasavvufga oid ko‘plab tarixiy va zamonaviy ilmiy asarlar o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Ibrohim Haqqulov, Najmiddin Komilov, Sultonmurod Olim, Karomat Mullaxo‘jayeva, Sayfiddin Rafiddinov, Bobomurod Eraliyev kabi olimlarning tadqiqotlari natijasi o‘laroq XXI asr o‘zbek kitobxonlarida tasavvuf haqida ozmi-ko‘pmi tushuncha shakllandı. Navoiy merosini o‘rganish endi butun millatning ma’naviy ehtiyojiga aylandi.⁸³

⁸³ Комилов, Нажмиддин. Тасаввуф. -Т.: Мовароуннахр-Ўзбекистон, 2009- 447 б.// Муллахўжаева Каромат, Алишер Навоий ғазалиётида тасаввуфий тимсол ва бадиий санъатлар уйғунлиги .- Т., 2019.- 208 б// Олим Султонмурод. Нақибанд ва Навоий.- Тошкент, 1992// Рафиудинов Сайфиддин, Тасаввуф ва Нақибандийлик (Манбалар ва

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Saddi Iskandariy” va “Lison ut-tayr” dostonlarida qalamga olingan, navoiyshunos olimlar nazaridan chetda qolayotgan Chin mavzusining ma’no-mohiyati tasavvufdag'i go‘zallik va majoziy ishq tushunchalari bilan qiyoslanib tahlil obyektiga aylantirildi. Ishq, dard sirlarini ochish orqali o‘quvchiga ma’rifat va go‘zallik saboqlarini berish maqsadga muvofiq deb topildi.

Tasavvuf diniy e’tiqod, falsafa, badiiy ijodning qo‘shilishidan hosil bo‘lgan hissiy-tafakkuriy ta’limotdir. Navoiy ijodini “ilohiy ishqning bayonnomasi” bo‘lgan tasavvuf g‘oyalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. “Tasavvufning bosh g‘oyasi komil insonning ideal go‘zallik ishqida yonishidir”, - deya ta’kidlagan navoiyshunos Najmiddin Komilov tasavvuf ta’limoti tarixi, uning mazmun-mohiyatiga bag‘ishlangan “Komil inson axloqi” deb ataluvchi birinchi kitobida jami go‘zalliklar, yaxshiliklar, ezguliklar manbayi Mutlaq Ilohdır, deydi. Dunyodagi jami husn-u jamol – Uning jamolining aksi. Inson go‘zalligi Uning jamolining jilvasi, bu jamol Olamda qancha ko‘p jilo etgan bo‘lsa, u shuncha go‘zal bo‘ladi. Inson ruhining go‘zallikka, nafosatga tashnaligi Iloh go‘zalligiga tashnalik oqibatidir. Yana buning ichida moddiy go‘zallik va ma’naviy go‘zallik, g‘oya va fikr go‘zalligi ajralib, e’tiborga olinadi. Xullas, go‘zallikdan maqsad tafakkur go‘zalligi, ma’naviy go‘zallikni anglamoq, oliy javhar - Ruh go‘zallagini qabul qilmoqdir.⁸⁴

“Hayrat ul-abror” dostonining o‘n sakkizinchı maqolotida inson umrining o‘tkinchiligi, bu dunyoga yig‘lab-yig‘lab kelgan inson, shubhasiz, bir kun foniy dunyoni tark etadi, deyiladi. Shunday ekan, o‘limni o‘ylab g‘amga botmay, Mutlaq Ilohnинг bizga bergen buyuk ne’mati - umrni ishq bilan, foydali ishlar bilan mazmunli o‘tkazish kerakligi ta’kidlanadi. Maqolotga Chin go‘zali va oshiq yigit haqidagi hikoyat ilova qilinadi. Bu hikoyatni tasavvufiy Chin mavzusining muqaddimasi desa bo‘ladi:

Bor edi Chin mulkida bir nozanin,
Ojiz aning naqshida naqqoshi Chin.
Orazi gulzori Xo‘tandin misol,
Ko‘zi bu gulzor aro mushkin g‘izol.

ҳикматлар)-Т.:Ўзбекистон,2019- 192 б. // Ҳаққулов Иброҳим. Навоийга қайтиши. 4-китоб.- Т.:Тафаккур нашириети,2021.-240 б.// Эрали Бобомурод.Мажозий муҳаббат ҳақиқатларию Алишер Навоий асарларига янгича шарҳлар.-Т.:Академнишр,2015. – 80 б.

⁸⁴ Комилов,Нажмиддин.Тасаввуф.-Т.:Мовароннахр-Ўзбекистон, 2009,140-b.

Surati Chin chehrai anvar anga,
Mushki Xo‘tan zulfi muanbar anga.⁸⁵

Chin xoni bu go‘zal qizga ko‘ngil qo‘yishni ta’qiqlab qo‘ygan bo‘lsa-da, bir yigit yillar davomida uning dard-u hasratidan qon yutib yashar edi. Bechora oshiq chavgon va go‘y o‘ynagani maydonga chiqqan Chin go‘zalini ko‘chada ko‘rib, hushidan ketib yiqiladi. Bundan xabar topgan xon uni va boshqa tomashabin oshiqlarni tiriklayin paxsa devor tagiga bostirishni buyuradi. Xalq Chin go‘zalini sevish qanday oqibatlarga olib kelishini ko‘rib qo‘ysin, deydi. Xon nozanini bilan dashtdagi bazmdan sarxush bo‘lib shaharga qaytayotganida haligi paxsaning oldidan o‘tadi. U jazoga buyurilganlarning ishq yo‘lida qanchalik mustahkam tura olishlarini bilmоqchi bo‘ladi. Paxsaning orasidagi bir to‘da tutqunlar pushaymon bo‘lib o‘z ahvoliga yig‘lar edilar, faqatgina “Tilida yor erdi-yu, so‘zida yor, Og‘zida yor edi-yu, ko‘zida yor” bo‘lgan sho‘rlik oshiq har lahza Tangriga sano aytar, shukr qilishni joyiga qo‘yar edi. Buni ko‘rgan zolim hukmdorning ko‘ngliga ishq o‘ti ta’sir qiladi. Uni o‘limdan xalos etib, yorning haramiga xos mahram qiladi. Oshiqning so‘nggi damda o‘lmay qolib, Chin go‘zali visoliga musharraf bo‘lishida juda katta tasavvufiy ma’no bor: Chin xoni naqqoshi Chinni ojiz qoldirgan Chin go‘zaliga boqib, insonga xos go‘zallikdan rohatlansa, oshiq yigit Yaratganning go‘zalligini ko‘radi: solikning eng muqaddas orzusi bo‘lgan o‘lmasdan turib Alloh visoliga erishish baxtiga tuyassar bo‘ladi. Zero, Yaratganning go‘zal vujudidan hayratlanish va zavqlanish tufayli ruhimiz quyidan yuqoriga, oddiylikdan murakkablikka, zohidlikdan oriflikka qarab taraqqiy qiladi. Shuning uchun so‘fiy shoirlar Allohning go‘zalligidan hayratlanib, uni “yori aziz”, “joni jahon” deb biladilar.

Platon, Ibn Sino, Rumiy nazariyasiga ko‘ra, olam sevgi asosida vujudga kelgan. Sevgi qonuniyati tufayli ceksiz koinotdan tortib zarragacha – hamma narsa doimiy harakatdadir. Tasavvufdagi isqning ikki turi haqida Navoiyning “Xamsa”, ”Lison uy-tayr” dostonlari va “Mahbub ul-qulub” asarida qimmatli fikrlar berilgan. Majoziy ishqni shoир kimyoga, yer qa’ridagi qimmatbaho la’l-u olmosga, tong yorug‘iga o‘xshatadi. Ilohiy ishqni esa koinotga milliardlab zarralarini sochuvchi Quyoshga qiyoslaydi. ” Farhod va Shirin” dostonida esa piri komil

⁸⁵ Навоий, Алишер. “Хайрат ул-аброп” MAT, 7-том. - Т., 1991, 301-б.

Suqrot majoziy ishqni solik vujudini fano etuvchi, ilohiy vahdatga olib boruvchi kuch deb ta'riflaydi.

Chin mulki, naqqoshi Chin, surati Chin kabi timsollarga “Xamsa”ning “Farhod va Shirin”, “Sab’ai sayyor” va “Saddi Iskandariy” dostonlarida ham duch kelamiz. Bu bejiz emas, chunki “Xamsa”dagi dostonlar alohida-alohida o’rganiladigan asarlar emas, ular yaxlit bitta kompozitsiyaga birlashadi. Birinchi dostonda qalamga olingan falsafiy mavzular sujetli dostonlarda voqealar, badiiy timsollar bilan dalillanadi. Masalan, Chin go’zaliga bag’ishlangan bob xulosasida quyidagi misralarni o‘qiyimiz:

Soqiy, o‘lubmen mayi rangin uchun,
May demakim bir sanami Chin uchun.
Chin ayog‘lar bila mast et meni,
Chin elidek bodaparast et meni.⁸⁶

Chiniy qadahlardan may ichib, Chin elidek bodaparast bo‘lish, Chin sanami ishqida jon berish “Sab’ai sayyor” dostonida shahanshoh Bahromning peshonasiga yozilgan edi. Bu dostonda Chin go’zalining rasmini chizgan Chin naqqoshi bilan tanishamiz:

Chinda bor edi bir ajab naqqosh,
Sun’ naqqoshidek jahon aro fosh.
Ishi monandsiz, oti Moniy,
Ul yozib suratimni pinhoniy.
Safar etmak uchun o‘zin tuzmish,
Bir shahanshohga oni ko‘rguzmish.⁸⁷

Diloromning e’tiroficha, Moniyning mahorati Sun’ naqqoshidan (Yaratgandan) qolishmaydigan darajada yuksakdir.

“Xamsa”da Chin yurti Xitoy, Xo’tan nomlari bilan ham berilgan. Farhodning ana shunday o‘lkada tug‘ilishi bejiz emas. Chin naqshining o‘zi ham rashk qiladigan bu o‘lkaning shamoli ham, guli ham otashindir (benihoya yoqimlidir). Farhod tug‘ilgan Chin yurtining ta’rifi “Farhod va Shirin” dostonida quyidagicha berilgan:

Bu chiniy hullaga bo‘lgan raqamkash
Yuzin bu tarh ila qildi munaqqash.
Ki Chin mulkiki rashki naqshi Chindur,
Savodi g‘ayrati xuddi barindur.⁸⁸

⁸⁶ Навоий, Алишер. “Ҳайрат ул-аброр” MAT, 7-том. - Т., 1991, 304-б.

⁸⁷ Навоий, Алишер. “Сабъаи саиёп” MAT, 10-том. - Т., 1992, 351-б.

⁸⁸ Навоий, Алишер. “Фарҳод ва Ширин” MAT, 8-том. - Т., 1991, 60-б.

Ya’ni: Chin mulkining go‘zalligiga Chin naqshining o‘zi ham rashk qiladi, ...

Farhod o‘limi oldidan bodi saboga murojaat qilar ekan, vataniga bo‘lgan muhabbatini so‘nggi damda quyidagicha ifodalaydi:

Xo‘tan mulkiki jannatdin nishondur,
Savodi uzra jannat jonfishondur...⁸⁹

“Xamsa”ning yakunlovchi dostonida Chin mamlakati o‘zining bor go‘zalligi va boyligi, insonlari esa bor iqtidorlari bilan namoyon bo‘ladi. Iskandarning odamgarchiligidan ta’sirlangan Chin xoqoni uning sharafiga ziyofat berishga qaror qiladi. Ohu va qulondan tez chopuvchi 1000 ta ot, har biri tog‘dek tanaga ega bo‘lgan 1000 ta tuya, 1000 ta tezqadam xachir (hammasining ustiga qimmatbaho yopinchiqlar yopilgan), og‘irligi bir tog‘ga teng 1900 ta tugun, 1000 ta chiniy idish-tovoq, 1000 ta go‘zal kanizaklarni Iskandarga sovg‘a qiladi. Bulardan tashqari ikkita tuhfa beradi:

1) ikkala yuzi oy va kundek ravshan bo‘lgan sehrli oyna (birinchi yuzi arzga kelgan da’vochining yuziga tutilsa, da’vosining rost yoki yolg‘on ekanini ko‘rsatar edi; ikkinchi yuzi majlisda may ichib o‘tirgan odamning yuziga tutilsa, me’yordan ortiq ichgan-ichmagani ayon bo‘lardi);

2) Chin go‘zali. Bu qiz go‘zallikda, soz chalishda, qo‘shiq aytishda nafaqat jon ofati, balki jahon ofati bo‘lsa, jang maydonida dushmanning sho‘ri edi.⁹⁰

Nega Navoiy “Xamsa” da o‘zini Chin diyorining oshig‘i qilib ko‘rsatgan? Nega Farhod tug‘ilganida Chin xoqonining buyrug‘i bilan mamlakatda nechta devor bo‘lsa, barchasi aynan Xitoy suratlari bilan bezatildi? Nega Bahromday kuchli inson Chin go‘zali - Dilorom deb davlat ishlarini unutdi? Nega Iskandarday buyuk olim Chin olimlarining iste’dodidan hayratga tushadi? Bu savollarga javobni “Lison ut-tayr” dostonidan topamiz.

“Lison ut-tayr” dostonining 18- bobida qushlar Hudhuddan Simurg‘ning zuhur etishi haqida so‘rashadi. Hudhudning hikoya qilishicha, bir tun davlatmakon shoh olam bo‘ylab parvoz etishga kirishdi. Ittifoqo jannatsifat Chin shahriga yo‘li tushdi. U shahar emas, kenglikda butun bir jahonga teng edi. Uning ichida o‘n jahon aholisi joylashgandi. Ko‘rinishi Eram bog‘laridan go‘zalroq, suvlari jannat

⁸⁹ Навоий, Алишер. “Фарҳод ва Ширин МАТ, 8-том. - Т., 1991, 415-б.

⁹⁰ Навоий, Алишер. “Садди Искандарий”(насрий баёни билан).-Т., 1991, 704-б.

anhordan totliroq. O'sha kecha Simurg' shahar ustidan uchib o'tayotganida Chin shahri boshdan oxir yorishib ketadi. Simurg' qanotlarini qoqib uchib borayotganida undan bir par tushib qoladi:

Rang-u naqsh ul parda g'oyatdin fuzun,
Kim oning sharhida so'z bo'lg'ay uzun.⁹¹

Uyg'onib ketgan xalq kuchli yorug'likdan behush bo'lib qoladi. Yorug'lik zulmat bilan almashgach, el yana o'zining holiga qaytadi. Hamma parning rangi, shaklini tomosha qila boshlaydi. Har kim qo'liga qalam olib, bu pardagi naqshlarni xayolida jonlantirib, qog'ozga tushira boshlaydi. Chin shahrining aholisi Simurg' paridagi suratlarni chizishga kirishadi. Bu elning barchasi shu ish bilsn shug'ullana boshlaydi. Rassom, naqqoshlar orasida bir kishi o'z suratlari bilan yuqori kamolot darajasiga erishadi:

Oti-Moniy, xomasi- mo'jiznamoy,
San'ati nazzorasi hayratfizoy.⁹²

Shuning uchun afsonaviy rassom Moniyning suratxonasi Chinda deb aytadilar. O'sha par hali ham jannatsifat Chinda emish va u yerdagi aql bovar qilmas darajadagi barcha go'zalliklar, mo'jizalar o'sha parning paydo bo'lishi tufayli emish. Semurg' paridagi naqshlardan Chin naqshlari paydo bo'libdi:

Beadad naqsh o'ldi ul par holidan,
Noqil ul par sohibi af'olidin.⁹³

Demakki, Chin mamlakatining go'zalligi, naqshi nigorlari Simurg'ning sifatlarini ko'rsatadi. Navoiyning Chin mamlakatiga oshiqligi aslida Simurg'ga oshiqligidir. Naqqoshi Chin esa ilohiy go'zallik shaydosi bo'lgan so'fiy, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, yuzlab shogirdlar yetishtirgan pir; nigorxonayi Chin esa so'fiylar yig'iladigan, muridlar tarbiya topadigan qutlug' dargoh timsolidir.

Tasavvuf ilmida Zot olami Vahdat (yagonalik) olami deb atalsa, U yaratgan olam kasrat (ko'plik) olami deb nomlanadi. Kasrat olamini vahdat olamining ayonlashuvi deb bilsak, u holda Yaratganning o'zi jamiki jonli va jonsiz narsalarda tajalli qiladi. Tangri xohlagan suratda ko'rinadi, dunyoning barcha ajoyibotlarini, go'zalliklarini Uning turli shaklda, turfa rangda zuhurlanishi deb bilmoq kerak. Semurg' qushi ham, shubhasiz, Yaratganning zuhuridir.

91 Навоий, Алишер . “Лисон ут-тайр” МАТ, 12-том.-Т., 1996 ,40-б.

92 Навоий, Алишер . “Лисон ут-тайр” МАТ, 12-том.-Т., 1996 ,41-б.

93 Навоий, Алишер . “Лисон ут-тайр” МАТ, 12-том.-Т., 1996 ,41-б.

Alisher Navoiy talmeh san'atidan mohirona foydalanib, o‘z asarlarida Chin mavzusi bilan bog‘liq tasavvufiy birliklarni quyidagi ma’nolarda qo‘llaganlar:

- 1) Chin mamlakati (Xo‘tan, Xitoy) - Allohning go‘zalligi zuhur etgan san’at, nafosat go‘zallik o‘lkasi;
- 2) naqshi Chin – 1) Semurg‘ qushining paridagi naqshlar; 2) Allah go‘zalligining tasviri;
- 3) naqqoshi Chin – 1) mashhur afsonaviy rassom Moniy; 2) Allah ishqini qalbga naqshlash sirlarini anglatgan ustoz, pir;
- 4) nigorxonayi Chin – 1) rassomlarni tayyorlaydigan ustaxona va ijodxona; 2) so‘fiylar qalbini poklaydigan, Allahga yaqinlashtiradigan ustoz dargohi;
- 5) lo‘bati Chin, go‘zali Chin – 1) go‘zal mahbuba; 2) iymon ko‘zgusi, unda Allahning jamoli jilva qiladi;
- 6) chiniy ayog‘- 1) chiniy qadah; 2) ishqi ilohiy bilan go‘zallikka erishgan so‘fiy qalbi; 3) pok e’tiqod.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, bejiz, qadimdan Chin o‘lkasi so‘fiy ajdodlarimiz tomonidan donishmandlik, san’at, naqsh va nafosat o‘lkasi sifatida e’tirof etilmagan.

ALISHER NAVOIY “XAMSA”SIDA HURUFI DALOLAT SAN’ATINING TUTGAN O‘RNI

Hurufiylik ta’limotiga ko‘ra, Inson – farishtalardan ham ustun turuvchi oliy mavjudot, chunki u Xudo tomonidan yaratilgan, unga fikrlash, his qilish, eshitish, gapirish va eng muhimi, harflar ilmini tushunish qobiliyati berilgan. Koinot, Xudo va inson o‘rtasida qanday o‘xshashlik va bog‘liqlik bo‘lsa, tushunish jarayonida aql, nutq, so‘z, harf va raqamlar (abjadiya) o‘rtasida ham shunday aloqa mavjud. Shuning uchun hurufiylar arab harflari sirli mazmunga ega, degan qarashni ilgari surganlar. Harflarni ilohiylashtirish, arab alifbosidagi 28 va fors alifbosidagi 32 harfdan mazmun qidirish badiiy adabiyotda yangi she’riy san’atlarning yaratilishiga sabab bo‘ldi.

XV asrda yaratilgan ko‘pgina badiiy asarlarda, hatto ilmiy asarlarda ham, hurufiylik suluki g‘oyalaridan ta’sirlanishni kuzatish mumkin. Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoniy” asarida shariat, tariqat, haqiqat, tasavvuf kabi bir nechta istilohlarning harfma-harf ma’nolari keltirilgan bo‘lsa, Jaloliddin Davvoniy bu san’atga bag‘ishlab “Risolat al-huruf” deb nomlangan asar yozgan. Falsafiy qarashlari bilan ma’no ahliga mansub bo‘lgan Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” va

“Farhod va Shirin” dostonlarida g‘oyaviy niyatlarini ifodalashda harf san’atidan unumli foydalangan.

Mumtoz adabiyot vakillarining arab harflarining o‘ziga xos shakllaridan poetik vosita sifatida istefoda etishi natijasida “alif”, “dol”, “jim”, “lom”, “lom-alif”, “sod”, “nun”, “ayn”, “sin” kabi harflar barqaror poetik obraz qiyofasini kasb etdi. Harf san’atining, kitobat san’atidan tashqari, hurufi dalolat, hurufi hijo, jome’ ul-huruf degan yana bir nechta ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, ularni uch guruhga ajratish mumkin: 1) harflarning shakliy xususiyatiga asoslangan harfiy san’atlar; 2) arab alifbosidagi harflar ketma-ketligiga asoslangan harfiy san’atlar; 3) harflarga mazmun bag‘ishlovchi harfiy san’atlar. Ilmi bade’ga bag‘ishlangan asarlarda ular haqida nazariy ma’lumot va misollar kamligi sababli bu san’atlar she’riy asarlar sharhida tashbeh, kitobat yoki muammo san’ati sifatida talqin qilinadi.

Ma’lumki, *kitobat san’ati* arab alifbosi harflari shaklidan lirik timsol yaratish san’atidir. Bunda shoир arab alifbosidagi harflarning *shakliy xususiyatlari* (*egri va to ‘g’ri, yoysimon va doirasimon shakllar*) va tasvirlanayotgan obyekt o‘rtasidagi o‘zaro mushtarak jihatlarni topib, ularni tasvir vositasiga aylantiradi va o‘z g‘oyaviy niyatini ifodalashga xizmat qildiradi. Shoirlar “alif” (tik qomat), “jim” (gajak), “nun” (egma qosh), “mim” (kichkina og‘iz), “sod” (o‘tkir xunxor ko‘z), “ayn” (shahlo ko‘z) harflari shaklidan mahbuba qiyofasini chizishda mohirona foydalanganlar.

Harflarga mazmun bag‘ishlash san’ati Sharq poetikasida *hurufi dalolat* deb ataladi. ”Hayrat ul-abror” dostonida Basmalayi sharifning she’riy sharhida “Bismillohir Rahmonir Rahiyim”dagi har bir harfning ilohiy-irfoniy mazmuni hurufi dalolat san’ati orqali yoritib berilgan . “Bismillah” so‘zidagi har bir harfga quyidagicha ma’no-mazmun yuklangan: “Be” – bashorat; “Sin” – salomat; “Mim” – maqsad; “Alif” – sham; “Lom” – livoyi zafar; “H” – huviyat.⁹⁴

Hurufi hijo esa bo‘g‘in harflarga asoslanadigan san’at bo‘lib, alifbodagi har bir harf misra boshida bir hijo sifatida keladi. O‘zbek mumtoz she’riyatida faqat Mashrab va Mahjur (Nodir –Uzlat) ijodida shu san’at asosida yozilgan bittadan she’r mavjud. Mashrabning 16 baytli g‘azal shaklida yozilgan she’rida 29 ta harf va hamza misralar boshida birinchi hijo bo‘lib kelgan:

Ey - Alifdek qomatingdan ibtido qildim bukun,

⁹⁴ Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. MAT, 7-том. – Т.:1991, 13-14- бет.

Be - Baloi dog‘i darding dilga jo qildim bukun.

Te - Tilovat qilg‘ay erdim oyati ruxsoringni,

Se - Savobi xatmi Qur‘on intiho qildim bu kun.

Jim - Jamolingni ko‘ray deb keldim, ey shohi jahon!

He - Hayotim boricha man iltijo qildim bukun...

Shoir Mahjur bu san’atni musaddas janrida qo‘llagan: har bandning birinchi misrasidagi birinchi harfni alifbo tartibida bergan va 29 ta harfga 29 bandli musaddas yaratgan.⁹⁵

Jome’ ul-huruf san’atiga Atoulloh Husayniy shunday ta’rif beradi: “andoq kalomdurkim, alifboning jami’ harflarin takrorsiz o‘z ichig‘a olmish bo‘lg‘ay ”.⁹⁶ Mavlono Lutfulloh Nishoriy degan shoir arab alifbosidagi 28 ta harfni qatnashtirib bir bayt she’r yozgan, qiziqarlisi shuki, baytda biror harf takrorlanmaydi.

Alisher Navoiy “Xamsa” asarida hurufi dalolatning go‘zal namunalari mavjud. “Hayrat ul-abror” dostonining ikkinchi maqolatini nomlashda ham aynan hurufi dalolat san’atidan foydalanilgan: “*Islom bobidakim, “alif”lari amniyat bog‘ining sarvlari durur va “sin”i saodat kasrining kungurasi va “lom”i latofat gulchehrasining sunbuli zulfi va “mim”i muhabbat mash’alining nuri va ul sarvlar soyasida yer tutmoq va ul qasr kungurasida talab kamandin solmoq va ul sunbuli zulfini habli matin qilmoq va ul mash’al nuri bila ko‘z yorutmoqning targ‘ibi*”. Ya’nikim, Islom dini amniyat, saodat, lutf va muhabbatga erishmoqning yagona yo‘li ekanligini Islom so‘zidagi har bir harfga muayyan ma’noni yuklash orqali bayon etadi. Sarvlarning soyasida yer tutishga, saodat qasri kunguralariga talab arqoni bilan chiqishga, latofat sunbuli zulfidan mustahkam arqon topishga, muhabbat mash’ali bilan ko‘zni yoritishga targ‘ib etadiki, bu uning Islom haqidagi e’tiqodini kengroq ochib berishga xizmat qiladi.⁹⁷

Hurufi dalolat san’atining go‘zal namunalarini “Farhod va Shirin” dostonida ham uchratishimiz mumkin. Navoiyning fikricha, azaldan har bir harf bir inoyat shohididir. Badiuzzamon Bahodir madhiga bag‘ishlangan 11-bobda shahzodaning ismi ikki xil usul bilan izohlanadi. Atayin g‘ayrat va tirishqoqlik ko‘rsatmasdan Allohdan boshqa shohlarga nisbatan ko‘proq tortiq olgan shoh “Badi ud-dahru Doroi zamon” bo‘ladi. Bu ta’rifdan “dahr-u Doro” qismini olib qo‘ysak,

⁹⁵ Исҳоқов Е. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2014.294-296 - бет.

⁹⁶ Ҳусайний Атоуллоҳ. Бадойиъу-с-саноийиъ. – Т.:1981.99-бет.

⁹⁷ Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аббор. MAT,7-том. – Т.:1991, 110-бет..

“Badiuzzammon” so‘zi ma’lum bo‘ladi, deydi Navoiy. Qisqa izohga qanoat qilmagan shoir endi bu ism zaminida nimalar borligini harfma-harf dalillashga kirishadi: ”be”- ehsonda birlik; ”dol”- davlatdan nishona; ”yo”-yumn (baxt,omad) dan darak; ”ayn”-adolat; ”alif”- o‘z shakli bilan to‘g‘rilik ramzi; ”lom”-lutf; ”ze”- abjad hisobiga ko‘ra 7 raqamini ifodalaydi, ya’ni yetti iqlimning nasib bo‘lishiga ishora; ”mim”- millat kiromi, musulmonlik nizomi; ”alif”- Allohning unga yor ekanligiga ishora; ”nun”- nasr (madad) Allohdan degan ma’nolarni bildiradi. Navoiy Xuroson davlati kelajagi masalasida Badiuzzamondan nimalarni kutayotganini hurufi dalolat orqali ifodalagan.⁹⁸

Farhodga ism qo‘yish bobida esa Navoiy muammo va hurufi dalolat san’atlaridan foydalanib Farhod ismiga ikki nuqtayi nazardan izoh beradi. Birinchisi muammo san’ati bilan bayon qilingan otaning nuqtayi nazari bo‘lib, unga ko‘ra yuzidan shohlik nuri yog‘ilib turgan chaqaloq kelajakda shoh bo‘lishi, unga himmat, iqbol va davlat yor bo‘lishi kerak edi:

*Jamolidin ko ‘rungach farri shohi,
Bu fardin yorudi mah to bamohi.*

*Qo ‘yub yuz himmat-u iqbol-u davlat,
Hamul far soyasidin topti ziynat.*⁹⁹

Muammoning yechimi: shohlik “farr”ining soyasiga (orqasiga) himmat, iqbol va davlat so‘zlarining yuzi, ya’ni bosh harfi qo‘shilsa, *Farhod* ismi kelib chiqadi.

Ikkinchi nuqtayi nazar ishq ustodiga, ya’ni Yaratganning o‘ziga tegishli bo‘lib, Farhod ismining “F”si firoqdan, “R”si rashkdan, “H”si hajrdan, “O”si ohdan, “D”si darddan olingan:

*Anga farzona Farhod ism qo ‘ydi,
Hurufi ma ’hazin besh qism qo ‘ydi.*

*Firoqu rashku hajr ila ohu dard,
Biror harf ibtidodin aylabon fard.*

*Borin ustodi ishq etgach murakkab,
Tarakkabdin bu ism o ‘ldi murattab.*¹⁰⁰

⁹⁸ Алишер Навоий. Фарход ва Ширин. МАТ, 8-том. -Т.:1991,56-58-б.

⁹⁹ Алишер Навоий. Фарход ва Ширин. МАТ, 8-том. -Т.:1991,67-б.

¹⁰⁰ Алишер Навоий. Фарход ва Ширин. МАТ, 8-том. -Т.:1991,67-б.

Navoiy *Farhod* ismining harflari orqali uning qismat chizgilarini aks ettiradi. Uning peshonasiga, otasi orzu qilganidek, shoh bo‘lish yozilmagan edi. Farhodni na xazinadagi boylik, na hashamatli to‘rtta saroyda o‘tkazilgan ziyofatlar, na toj-u taxt qiziqtiradi. U - ishq va dard timsoli, bu dunyoga nima maqsadda kelganini taqdir kitobidan o‘qiy olgan, o‘ziga kerakli xulosani chiqara olgan, majoziy ishqni takomiliga yetkazib, ilohiy ishq ostonasiga qadam qo‘ygan va vahdat ul-vujudga erisha olgan ko‘ngil odami.¹⁰¹

“Farhod va Shirin” dostoniga 1841-yilda tatabbu’ bog‘lagan uyg‘ur shoiri Abdurahim Nizoriy esa ikkinchi nuqtayi nazarni – Yaratgan tomonidan qo‘yilgan ismni yoqlaydi. Farhodning taqdirida ishq mayliga rag‘bat va amalni, “*fo*” harfining nuqtasiga, ya’ni ishq gavhariga mubtalolikni ko‘radi, uning ismidagi harflarni *furqat*, *rag‘bat*, *hijron*, *amal*, *dard-balo* so‘zlari bilan sharhlaydi:

*Chora kim nuquot zotida bor,
Bu besh harf ila ism topti qaror.*

*Bilingkim chu “*fo*” harfi Furqotga dol,
Ki “*ro*” si aning mayl rag‘batga dol.*

*Yana “*ho*” si hijrong‘a bo‘ldi qarin,
“*Alif*” dek qaddidur amalga yaqin,*

*Chu “*dol*” o‘ldi chakmakka dard- balo,
Ki, otidaki nuqtaga mubtalo.*

*Bu gavhar bo‘lib ishqning loyiqi,
Tariqat muhabbat aro sodiqi.¹⁰²*

Shu tariqa Alisher Navoiy ham, Nizoriy ham “Ismlar osmondan tushadi” degan hukmnинг to‘g‘riligini hurufi dalolat san’ati bilan isbotlab beradilar.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Sharq poetikasiga bag‘ishlangan asarlarda *hurufi dalolat* san’ati to‘g‘risida ma’lumotlar kam bo‘lganligi sababli bu she’riy san’atni ko‘pchilik *kitobat* va muammo san’atlari bilan chalkashtiradi. Holbuki, Navoiy hurufi dalolatni “Xazoyin ul-

¹⁰¹ Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т.: 1979, 183-бет

¹⁰² Рўзиева Д. Низорийнинг “Фарҳод ва Ширин” дostonи. ”Адабий мерос”, 1971. № 2. 71-бет

maoniy” kulliyotida ham faol qo‘llagan: har bir devonda 650 ta g‘azal radifi tugagan harfga binoan qat’iy alifbo tartibida turkumlarga ajratilgan va guruhlarga maxsus sarlavhalar ham ilova qilingan: “*Mim*” harfining mahbublarining malohati “navodir”din; “*Nun*” harfining nozaninlarining nozi “navodir”din kabi. Bizningcha, Alisher Navoiyning arab alifbosidagi harflardan timsol yaratish mahorati haqida so‘z ketganda hurufi dalolat san’ati ham tadqiq obyekti qilib olinishi kerak.

ALISHER NAVOIYNING “MASNAVIY”SI - TURKIY NOMANING BETAKROR NAMUNASI

Mumtoz adabiyotimiz tarixida yaratilgan masnaviylarni shartli ravishda ikki turga ajratish mumkin: 1) lirk masnaviy (shoirning lirk kechinmalari ifoda etiladigan she’r shakli); 2) epik masnaviy yoki doston (sujet asosida quriladigan katta hajmli asar).

„Xazoyin ul – maoniy “ kulliyotidan o‘rin olgan masnaviy lirk masnaviy bo‘lib, „G‘aroyib us-sig‘ar“ devoniga kiritilgan.¹⁰³ Masnaviy aslida noma janriga mansub bo‘lganidan ”Navoiyning Sayyid Hasan Ardasherga maktubi” deb ham ataladi. Maktub hasbi hol she’riyatning go`zal namunasi hisoblanadi.

Navoiy yigitlik davrining besh yilini Samarqandda o`tkazdi. Navoiyshunoslar uning bu shaharga kelishi sababi va nomaning yozilish tarixini turlicha talqin qiladilar. Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxon va Xondamir shoirning Samarqandga borish sabablarini ilm o`rganishga intilish bilan bog`laganlar. Bobur esa bu safarni “ixroj” – surgun deb atagan.¹⁰⁴ Bunda ham asos bor. 1457-yilda Abulqosim Bobur vafot etadi. Hokimiyat tepasiga Abisaid Mirzo keladi. Husayn Boyqaro taxt uchun kurashga sho`ng`ib ketgan vaqtda Navoiy Mashhadda o`qishini davom ettiradi. 1464 – yildagina Hirotgina qaytadi, biroq vatanida uni

¹⁰³ Навоий А.Хазойин ул – маоний: Фаройиб ус – сигар. Муқаммал асарлар тўплами,3-тум-Т.: “Фан”, 1988, 525-540 -бет

¹⁰⁴ Бобур З. М. Бобурнома .-Т.; “Ўқитувчи”, 2008,133-бет.

noxushliklar kutayotgan edi. Abusaid Mirzo u bilan taxt talashayotgan Husayn Boyqaroning yaqin kishilarini ta'qib ostiga olgan, shoirning tog`alari Mirsaid Kobuliy va Muhammad Ali G`aribiylarni qatl ettirgan edi. Alisherning ota mulki musodara qilingan, hatto yashash uchun boshpana ham qolmagandi:

*Ki bo`lmoq vatan ichra dushvor edi,
Ko `ngulga jalo daf'i ozor edi.*

Boshiga tog`alarining kuni tushishini istamagan Navoiy kutilmaganda Hirotdan ketib qoladi. Uning rejalarshirilmagan safari zamondoshlari va do`stlari o`rtasida og`ir taassurot qoldiradi. Navoiy rasman surgun qilinmagan edi. O`ziga – o`zi podshoning ko`zidan uzoqda turishga hukm chiqargan edi. Samarqand safari haqidagi mishmishlarga aniqlik kiritish uchun o`zining eng yaqin kishisiga xat yozib, vatandan ketishining sabablarini tushuntirib beradi.

Maktubning qachon yozilgani haqidagi fikrlarda ham har xillik bor. Ayrim mutaxassislar masnaviyni Navoiy Hirotdan Samarqandga jo`nash oldidan yozgan deb hisoblaydilar. Shoir safar oldidan Sayyid Hasan Ardashev bilan xayrashmoqchi bo`ladi, lekin uni topmagan. So`ng ushbu maktubni qoldirgan. Ikkinchisi guruh muhaqqiqlar, jumladan akademik Vohid Abdullayev, professor Natan Mallayevlar maktubning Samarqandda yozilganini yoqlaydilar.¹⁰⁵ Navoiy Samarqandga siyosiy mahbus sifatida yuborilgani uchun ixrojning dastlabki yillarda juda ko`p qiyinchiliklarga chidashiga to`g`ri keladi. Bu vaqtarda shoir podshoh Abusaid Mirzoning o`g`illari Sulton Ahmad va Sulton Mahmud Mirzolarning nazorati ostida bo`lgan. Navoiy ustoz, ma`naviy otasi Sayyid Hasan Ardasherga yozgan maktubida moddiy va ma`naviy tomonidan tang ahvolda qolganini bayon qilmagan, lekin zakiy Ardashev vaziyatni tushunib, Fazlulloh Abullaysiy hamda Xoja Ahror Valiylarga maktub yo'llab, Alisherga ko'mak berishlarini so'ragan ko'rindi. Ana shundan keyingina buyuk faqih Fazlulloh Abullaysiy Alisher Navoiyga o'z madrasasidan joy berib, panohiga oladi. Samarqand a'yonlarining Navoiyga munosabati ijobiy tomonga o`zgargan.¹⁰⁶ Masnaviyni sharhlab o'rganish orqali uning yozilish tarixi va Navoiyning Samarqand "ixroji" sabablariga aniqlik kiritish mumkin. Maktub Hamd va Na't

¹⁰⁵ Абдуллаев В. Навоий Самарқандда – Т.: "Билим", 1967, 33 б. // Маллаев Н. Ўзбек адабиети тарихи. - Т.: "Ўқитувчи", 1965- 659 б.

¹⁰⁶ Vohidov R., Eshomqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma – Т.:O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.2006,217-bet.

baytlar bilan boshlanadi. Olloho ni “*Alimeki, yo`qtur bidoyat anga, Azimeki, yo`qtur nihoyat anga*” deb ulug`laydi. Muqim yashaydiganlarning yo`ldoshi, safarga chiqqan ovoralarning rahbari bo`lgan Zot Navoiyday bir solikni dashtga yo`llab, tavakkalni unga yo`l ozig`i qildi:

*Hazar ichra bechoralar yovari,
Safar ichra ovoralar rahbari;*

*Ne solikkakim, dasht etib jilvagoh,
Tavakkulni aylab anga zodi roh;*

*Anikim qilib ishqdin yoralig’,
Nasib aylabon anga ovoralig’.*

Tavakkul barcha yaxshi – yomon ishlarni Xudodan deb bilish, barcha hollarda va amallarda Allohga suyanish, o`zini bir faoliyat asbobi hisoblash, Xudodan o`zga narsalar ham Xudodan ekaniga chuqur ishonishdir. Inson juda ko‘p ishlarga qodir, ammo bu harakatlarning bari Olloh qudrati tufayli ekanini anglashi shart. Xudoning irodasi bizning irodamizga hokimdir.

Bizning irodamizni boshqaruvchi Tangri birovga necha g`urbatlar yuborib, uni bir yerda muqim yashab xor bo`lishga mahkum etsa, boshqalarni el ichra xor qilib, yana u eldan qochib ketishga majbur qiladi. Navoiy safar mashaqqatlarini tasvirlar ekan, hech narsa bejizga bo`lmaydi, Olloh safar azoblarini do`zaxdan nishona qilib yaratgan, do`zax ranjini shu yo`l orqali bandalariga eslatib qo`yadi, deb ta’kidlaydi.

Maktubning ilk misralaridan shunday xulosa qilish mumkinki, Navoiy tavakkal qilib safarga chiqqan, Hirot va Samarcand orasidagi bir haftalik yo`lni karvon bilan qiynalib bosib o`tgan.

Mashaqqatli safar kechinmalaridan so`ng o`z otasidek yaqin ko`rgan insoni - Sayyid Hasan Ardasherning sifatlari ta`rif etiladi. Navoiyning yozishicha, Sayyid Hasan Ardascher o‘z davrining ilm, adabiyot va tasavvufda eng yetuk kishisi bo`lishi bilan birga qator oljanob insoniy fazilatlarga ham ega shaxs bo`lgan:

*Jamol ichra tong boshi Nohiddek,
Kamol ichra tush vaqt va surshiddek.*

*Vafo anga pesha, saxo anga fan,
Vafov u saxo koni Sayyid Hasan.*

*Zihe ravzadin xulqung ortuq base,
Kelib bog`i qadringda Tubo xase.*

Shoir ustozining fazl va kamolotini, vafodorligi va saxiyligini yuksak baholab, uning xulqini jannatdan, qadri bog`ini jannat daraxtlaridan ortiq deb tasvirlaydi. Notinch zamonada Ardasher saroydan uzoqlashib, asosiy vaqtini adabiyotga, ilm-fanga bag`ishlashga harakat qilgan ekan. Shu sababli Navoiy Hirotdan chiqib ketayotganida aziz insonini ko`ra olmagan. Vatan va do`stlarni tashlab ketish og`ir. Xayrashmay ketish undan ham og`ir:

*Mangakim, vijodingg`a xursandmen,
Janobinga shogirdu farzandmen.*

*G`ame yetti charxi jafo peshadin,
Hamul anjumi xorij andeshadin.*

*Ki bo`lmoq vatan ichra dushvor edi,
Ko `ngulga jalo daf`i ozor edi.*

*Safar tushti olim`a beixtiyor,
Qazo amrida elga ne ixtiyor.*

Bunda Navoiy o`z boshiga g`am-tashvish tushgani, Vatanidan, ya`ni Xurosandan beixtiyor chiqib ketgani, bu yerda qolish dushvor bo`lib qolgani haqida gapirodi. Navoiy Samarqandga ketganda 24—25 yoshlarda bo`lib, bu vaqtda u katta shoir, bilimdon olim sifatida xalq orasida, ilm va adabiyot ahllari o`rtasida keng tanilgan edi. Shuning uchun uning kutilmaganda Hirotdan ketib qolishi zamondoshlari o`rtasida, Hirotda ham, Mashhadda ham og`ir taassurot qoldirdi. Navoiyning do`st va dushmanlari uning «safar»ini turlicha talqin qilganlar.

Ustozi va ma`naviy otasidan “safaringiz qarib vatanga qaytishni mayl qilsangiz, ahbobni may bilan shod qilgan chog`ingizda, meni ham yod aylang” deb o`tinadi. Afsuski, do`stlar shoirning Samarqandga ketishi sababini bilishmaydi:

*Chu ahvolimdan ahbob ogoh emas,
Degaylar hadisekim, dilxoh emas.*

Shuning uchun u ulug` do`stiga Xurosandan ketishining asl sabablarini xat orqali batafsil ma'lum qilmoqchi bo`ladi.

Masnaviyda Navoiyning Samarqandga ketishining uchta sababi ko`rsatilgan.

1-sabab:

*Bir ulkim, chu so`zdindur inson sharif,
Chu hayvong`a so`z yo`qtur uldur kasif.*

*Ko`ngil durji ichra guhar so`zdurur,
Bashar gulshanida samar so`zdurur.*

*Erur so`z falak jismining joni ham,
Bu zulumotning obi hayvoni ham.*

Birinchi sababning ilohiy so`z ta'rifi bilan boshlanishi bejiz emas. Shoirning yozishicha, dunyoda eng mo`tabar, ulug` narsa bu so`zdir. So`z falak jismining jonidir, shuning uchun Iso Masih so`z vositasida o`lik tanni tiriltirdi; so`z zulumotning obi hayvonidir, shu bois o`liklar uning zilolidan jon topadi. El so`zni ulug`lamoqchi bo`lsa, yana unga murojaat qiladi. Navoiyning fikricha, so`z ayniqsa she'riyatda yanada ortiqroq go`zallik, kuch-qudratga, qadr-qimmatga ega bo`ladi:

*Javohir necha xo`bu dilkash durur,
Vale nazm silki aro xush durur.*

So`z ichra, ya`ni nasrda aytigan yolg`onni el pisand etmaydi, lekin nazmda o`zga hol: she`rdagi yolg`onni donolar yuksak qadrlaydilar. Shoirlik qobiliyati Olloh tomonidan yuborilgan ilohiy ne'matdir. Navoiy turkiy tilda qalam tebratishda nodir ekanini shoirona tasvirlash bilan birga «turk nazmi»da ijod etganidan g`urur va iftixor tuyg`ularini ifoda etadi. Adabiyotning, xususan turkiy she'riyatning qudratini ulug`laydi:

*Men ul, menki, to turk bedodidur,
Bu til birla to nazm bunyodidur.*

*Falak ko`rmadi men kibi nodire,
Nizomiy kibi nazm aro qodire.*

*Ne nazme der ersam meni dardnok,
Ki, har harfi bo`lg`ay aning durri pok.*

Tomirida yigitlik qoni jo`sh urayotgan pallada o`zida she`r yozishga juda katta kuch-qudrat sezayotganini aytadi. Shunday qudratki, agar Firdavsiy o`z "Shohnoma"sini 30 yilda yozgan bo`lsa, u o`shanday asarni 30 oyda yoza oladi. Nizomiy Ganjaviyning 30 yil sarflab maydonga keltirgan "Xamsa"si uning oldida 2-3 yillik ishdir. Faqat

buning uchun vatanida sharoit yo`qligidan shikoyat qiladi. Demak, Navoiy Samarqandga, avvalo, ijod qilish uchun osoyishta bir adabiy muhitni izlab kelgan. Akademik V. Abdullayevning fikricha, Samarqand adabiy muhiti Alisher Navoiyni yosh shoirlilik maqomidan ustozlikning yuksak darajasiga ko`tarilishiga imkon yaratdi.¹⁰⁷

2-sabab:

*Yana bir bukim — zohir o`lmish mango,
Ki chiqmish Xuroson elidin vafo.*

*Vafo azm aylarda bo`lmish magar,
Saxou muruvvat anga hamsafar.*

*Bu uch fe'l chiqqach arodin tamom,
Yana bo`lmish uch fe'l qoyim maqom.*

Xuroson notinch, odamlarda vafo yo`q. Insoniylik qolmagan, zulm avjida. Vafoning o`rnini nifoq, saxovat o`rnini baxillik, muruvvat o`rnini hasad egallagan. Obod mamlakat ko`rimsiz vahshatobodga aylangan, go`yo behisht g`oyib bo`lib, o`rnida tamug` paydo bo`lganday. Mamlakat shohi xalq uyini katakdek buzib, tovuq o`rniga boyo`glini o`tqizib qo`ygan. Odamlarda kishilikdan nishona yo`q, hamma joyda yomonlik hukmron. Yurtni shayton-u devlar egallab olgan:

*Bo`lub lomakon sathidin xonlari,
Adam mulki bu`doyidin nonlari.*

*Qora pul uchun aylabon qatl fan,
O`luktin tama` aylab ammo kafan.*

Birov qo`lga tushsa, “o`g`ri” deb barmog`ini kesmoqqa, bir bedilning boshiga o`lim kelsa, qotilga yordam bermoqqa shoshadilar. Buning ustiga Xuroson ahli Samarqand ahliga zor-u asir bo`lib qolgan. Shuning uchun shoirligi davlatdan umid qila olmaydi. Bu vatanda ko`ngil orom topadigan bir hujra yo`q. Hatto tasalli beruvchi kishi ham yo`q. Ketaman, desa etagidan tutadigan umr yo`ldoshi, ketsa ayriliqdan eziladigan do`sti yo`q. Nogoh o`lim yoqasidan tutsa, suv berguvchi yaqini yo`q.

*“Sen erdingki, har ishda yorim eding, Ne g`amkim, yetar,
g`amgusorim eding”, -*

¹⁰⁷ Абдуллаев В. Навоий Самарқандда . - Т.: ” Билим ” , 1967, 8-бет

deya Sayyid Hasan Ardasherga murojaat qiladi. Afsuski, taqdir ularni o`sha damda bir-biridan yiroqda tutdi.

Demak, bu vaqtida Xurosondagi ma`naviy hayot nihoyatda yomonlashib, eldan “vafo, saxo, muruvvat” ketgan, bu uch narsaning o`rnini “nifoq, buxl va hasad” egallagan. Amaldorlar orasida ta`magirlilik, ikkiyuzlamachilik, fisq - u fasod avj olgan edi. Zulm va zo`rlik mamlakat osoyishtaligini buzib, kishilarni turli tomonlarga bosh olib ketishga majbur qilayotgan edi.

3-sabab: Samarqandga ketishning yana bir sababi ilm egallahga bo`lgan ma`naviy ehtiyojdir. Navoiyning fikricha, inson “Haq sirrining mahrami” qilib yaratilgan ekan, Olloho ni ma`rifat orqali tanishi kerak. Navoiyning yozishicha, Xudoning osmonni ham, yerni ham, jahondagi hamma narsalarni yaratishdan maqsadi insonni yaratish, insonni yaratishdan maqsadi irfon edi. Dunyodagi bor mavjudot inson uchun yaratilgan ekan, demak inson o`z navbatida, g`aflatga berilmasdan, atrofini qurshagan borliqning va bu borliqni yaratganning sirlarini bilishga, ya`ni irfonga intilishi, yashirin xazinalarni ochishga harakat qilishi kerak. Inson esa, uning fikricha, bunga ikki yo`l bilan erishishi mumkin. Biri – o`z harakati bilan, ikkinchisi - shu maqsadga erishgan «murshidi komil» ning etagini mahkam ushlashi bilan. Navoiy bu yo`lda «murshidi komil» bilan ish ko`rishni o`ziga maqbul ko`radi.

Ma'lumki, Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, Olloho ni tanish ikki yo`l orqali amalga oshiriladi:

1. Haqdan jazba yetishi, ya`ni Olloho yodi bilan o`zligidan bexabar bo`lib yurish, maqomlarni egallamasdan turib, hol martabasiga erishish.

2. Pirga qo`l berib, uning irodasi bilan riyozat chekish va undan so`nggina jazba yetishi, ya`ni tariqatdagi bosqichlarni bosib o`tib hol martabasiga erishish.

Jazba - Haqning bandalariga va bandalarining Haqqa intilishidir. Irodani Illoha bog`laydigan darddir. U ko`ngilni betoqat etib, faqr-u fano yo`liga yetaklayveradi:

*Anga qolmag`ay ham o`zidin xabar,
O`zidin nekim, o`zligidin asar.*

Jazba qancha kuchli bo`lsa, solik shuncha tez tariqat odobini egallab oladi, qalb ko`zi ochiladi, holga kiradi. Agar jazba yetarli bo`lmasa, ko`zlangan maqsadga erisholmay, yarim yo`lda qolishi mumkin. Jazba tug`ma yoki suluk jarayonida solik qalbiga nozil bo`lishi mumkin.¹⁰⁸

¹⁰⁸ Комилов, Н. (2009) Тасаввуф. -Т.: «Мовароуннаҳр», 2009, 22-бет.

Navoiyning fikricha, Sayyid Hasan Ardascher tug`ma jazba tekkan kishilardan edi. Tug`ma faqirligi ko`ringan solikni ”majzubi solik”, suluk davomida jazba paydo qilgan solikni “soliki majzub” deb nomlaganlar:

*Alarkim nishoni masolik debon,
Burung`ini majzubi solik debon.*

*Bu birningki, har amri marg`ubdir,
Otin solike debki, majzubdur.*

*Chu avvalg`i ish bo`lmadi dastgir,
Ikkinchisidin xo`b emastur guzir.*

Alisher Navoiy birinchi yo`lga erishish muyassar bo`lmaqach, ikkinchi yo`lni tanlaydi: piri komil topib, o`zini unga topshirishga qaror qiladi. Agar bu niyati amalga oshsa, shuncha ovoraliklar, azob-uqubatlarning mukofotiga – Ollohnning visoliga erishadi. Noma oxirida o`z maqsadiga erishish uchun kuchi va imkonи boricha intilajagini aytadi. Bu maqsadiga erishishiga ishonch va umid bildiradi:

*Urarmen qadam toki, borg`uncha gom,
Ki bo`lg`ay muyassar menga ushbu kom.*

*Agar bo`lsa bu yo`lda umrum talaf,
Chu bu yo`ldadur ul ham erur sharaf.*

Masnaviyning poetikasiga to`xtaladigan bo`lsak, maktub noma janrining eng go`zal, noyob namunalaridan biri hisoblanadi. Asar boshidan oxirigacha kuchli ehtiros bilan yozilgan. Ohangning silliqligini o`ynoqi vazni ta'minlagan. Masnaviy mutaqoribi musammani mahzuf (yoki maqsur)da yozilgan bo`lib, bu vazn turkiy xalqlarning she'riy tizimi – barmoqning eng faol shakllaridan biri bo`lgan o`n birlik turkumiga ham miqdor, ham ohang jihatdan uyg`un. Shu sababli misralar ravon o`qiladi va tez yodda qoladi. Safar mashaqqatlari tasvirlangan Hamd qismida tovushlar takrori lirik qahramonning ruhiy holatini ochib berishga xizmat qilgan:

*Musofirni yo`ldin kecha gum qilib,
Yonig`a aning qumni qoqum qilib. (q tovushi takrori)*

Navoiy tazod san'atidan foydalanib, Ollohnning qudrati, karami naqadar cheksiz ekanini ta'kidlaydi:

*Ko`ngilsizga mushfiq, kishisizga yor,
Umidi yo`q el andin ummidvor.*

Sayyid Hasan Ardasherning ta’rif-tavsifida mubolag`a san’ati yetakchilik qilsa, ilohiy so`z ta’rifida tashbeh san’ati yetakchidir. Navoiy Samarqandga safar qilgan vaqtida she’r yozish salohiyati qay darajaga yetganini talmeh, ruju’, tajnis, jonlantirish san’atlari orqali juda go‘zal ifodalab bergen:

*Agar xossa ma’no gar iyhom erur,
Aning kunda yuz bayti halvom erur.*

*Vale ayt deb, kim manga tutdi yuz,
Ki, men yuz uchun demadim ikki yuz.*

*Ne yuz, ne ikki yuzki, bu kilki tez,
Atorud bila qilsa zohir sitez,*

*Aning sayri bir davr oxir bo‘la,
Falakni latoyifdin etgay to‘la.*

Xurosondagi siyosiy ahvolni tasvirlar ekan, istiora san’atining imkoniyatlaridan unumli foydalanadi. Bosqinchilarga bo`lgan nafrat-u noroziligini dev, shayton, xazinani sog‘inib kelgan ilon, obod o‘lkani vayronaga aylantirib, unda hukmronlik qilishni istagan boyo`g`li timsollari orqali ifodalaydi. Tariqatga kirish istagi bayon qilingan baytlarda tasavvufiy atamalar sodda tilda sharhlanadi; suluk, murshidi komil, fano dashti, jazba, majzubi solik, soliki majzub istilohlari qatnashgan uchinchi sabab bayoni boshidan oxirigacha tanosib san’atiga asoslanadi.

XULOSA: 1. Alisher Navoiy “Masnaviy” sarlavhasi bilan “G`aroyib us-sig`ar” devoniga kiritgan Sayyid Hasan Ardasherga atalgan maktubini Samarqandda yozgan.

2. Maktubda do`stlari va yaqinlarini ogohlantirmay Samarqandga ketib qolishining uchta sababi berilgan: 1) ijod qilishga bo`lgan kuchli istak; 2) yurtning notinchligi; 3) ilm egallahsga bo`lgan ma’naviy ehtiyoj.

3. Alisher Navoiy Samarqandga kelgach, dastlabki vaqtarda moddiy va ma’naviy qiyinchiliklar ichida yashagan. Sayyid Hasan Ardasherning Fazlulloh Abullaysiy hamda Xoja Ahror Valiylarga maktubidan keyin shoirning hayoti ancha yaxshilangan.

4. Masnaviy orqali Navoiy o‘z ijodida birinchi marta ijtimoiy-siyosiy masalalarga jiddiy qo`l urib, o`zaro nizolar tufayli xalq boshiga tushgan mushkulotlarni, davrning ijtimoiy manzarasini haqqoniy tasvirlab berdi.

5. Masnaviy o`sha davrdagi noma janri talablaridan ancha yuqori saviyada yozilgan bo`lib, g`oyaviy-badiiy jihatdan mustaqil liro-epik asar darajasiga ko`tarila olgan.

A.NAVOIYNING “MUNOJOT” NASRIY ASARI TILI HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy umrining so‘nggi o‘n yilda asosan nasriy asarlar yozish bilan mashg‘ul bo‘lgan, nasrning imkoniyatlari nazmga nisbatan kengroq ekanligini tushungani uchun ham ma’lum maqsadlar bilan nasrga murojaat qilgan. Bu maqsadlarning qanday ekanligi har bir nasriy asarning yozilish sabablari va unda qalamga olingan masalalarning mohiyatini ochishda , tilimiz imkoniyatlaridan qanday foydalanganliklarini tahlil qilish chog‘ida oydinlashadi Navoiyning nasriy asarlari janr xususiyatiga ko‘ra quyidagicha tasniflanadi:

1. Ilmiy filologik xarakterdagi asarlar: “Muhokamat ul-lug‘atayn”, Mezon ul-avzon”, “Majolis un-nafois” .

2. Memuar-biografik xarakterga ega bo‘lgan asarlar: “Hamsat ul-mutahhayirin”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”. “Holoti Pahlavon Muhammad”.

3. Ijtimoiy-falsafiy va didaktik xarakterdagi asarlar: “Mahbub ul-qulub”, “Munojot”.

4. Tarix, tasavvuf va din tarixiga oid asarlar: “Vaqfiya”, “Tarixi muluki ajam”, “Nasoyim ul-muhabbat”, “Tarixi anbiyo va hukamo”.

5. Epistolyar proza namunasi: “Munshaot”.

6. Devonlarga yozilgan “Debocha”lar.

Shubhasiz, bu nasriy asarlarning tili uslub, janr, maqsadni oolib berishda til imkoniyatlaridan foydalanish mahorati nuqtayi nazaridan bir-biridan farqlanadi. Nasriy “Munojot” esa Navoiyning mansur asarlari orasida til va uslub nuqtayi nazaridan eng qusursizi hisoblanadi.¹⁰⁹

¹⁰⁹Навоий Алишер. Муножот . Т.:”Камалак”, 1991, 5- бет

Nasriy “Munojot” “Bismillo”, “Hamd”, “Na’t” va “Munojot” kabi to‘rt qismdan iborat. “Hamd” va “Na’t”dagi fikrlar Navoiy dostonlari avvalidagi hamd va na’tlardagi qaydlar bilan mutlaqo hamohang bo‘lib, Ollohning buyukligi, azaliy va abadiyligi, yagonalik sifatlari, Muhammad payg‘ambarning ta’rifini beradi. “Munojot” qismi esa bevosita Ollohga murojaat tarzida bitilgan. Muallif undan afv iltijo qilib, o‘zini gunohkor, Ollohning karamli ekanini ta’kidlaydi. Oltmis yillik umrini qalb prizmasidan o‘tkazib, Olloh nazdida tavba-tazarru qilish ehtiyojini sezadi. Buyuk dahoning Ollohga iltijolarida ham uning dunyoqarashi va shaxsiyatidagi umumbashariy nuqtalar bo‘y ko‘rsatib turadi.

“Munojot” matnidagi gaplar gap bo‘laklari va gap qurilishi jihatidan tahlil qilinganda, Navoiyning g‘oyani ifodalash uchun sintaktik birliklardan mohirona foydalanganini ko‘rishimiz mumkin. Gapning mazmunidan kelib chiqib gap qurilishi tanlangan. Ma’lumki, muayyan voqealarni ifodachisi sodda gap bo‘lsa, voqealar o‘rtasidagi munosabatlarning ifodachisi qo‘shma gap hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, til belgisi sifatidagi qo‘shma gapning mazmuni voqealar o‘rtasidagi munosabatlardan iboratdir. Voqealar o‘rtasidagi munosabatlarni ifodachisi shakldir. “Munojot ”dagi gaplardan faqat bittasi sodda gap, qolganlari qo‘shma gap, murakkab qo‘shma gap shaklida ekanligi, shubhasiz, asar g‘oyasi bilan chambarchas bog‘liq.

Arab yozuvida tinish belgilarining mavjud emasligi matnda sodda gapni qo‘shma gapdan, qo‘shma gapni murakkab qo‘shma gapdan farqlashda hozirgi kun o‘quvchisiga biroz qiyinchilik tug‘diradi. Navoiy bu muammoni qo‘shma gapni hosil qiluvchi bir nechta lisoniy vositalardan foydalanib hal qilgan: 1) predikativlik belgisi: *Ilohi, yo‘q erdim, bor etting, tifl erdim, ulug‘lar jarg‘asig‘a qotting, ammo nafsu havo elidin zuhlum niholin ushotting* va ofiyatim xaylin yozuq sipohi turk tozidin *tarqatting* (mayl, zamon ,shaxs-son qo‘shimchalari va zid ma’noli so‘zlar);

2) qo‘shma gapni hosil qiluvchi grammatik vositalar (bog‘lovchilar va bog‘lovchi vazifasida keluvchi birliklar): *Ilohi, agarchi zalolatqa tushubmen, ammo hidoyatingga talabgormen va agarchi tamug‘ o‘tig‘a tushkali yovushubmen, ammo rahmatingdin umidvormen* (teng va ergashtiruvchi bog‘lovchilar);

3) lisoniy vositalar : *Bu ofatlarning iloji senga osondur, menga dushvor*(olmoshlar va zid ma'noli so'zlar);

4) nasrda saj' san'atini hosil qiluvchi qofiyadosh so'zlar:

Ilohi, lahvu havo mayidin mastmen, ushbu ryo jomidin mayparastmen, bu dastovizlar bila shaytong'a hamdastmen.

Turkiy tillarning o'ziga xos grammatik xususiyatlaridan biri kesimning hamma so'z turkumlari bilan ifodalana olishidir. Eski o'zbek adabiy tilida ham, qadimgi va eski turkiy tillarda kuzatilganiday, kesim ko'proq ot va ot ma'nosidagi so'zlar bilan ifodalangan.¹¹⁰ Nasriy "Munojot"ning "Bismillo", "Hamd" va "Na't" qismida keltirilgan gaplarning barchasi qo'shma gap qolipida bo'lib, ularning tarkibidagi gaplarning aksariyati ot kesimli gaplardir.

Islomiy aqidaga ko'ra, banda o'zining chinakam holatini anglagan sayin Allohnинг ulug'ligini, marhamati va rahmati cheksizligini his etadi hamda o'zining g'arib, gunohkorligini chin dildan e'tirof qiladi. Alisher Navoiy yuksak e'tiqod egasi bo'lganlari uchun Ollohnинг go'zal sifatlarini nafaqat she'riy "Munojot"larida, balki nasriy dil izhorida ham go'zal tashbehlar bilan vasf etadi. "Bismillo" va "Hamd" bo'limida ot kesim vazifasida kelgan ot, sifat, olmosh turkumiga oid so'zlar, shubhasiz, Ollohnинг sifatlari va ismlari ma'nosini ta'kidlashga xizmat qilgan. Bunday gap qurilishi shakli sintaktik birlik mundarijasi bilan bog'liq bo'lib, Navoiyning oliy maqsadiga, ya'ni Ollohnинг buyukligi, azaliy va abadiyligi, yagonalik sifatlarini ta'riflash mazmuniga zid emas: *Ism — sening isming va rahmonliq va rahimliq — sening qisning, sen — ganj va ofarinish — tilisning. Isming jam'i sifoti — asmoi husno, rahmonlig' va rahimligingg'a yuz ming hamdu sano. Rahim ham sen, rahmon ham sen, azim ham sen, subhon ham sen. Zoting — qayyumi barhaq, vujudung boqiyi mutlaq.*

"Na't" bo'limi beshta gapdan iborat bo'lib (bittasi arabcha jumla), murakkab qo'shma gaplarning tarkibidagi kesimlarning barchasi ot kesimdir. Ularda payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning ta'rifi beriladi. *Yuz yigirma to'rt ming anbiyoyi mursal xilqatidin murod ul va barcha anga xayl va o'n sekiz ming olam ixtiro'idin maqsud — ul va ofarinish anga tufayl. Nubuvvat taxtida humoyui farqi uzra toj, anbiyoyu rasul xaylida sohibme'roj, avvalinu oxirin xalqi aning shafoatiga muhtoj. Na't g'azallarida qalamga olingan me'roj tavsifi va ul zotga bo'lgan*

¹¹⁰ Abdurahmonov G', Shukurov Sh, Mahmudov Q. O'zbek tili tarixiy grammatikasi : fonetika, morfologiya va sintaksis.T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. 341- b.

cheksiz muhabbat nasriy matnda mavjud bo‘lish , belgiga ega bo‘lish mazmunini tashuvchi ot kesimli gaplar shaklida ifodalangan: *Buroqi inoyat aning markabi ulvi xiromi va Jibrili hidoyat aning payki barqgomi, laylat ul-me’roj aning shabistoni va «li ma’ollohi vaqtun» aning maqomi.*

“Munojot” qismidagi barcha gaplar bevosita Ollohga murojaat bilan boshlanadi. Muallif undan afv iltijo qilib, o‘zini gunohkor, Ollohning karamli ekanini ta’kidlaydi: *Ilohi, akram ul-akramin — sen va men — gunohkor. Ilohi, arham ar-rohimin — sen va men tiyra - ro ‘zgor.*

Misollardan ko‘rinib turibdiki, ot kesimlar bog‘lamasiz qo‘llangan va bu holat Navoiy davridagi adabiy til uchun me’yor sanalgan.

Badiiy tasvir vositalaridan biri bo‘lgan nido usuli (undalma) nazmda lirik qahramonning boshqa shaxsga murojaat etgan holda o‘zining ichki kechinmalari, tuyg‘ulari, tilaklari, mulohazalarini bayon qilishni nazarda tutadi. Nido usuli diniy asarlarda Ollohga, payg‘ambarga iltijo tarzida qo‘llanadi. Alisher Navoiy nasriy matnda o‘zining ma’naviy qiyofasini jonli, ta’sirli ifodalash maqsadida undalmadan unumli foydalangan:

Ilohi, yigitlig ‘im bu nav’ ham qatig ‘o ‘tti, ham achig’, qarilig ‘da yuz qatla o ‘zumni o ‘ltursam ne asig’.

Ilohi, emdi hamkim, barchadin kechmak xayolin qilurmen, o ‘zlugum bila kecha olmon, yaqin bilurman.

Ilohi, andoqli, bu balolarg ‘a solding, qutqor va andoqkim, bu ibtilolarg ‘a kiyurdung, chiqor.

Ilohi, men tavba qildim degandin ne sud, sen tavba bergilki, ham Tavvobsen-u ham Ma’bud.

“Munojot” qismidagi kesimlarning morfologik qiyofasi ham o‘quvchining diqqatini tortadi. Ollohning sifatlariga bandasining illatlari, qusurlari zid qo‘ylgan gaplarda muallif ot kesimlarga murojaat qilgan. Qahramonning ijobiy istaklarini aks ettiruvchi, nimanidir man etuvchi; nimanidir buyuruvchi yoki biron narsadan qaytaruvchi gaplarda amr va nahiyl (“buyurish va man qilish”), tamanni’ (“orzu-istagini bayon qilish”) usullaridan foydalilanilgan. Bunday gaplardagi fe’l kesimning asosiy vazifasi endi qahramonning “Olloh tomonidan qismat etilgan sa’y-harakatlari” va zamona teskariligi, davr kajraftorligi haqidagi o‘kinchli nolalari, zulmkorlik, behayoliklardan ma’lul bo‘lgan dilidan otilib chiqqan alamli nidolari, ichki kechinmalarini bayon etishga qaratiladi:

Ilohi, agar havasdin bosh-ayog ‘yalang har yon yugurdum, boshdin-ayog ‘im yomon erkanin xaloyiqqa bildurdum.

Ilohi, agar shavq jununidin ko ‘ksumga tosh urdum, ul tosh bila nangu nomusum shishasin sindurdum.

Ilohi, gohi bu junundin atfol toshin boshimg ‘a yog ‘durdum, gohi ahbob malomati nishin ko ‘nglumga yetkurdum.

Nasriy “Munojot”ning boshqa nasriy asarlardan farqi, avvalo, qofiyadosh so‘zlardan maqsadli foydalilanilganlikda ko‘rinadi. Mumtoz she’r ilmining bilimdoni Anvar Hojiahdmedov ta’kidlaganlaridek, “Qofiya she’riy asarlarda ifodalanayotgan ijtimoiy-axloqiy g‘oyalar, teran falsafiy mushohadalarni badiiy so‘z vositasida jozibali va ta’sirchan aks ettirishning muhim vositalaridan biridir”.¹¹¹ Nasriy “Munojot”da qofiyadosh so‘zlarga to‘rt xil vazifa yuklangan: 1) epik qahramonning ma’naviy qiyofasini ochib berish ; 2) o‘quvchining diqqatini matndagi eng muhim fikrlarga jalb etish; 3) nasriy asarning musiqiyligini, jozibadorligini ta’minalash; 4) fikr tugalligini shakllantirish.

Qofiyadosh so‘zlar nasriy “Munojot”da qo‘shma gapning barcha turlarida kesim vazifasida keladi. Masalan:

1. Bog‘langan qo‘shma gapda: *Ilohi, beiloj dardga alil qilma va bemuruvvat nomardga zalil qilma.*
2. Ergash gapli qoshma gapda: *Ilohi, agar af’olimga boqsam, uyot o‘lturur va sening karamingni sog‘insam, ummid tanimg ‘a jon kelturur.*
3. Bog‘lovchisiz qo‘shma gapda: *Ilohi, taqdir qilg‘anigni qilurg ‘a ne ixtiyor, qilmasmen demakka kimning haddi bor.*
4. Aralash murakkab qo‘shma gapda: *Ilohi, yomon af’olimdin parishonlig ‘im cho ‘qtur va shum nafsimda pushaymonliq yo‘qtur, mundoq balodin qutulurg ‘a ummidim sendin-o ‘qtur.*
5. Qismlari uyushgan murakkab qoshma gapda: *Ilohi, lahv u havo mayidin mastmen, ushbu ryo jomidin mayparastmen, bu dastovizlar bila shaytong ‘a hamdastmen.*

Misollardan ko‘rinib turibdiki, qofiyadosh so‘zlar bilan ifodalangan kesim gapning mazmunini ochib berishda va gapning shakllanishida muhim o‘rin tutmoqda.

Eski o‘zbek adabiy tilida kesimlarni qator ketma-ket keltirish yo‘li bilan murakkab fikrlar ifodalangan. Alisher Navoiy murakkab qo‘shma gaplarning yigirmaga yaqin qolipidan foydalaniib, tavba-tazarruning go‘zal namunasini yaratgan. Sodda gapning minimal qolipi bo‘lgan

¹¹¹ Ҳожиахмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. Т.: 1999 , 196 - бет.

shartli qisqartma [WPm] yordamida matnda eng ko‘p qo‘llangan murakkab qo‘shma gap qoliplariga misollarni keltirib o‘tishni joiz deb bildik:

1) WPm **va** WPm **va** WPm **va** WPm: *Yuz yigirma to‘rt ming anbiyoyi mursal xilqatidin murod ul va barcha anga xayl va o‘n sekiz ming olam ixtiro ‘idin maqsud — ul va ofarinish anga tufayl.*

2) WPm , WPm, WPm : *Nubuvvat taxtida humoyui farqi uzra toj, anbiyovu rasul xaylida sohibme’roj, avvalinu oxirin xalqi aning shafoatiga muhtoj.*

3) WPm **va** WPm, WPm **va** WPm: *Buroqi inoyat aning markabi ulvi xiromi va Jibrili hidoyat aning payki barqgomi, laylat ul-me’roj aning shabistoni va «li ma’ollohi vaqtun» aning maqomi.*

4) WPm **va** WPm ,WPm : *Ilohi, pariuzorlarga meni devona qilding va sham’i ruxsorlarg‘a ko‘nglumni parvona qilding, bu sabablardin rasvolig‘ bila olamg‘a afsona qilding.*

5) WPm - WPm , WPm – WPm , **ammo** WPm **va** WPm: *Ilohi, yo‘q erdim - bor etting, tifl erdi - ulug‘lar jarg‘asig‘a qotting, **ammo** nafsu havo elidin zuhlum niholin ushotting va ofiyatim xaylin yozuq sipohi turktozidin tarqatting.*

6) WPm (shart mayli), WPm(shart mayli) , WPm **va** WPm(shart mayli) , WPm va WPm : *Ilohi, dardi holimni har kimga aytsam, rad qilsa, sanga tavajjuh etkaymen **va agar** sen rad qilsang, netkaymen **va kimga ketkaymen?***

Misollardan ko‘rinib turibdiki, Alisher Navoiy murakkab qo‘shma gaplarni tuzishda teng va tobe bog‘lanishni hosil qiluvchi bog‘lovchilardan unumli foydalangan, ularga turli ma’nolarni yuklagan. Masalan, **va** bog‘lovchisining vazifasi Navoiy davrida juda kengaygan. Bu bog‘lovchi yolg‘iz kelganda, payt va qiyoslash munosabatida bo‘lgan gaplarni biriktirgan bo‘lsa, murakkab qo‘shma gaplarda esa takror qo‘llanib, payt, izoh, qiyoslash, sabab-natija kabu turli-tuman semantik munosabatlarni ifodalagan. Bunday qolipli gaplarda oxirgi pozitsiyada turgan gap ko‘pincha xulosalovchi qism vazifasida keladi: *Yuz yigirma to‘rt ming anbiyoyi mursal xilqatidin murod ul va barcha anga xayl va o‘n sekiz ming olam ixtiro ‘idin maqsud — ul va ofarinish anga tufayl.*

Xullas, turkiy til shaydosi va targ‘ibotchisi bo‘lgan Alisher Navoiy, nazmda bo‘lgani kabi, Sharq nasrining eng yaxshi xususiyatlarini nafaqat o‘zlashtirdi, balki ularni rivojlantirdi, eski o‘zbek adabiy tilida o‘ziga xos nasr maktabini yaratib ketdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. МАНБАЛАР

1. Миллий нашрлар

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ / Ш.М. Мирзиёев. – Тошкент: «Узбекистан» НМИУ, 2016. – 56 б.
2. Мирзиёев Ш.М. «Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини ҳалқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари» мавзуидаги ҳалқаро конференция иштирокчиларига йўллаган табриги // Халқ сўзи, 2018 йил, 8 август.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. Xalq so‘zi. 2020 yil 30 dekabr. №276. 2-bet.
4. Алишер Навоий: қомусий луғат. Икки жилдлик / Масъул муҳаррир: Ш.Сирожиддинов. I ж. – Тошкент: Sharq, 2016. – 536 б.
5. Алишер Навоий: қомусий луғат. Икки жилдлик / Масъул муҳаррир: Ш.Сирожиддинов. II ж. – Тошкент: Sharq, 2016. – 480 б.
6. Бобур З. М. Бобурнома (р.287), “Ўқитувчи”, 2008.
7. Nizomiy Ganjaviy. Iqbolnoma. – T.: Extremum – press, 2017. - 330 b.
8. Ганжавий Н. Хамса / Форсчадан О.Бўриев таржимаси. – Тошкент: Istiqlol nuri, 2016. – 684 б.
9. Ganjaviy N. Sharafnama / Forsiydan Jamol Kamol tarjimasi. – Тошкент: Zamin nashr, 2018. – 640 б.
10. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.1. – Т.: Фан, 1987. – 724 б.
11. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.2. – Т.: Фан, 1987. – 620 б.
12. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.3. – Т.: Фан, 1988. – 616 б.
13. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.4. – Т.: Фан, 1989. – 560 б.
14. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.5. – Т.: Фан, 1990. – 554 б.
15. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.6. – Т.: Фан, 1990. – 568 б.
16. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.7. – Т.: Фан, 1991. – 392 б.
17. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.8. – Т.: Фан, 1991. – 544 б.
18. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.9. – Т.: Фан, 1992. – 356 б.
19. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.10. – Т.: Фан, 1992. – 448 б.
20. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.11. – Т.: Фан, 1993. – 640 б.

21. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.12. – Т.: Фан, 1996. – 326 б.
22. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.13. – Т.: Фан, 1997. – 284 б.
23. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.14. – Т.: Фан, 1998. – 304 б.
24. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.15. – Т.: Фан, 1999. – 236 б.
25. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.16. – Т.: Фан, 2000. – 336 б.
26. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.17. – Т.: Фан, 2001. – 590 б.
27. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.18. – Т.: Фан, 2002. – 552 б.
28. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.19. – Т.: Фан, 2002. – 600 б.
29. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.20. – Т.: Фан, 2003. – 568 б.
30. Навоий Алишер.Муқаммал асарлар тўплами:15 томлик.Т.14.Тарихи мулуки Ажам–Т.: Фан,1967, 269 б.
31. Навоий А. Муножот . Т.:”Камалак”, 1991 - 6 б.
- 32.Навоий асарлари луғати. Тузувчилар Шамсиев П., Иброҳимов С. – Тошкент:Ғ. Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти,1972. – 782 б.
- 33.Навоий Алишер. Хамса. –Т.: Наврӯз, 2019, 711 б.
- 34.Навоий, Алишер. “Садди искандарий”(насрий баёни билан).-Т., 1991
- 35.Тарозий Шайх Аҳмад ибн Худайдод. Фунун ул-балога. – Тошкент: Хазина. 1996. – 212 б.
- 36.Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф.(2018). Ислом тарихи. 1-жуз - Т.:”Hilol-Nashr”.512 б.
- 37.Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Тошкент: Фан, 1972. – 964 б.
- 38.Фитрат Абдурауф . Танланган асарлар - Т.: Маънавият,2000

2. Хорижий наширлар

1. Амир Хосрав Дехлави.Избранные сочинение.В 4-х томах. Т.1.- Душанбе: Ирфон, 1971
2. Əmir Xosrov Dəhləvi.Şirin və Xosrov. Bakı, “Avrasiya Press” ,2006
3. Arif Ardabiliy, Farhadname,Baki, 2007, 309 s.
4. Низами Гянжяви. Хосров вя Ширина. –Бакы, “Лидер няшриййат”, 2004, 392 сях.

II. ILMIY-NAZARIY ADABIYOTLAR

1.Миллий наширлар

1. Абдуллаев В. Навоий Самарқандда- Т.:” Билим ”, 1967.-33 б.

2. Исломов И. (2019). Алишер Навоий «Сади Искандарий» достонининг қиесий таҳлили. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган Диссертация/ Кўлёзма ҳуқуқида,162 б.
3. Комилов,Нажмиддин. Тасаввуф. - Т.: Мовароуннахр - Ўзбекистон, 2009 - 447 б.
4. Маллаев Натан. Сўз санъатининг гултожи - Т.: Faafur Fulom,1991- 152 б.
5. Махмудов Н., Нурмонов А.Ўзбек тилининг назарий грамматикаси, Т.:”Ўқитувчи”, 1995 - 232 б.
6. Муллахўжаева Каромат, Алишер Навоий ғазалиётида тасаввуфий тимсол ва бадиий санъатлар уйғунлиги .- Т.,2019.- 208 б.
7. Олим Султонмурод.Нақшбанд ва Навоий.-Тошкент,1992
8. Рафиддинов Сайфиддин,Тасаввуф ва Нақшбандийлик (Манбалар ва ҳикматлар)-Т.:Ўзбекистон,2019, 192 б.
9. Рўзиева Д. Низорийнинг “Фарҳод ва Ширин” достони. ”Адабий мерос”, 1971. № 2.
10. Саломов, Ғайбулла. *Таржима ташвишилари*. - Т.:Адабиет ва санъат нашриети. 1983.
11. Сулеймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. Т.: Ўзбекистон, 1997, 415 б.
12. Толстов С.П.Қадимги Хоразм маданиятини излаб.- Т. , 1964
13. Фуломов А, Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Т.:”Ўқитувчи”, 1987 - 256 б.
14. Ҳаққулов Иброҳим. Навоийга қайтиш. 4-китоб.- Т.:Тафаккур нашриети,2021.-240 б.
15. Эрали Бобомурод.Мажозий муҳаббат ҳақиқатлариюАлишер Навоий асарларига янгича шарҳлар.- Т.:Академнашр,2015. – 80 б.
16. Эркинов С. Навоий «Фарҳод ва Ширин»и ва унинг қиёсий таҳлили.- Т.,1971. – 276 б.
17. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. Т.: 1999 - 240 б.
18. Abdurahmonov G‘, Shukurov Sh, Mahmudov Q. O‘zbek tili tarixiy grammatikasi : fonetika, morfologiya va sintaksis.T.:O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008.-528 b.
19. Qayumov A.,”Farhod va Shirin” sirlari. –Т.: G‘afur G‘ulom, 1979.-168 b.

20. Qodirov M., *Uchinchi Renessans haqida ba'zi mulohazalar*. Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 2 ISSN 2181-1784 156 w 2021 March ,156-161 – betlar

21. Yo'ldasheva M., Ingliz adabiyotida antik obrazlar. "Jahon adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari" mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. –Т.: 2022.- 348 b.

22. Shamsiyeva, Zarnigor. (2021). *O'zbek mumtoz adabiyotida tatabbu' tarixidan*. "Filologiya ufqlari" jurnali , no. 6 (ноябрь 12, 2021).

2.Хорижий наширлар

1. Абдуллаев О. Творческая новизна и новаторства в поэтических произведениях «Ширин и Хосрав» Амира Дехлави и «Фархад и Ширин» Алишера Навои . Наука, новые технологии и инновации Кыргызстана №8, 2016, стр. 95-98.

2. Адам Мец. Мусульманский Ренессанс. Изд-во “Наука”. Главная редакция Восточной литературы. М., 1966, 144-145-бетлар.

3. Ayan, Gönül. (1973). *Bursali Lami'i Bibliyografyası*, (Doktora Önçalışması) Erzurum, Fen-Edebiyat Fakültesi Araştırma Merkezi.

4. Ayan, Gönül. (1994) *Lami'i Çelebi'nin hayatı, edebi kişiliği ve eserleri*. Turkiyat arastirmalari dergisi, Sayı:1, Kasim

5. Алиев Г. Ю. Темы и сюжеты Низами в литературах народов Востока. – М.: Наука, 1985. - стр.366.

6. Алиев Г, Легенда о Хосрове и Ширин в литературах народов Востока - Москва ,1960.

7. Арасли Н.Г. Ариф Ардабилий и его поэма "Фархаднаме". Автограферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук.-Баку,1969,27 стр.

8. Burmaoğlu, Hamit Bilen .(1983). *Lamii Çelebi: Hayatı, Edebi Kişiliği, Eserleri ve Divanının Tenkitli Metni*, Doktora Tezi, Atatürk Univ., Erzurum.

9. Burmaoğlu, Hamit Bilen. (1989). *Bursali Lamii Çelebi Divanından Seçmeler*, Kültür Bak.Yay., Ankara.

10. Бертельс Е.Э. Низами. Творческий путь поэта. - М.: Наука. 1956

11. Брагинский И., Из истории таджикской народной поэзии, Академия наук СССР, 2004

12. Воробьев Д.Н. (2017). Сократ как пророк. Архаические черты ксенофонто-платоновского образа Сократ, Философская мысль, № 11, стр 47-57
13. Duda Herbert, Ferhad und Schirin, Praha, 1933.
14. Güneş, Özlem. (2010). Fahrî'nin Husrev u Şîrîn'i (metin ve tahlil), Nizâmî ve Şeyhî'nin eserleriyle karşılaşılması. Doktora tezi. İstanbul üniversitesi. Sosyal bilimler enstitüsü.Türk dili ve edebiyatı anabilim dalı.Istanbul.
15. Erkal, Abdulkadir. (1998). *Lâmi'î Çelebi. Ferhad u Şirin (FERHADNAME)* . İnceleme – Metin. Yüksek lisans tezi, Erzurum.
16. Ipekten, Haluk. (1996). *Divan Edebiyatında Edebi Muhitler*, Milli Egitim Bak.Yay. Istanbul.
17. Ferhat ve Şirin efsanesi . <https://tr.wikipedia.org> › wiki
18. Levend, Agah Sırı .(1964.) *Lami'i'nin Perhad u Şirin'i*, Türk Dili Araştırmaları Yıllığı.
19. Türklüyü ilə qururlanan Şirin. Nizaminin "Xosrov və Şirin"i əsasında - Səadət ŞIXIYEVA | Edebiyyatqazeti.az

3.Darsliklar

1. Vohidov R., Eshomqulov H., O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O‘quv qo‘llanma (p.528), *O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti*, 2006.
2. Маллаев Н. Ўзбек адабиети тарихи (p.659) , “Ўқитувчи”, 1965.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-fasl: “Emas oson bu maydon ichra turmoq, Nizomiy panjasig‘a panja urmoq...”	5
Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida Nizomiy an'analari va ularning yangicha talqini	6
Orif Ardabiliy – Alisher Navoiyning salafi.....	11
O‘zbek va turk folklorida Farhod obrazi talqini.....	16
Nizomiy va Navoiyning ota-o‘g‘il munosabatlari haqidagi qarashlari.....	21
Mehinbonu –Afridun avlodi	26
Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi o‘n go‘zal qiz obrazining genezisi.....	31
Alisher Navoiyning epizodik obrazlar yaratish mahorati	36
Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi Suqrot obrazi genezisi	41
2-fasl: “Ko‘ngil bermish so‘zumga turk jon ham, Ne yolg‘uz turk, balkim turkmon ham...”	47
Lami’i Mahmud Chalabiyning Alisher Navoiyga tatabbu’ dostoni	48
3-fasl: “Ham o‘lg‘ay bu raqamdin san’ati ko‘p, Ham o‘lg‘ay san’atida diqqati ko‘p...”	68
Alisher Navoiyning “Xamsa”si – ikkinchi	

Renessans hayratnomasi.....	69
Navoiy ijodida tasavvufiy Chin mavzusi	75
Alisher Navoiy “Xamsa”sida hurufi dalolat san’atining tutgan o‘rni	81
Alisher Navoiyning “Masnaviy”si - turkiy nomaning betakror namunasi	85
A.Navoiyning “Munojot” nasriy asari tili haqida ba’zi mulohazalar	94
Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati.....	101

RAXMANOVA NAFISA AZATBEKOVNA

**TARHI TOZA DOSTON
HAQIDA O'YLAR**

Adabiy monografiya

Toshkent–2023
“Firdavs Shoh” nashriyoti

Муҳаррир *Д. Улуғмуродов*
Дизайнер *Б. Ҳайдаров*

Босишга рухсат этилди: 17.03.2023 й.
Бичими 60x84 $\frac{1}{16}$. Офсет қоғози.
Офсет босма усулида босилди.
«Times» гарнитураси.
Нашр табоғи 6,6. Адади 200 нусха.

Оригинал макет “FIRDAVS-SHOH” нашриётида
тайёрланди. Тошкент ш., Навоий кўчаси, 30.
Тел.: 90-372-85-17